

XALQARO HUQUQ FANI BO‘YICHA O‘QUV QO‘LLANMA

I-mavzu.

Xalqaro huquqning tushunchasi, mohiyati va ahamiyati

- Xalqaro huquqning paydo bo‘lishi.
- Xalqaro huquq tushunchasi.
- Xalqaro huquq obyektlari.
- Xalqaro huquq funksiyalari.
- Xalqaro huquq va davlatlarning milliy huquq tizimi.
- Xalqaro ommaviy huquq va xalqaro xususiy huquq.
- Xalqaro huquqda me’yorlarni yaratish jarayoni.
- Xalqaro huquq tizimi.
- O‘zbekiston Respublikasi diplomatiyasi va tashqi siyosati.

Xalqaro huquqning paydo bo‘lishi

Xalqaro huquq; huquqning boshqa sohalari kabi o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan emas. U muayyan ijtimoiy jarayonlarning rivojlanishi natijasida vujudga kelgan. Insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida qadimiy ilk jamoalar va qabilalar bir-biridan alohida ajralgan holda emas, balki qabilalarning yozilmagan qonunlari bilan birlashgan edi. Birinchi odat me’yorlari davlatchilikning vujudga kelishidan oldin ibtidoiy jamoa to‘zumi davridayoq paydo bo‘lgan.

Agar, «xalqaro huquq» tushunchasini davlatlararo huquq, sifatida tushunilsa, u holda, davlatchilik paydo bo‘lib, rivojlanishi bilan vujudga kelganini e’tirof etish lozim.

Xalqaro huquq — tarixiy ijtimoiy-huquqiy amaliyot rivojlanishi natijasidir. Insonlarning (guruqlar, tabaqalarning) o‘z milliy manfaatlarini anglash vositasi sifatida paydo bo‘lishi, ayniqsa xalqaro munosabatlarning doimiy o‘zgarib turishiga aloqadorligi bilan xalqaro huquq milliy davlatlar va xalqlarning taraqqiyotiga muhim ta’sir ko‘rsatgan va ko‘rsatib kelmokda. Kishilik tarixi davomida xalqaro huquq nafaqat xalqaro munosabatlarning taraqqiyoti bilan birga rivojlanib kelgan, balki ularga ma’lum darajada ta’sir ham ko‘rsatgan.

Xalqaro huquqning kelib chiqishi tabiiy-obyektiv jarayondir. Xalqaro huquq paydo bo‘lishining umumiy shart-sharoiti — davlatlarning hohish-irodasi emas, balki insoniyat hayotining sharoiti, uning tarixiy taraqqiyoti, insonning atrofdagi dunyo bilan o‘zaro munosabati, ijtimoiy mehnat taqsimoti, davlatlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishidir.

Xalqaro huquq, — bizni o‘rab turgan dunyoning muhim bir ajralmas qismidir. U doimiy ravishda insonga, xalqlarga, davlatlarga ta’sir ko‘rsatib keladi.

Xalqaro huquq muhim huquqiy kategoriya bo‘lib, xalqaro munosabatlardan, ularning iqtisodiy, siyosiy, harbiy, madaniy va boshqa xususiyatlaridan o‘sib chiqqan.

Shunday qilib, xalqaro huquqning paydo bo‘lishi bevosita davlatlarning vujudga kelishi va rivojlanishi bilan bog‘liq. Davlatlar taraqqiyotining obyektiv shart-sharoiti ular o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy va huquqiy munosabatlarni o‘rnatish zaruratini keltirib chiqaradi. Buning natijasi o‘larоq huquqning mustaqil tizimi sifatida xalqaro huquqning paydo bo‘lishi va rivojlanishidir.

Xalqaro huquq davlatlar, xalqlar va xalqaro tashkilotlar o‘rtasidagi turli xil munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan.

«Xalqaro huquq» tushunchasini aniqlash va unga ta’rif berish xalqaro huquq, fanining eng muhim vazifalaridan biridir. Agar davlat va huquq, nazariyasi fani davlatlarning milliy huquqiy tizimiga hos bo‘lgan hodisalarni o‘rgansa, xalqaro huquq fani esa davlatlararo yoki kengrok ma’noda xalqaro munosabatlarga hos bo‘lgan hodisa va jarayonlarning huquqiy xususiyatlarini ko‘rib chiqadi.

Xalqaro-huquqiy me'yorlarda milliy davlatlarning o'zaro munosabatlari dagi murakkab jarayonlar o'z aksini topadi. Ularning asosida shakllanayotgan, xalqlarning subyektiv hohishirodasiga emas, balki ijtimoiy taraqqiyotning obyektiv omillariga mos keladigan huquqiy ong xalqaro huquqda o'z ifodasini topadi.

Hozirgi xalqaro munosabatlarga ta'sir qiluvchi ko'plab omillar ichida xalqaro huquq, ustuvorligi to'g'risidagi qoida XXI asrdagi sivilizatsiya va huquqiy ong darajasiga ko'proq mos keladi.

Xalqaro huquq fanida xalqaro huquq tushunchasiga turli xil ta'riflar berilgan. Shulardan bir nechtasini keltirib o'tamiz:

- Birinchi ta'rif: xalqaro huquqni «davlatlarning irodasini muvofiqlashtirish asosida tuzilgan va rivojlanadigan davlatlarning tinch-totuv yashashi, xalqlarning teng huquqliligi va o'z taqdirini o'zi belgilashini ta'minlash maqsadida xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik me'yorlar tizimi» sifatida ta'riflash mumkin.

- Ikkinci ta'rif: xalqaro huquq. — bu «davlatlar va ushbu huquq, tizimining boshqa subyektlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik me'yorlar tizimidir.

- Uchinchi ta'rif: xalqaro huquq. «ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlarining ta'siri bilan bog'liq ravishda xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi va davlatlar irodasining nisbiy uyg'unligini ifodalovchi shartnomalar, odat me'yorlari va tamoyillar tizimidir».

Xalqaro huquqga berilgan yuqorida va boshqa ko'plab ta'riflarning mualliflari imkon qadar ko'proq xalqaro huquqqa hos bo'lgan hodisalarni qamrab olishga harakat qilganlar. Biroq ta'kidlab o'tish joizki, bunday vazifani uddalash juda mushkuldir. Har qanday ilmiy ta'rif unda foydalanilgan atamalar, tushunchalarning, shuningdek, ulardan kelib chiqadigan tushunchalarning izohlanishini talab qiladi.

Hozirgi zamon xalqaro huquqi ikkinchi jahon urushidan keyin Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomi qabul qilinganidan so'ng yuzaga kelib, rivojlangan. Shu bois, hozirgi zamon xalqaro huquq tushunchasi xalqaro munosabatlarning umum e'tirof etilgan tamoyillari va me'yorlari rivojlanishining yangi bosqichini aks ettirgan holda, xalqaro huquq Harakatining xronologik doirasini belgilaydi.

Fikrimizcha, xalqaro huquqning umumiyligi tushunchasini (ta'rifini) quyidagicha ifodalash mumkin:

Xalqaro huquq — bu tinchlik va hamkorlinli ta'minlash maqsadida davlatlararo munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik me'yorlar tizimidir.

«Xalqaro huquq.» atamasi xalqaro ommaviy huquqni bildiradi, undan xalqaro xususiy huquqni farqlab olish lozim. Shu bois, «xalqaro huquq» atamasi ma'lum darajada shartli ekanligini ta'kidlab o'tish joiz.

Xalqaro huquq obyektlari

Xalqaro huquq. obyektiga har qanday emas, balki muayyan xalqaro munosabatlar kiradi.

Xalqaro munosabatlar — bu davlatlar va davlatlar tizimi o'rtasidagi siyosiy va iqtisodiy, madaniy, huquqiy, diplomatik, harbiy va boshqa turdag'i aloqalar va munosabatlar majmuidir. Shuningdek, dunyo miqyosidagi asosiy siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa tashkilotlar, harakatlar o'rtasidagi hamkorliklardan iborat.

Xalqaro munosabatlar o'zining mazmuniga ko'ra biron-bir davlatning vakolati va yurisdiksiyasi doirasidan chiqib, davlatlarning birgalikdagi yoki butun jahon hamjamiyatining vakolatlari va yurisdiksiyalari obyekti hisoblanadi.

Xalqaro munosabatlarda davlatlararo munosabatlar asosiy rol o'ynaydi. Shu bilan birga nodavlat xarakteridagi xalqaro munosabatlar, ya'ni turli davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari o'rtasidagi shuningdek, xalqaro nohukumat tashkilotlar va xalqaro xo'jalik birlashmalari ishtirokidagi xalqaro munosabatlar ham mavjud.

Xalqaro huquq obyektiga, eng avvalo, suveren davlatlar o'rtasidagi munosabatlar kiradi. Davlatlararo munosabatlar — bu avvalambor hukumatlararo munosabatlardir. Davlatlar

o'rtasidagi mavjud munosabatlar tegishli xalqaro bitimlar bilan tartibga solingandagina xalqaro-huquqiy shaklga ega bo'ladi. Davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatish BMT Ustavida mustahkamlab qo'yilgan umum e'tirof etilgan xalqaro huquq. tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Xalqaro huquq tarmog'i sifatida quyidagi munosabatlarni, ya'ni:

- birinchidan, davlatlar o'rtasidagi — ikki tomonlama va ko'p tomonlama munosabatlarni (ularning ichida butun xalqaro hamjamiyatni qamrab oladigan munosabatlar alohida ahamiyat kasb etadi);
- ikkinchidan, davlatlarning xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishi bilan bog'liq. davlatlar va hukumatlararo tashkilotlar o'rtasidagi;
- uchinchidan, hukumatlararo tashkilotlar o'rtasidagi;
- to'rtinchidan, davlatlar va nisbiy mustaqil xalqaro maqomga ega bo'lgan davlat ko'rinishidagi tuzilmalar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi (masalan, Vatikan rim-xatolik cherkovining markazi sifatida alohida o'ziga hos xalqaro-huquqiy maqomga ega).

Demak, xalqaro- huquqiy munosabatlar obyekti — bu shunday vogelikdirki, unga ko'ra subyektlar xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan tamoyillari va me'yorlari asosida o'zaro huquqiy munosabatlarga kirishadilar.

Quyidagilar xalqaro-huquqiy munosabatlar obyekti sifatida namoyon bo'ladi:

- birinchidan, hudud (territoriya) va xalqaro yer kengligi;
- ikkinchidan, hatti-harakatlar;
- uchinchidan, hatti-harakatlardan tiyilish.

hudud xalqaro-huquqiy munosabatlar obyekti sifatida juda ko'p namoyon bo'ladi (masalan, tinchlik shartnomalarida).

Xatti-harakatlar davlatlar o'rtasidagi turli huquqiy munosabatlar obyekti bo'lishi mumkin (masalan, o'zaro yordam ko'rsatish to'g'risidagi hujjatlarda, ittifoq shartnomalarida).

Muayyan xatti-harakatlardan tiyilish ham xalqaro-huquqiy munosabatlar obyekti hisoblanadi (masalan, neytralitet to'g'risidagi, urush odatlari va qonunlari to'g'risidagi xalqaro-huquqiy hujjatlarda).

Xalqaro huquq funksiyalari

Xalqaro huquqning funksiyalarini ko'rib chiqmay, uning mohiyatini ochib berish mumkin emas.

Xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi xalqaro huquq. quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Muvofiqlashtiruvchi funksiya. Davlatlar xalqaro huquq. me'yorlari yordamida xalqaro hamkorlikning turli sohalarida umumiyl qabul qilingan xulq-atvor standartlarini belgilaydi.

Tartibga soluvchi funksiya. Bu davlatlar tomonidan qatyiy qoidalarni belgilashda namoyon bo'ladi. Bularsiz davlatlarning jahon hamjamiyati bilan munosabatlari va birqalikda mavjudligini tasavvur qilishning imkoniy yo'q.

Ta'minlash funksiyasi. Bunda xalqaro huquq. shunday me'yorlarni o'zida mustahkamlaydiki, bu davlatlarning ko'p yillik aloqalari jarayonida belgilangan ma'lum xulq-atvor qoidalariiga rioya qilishga undaydi.

Muhofaza funksiyasi. Bu davlatlar milliy manfaatlari va qonuniy huquqlarini himoya qiladi.

Xalqaro huquqning o'ziga hos xususiyati shundaki, xalqaro munosabatlarda davlatlardan yuqori turuvchi majburlash mexanizmi mavjud emas. Zarur hollarda davlatlarning o'zлari jamoa tarzida xalqaro-huquqiy me'yorlarning bajarilishini va xalqaro huquqiy-tartibotni ta'minlaydilar.

Xalqaro huquq va davlatlarning milliy huquqiy tizimi

Real vogelikda bir-biriga bog'liq, lekin mustaqil ikki huquqiy tizim mavjud: bir tomonidan, ichki davlat huquqi (alohida milliy davlatning huquqiy me'yorlari majmui) va

ikkinchi tomondan, huquqiy tartibga solishning o‘ziga hos obyekti va subyektiga ega bo‘lgan xalqaro huquq. Agar, ichki davlat huquqida huquqiy tartibga solish obyekti bir davlat doirasidagi ijtimoiy munosabatlar bo‘lsa, xalqaro-huquqiy munosabatlar obyektiga davlatlar va ularning birlashmalari o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar kiradi.

Huquq bir-biriga bog‘liq mustaqil ikki huquqiy tizim (ichki davlat huquqi va xalqaro huquq) tomonidan tashkil qilinadi deb tushunilishi xalqaro huquq fanida ham, davlat va huquq nazariyasi fanida ham tan olingan, e’tirof etilgan. Ushbu muammo xususida huquqshunoslik fanida turli xil nazariyalar olg‘a surilgan.

Ba’zi bir olimlar xalqaro huquqni yagona huquqiy tizim deb hisoblaydilar. Ular davlatlarning ichki munosabatlarini ham xalqaro huquq tartibga soladi, deb ma’lum bir bosqichda davlatlarni ichki huquqiy tartibga solishning rivojlanishini ham inkor qilmaydilar, lekin kelajakda xalqaro huquqning rivojlanishi bilan yo‘q bo‘lib ketadi, deb hisoblaydilar.

Ichki davlat huquqi va xalqaro huquqning o‘zaro aloqadorligi shundaki, xalqaro huquq davlatlarning konstitutsiyaviy tuzumi bilan, davlatlar va xalqaro munosabatlarning boshqa subyektlari bilan o‘zaro munosabatlarda davlat irodasini ifodalashga vakolatli davlat hokimiyyati organlari tizimi bilan, shuningdek, har qanday davlatning ichki ishi hisoblanadigan va odatda xalqaro huquqiy munosabatlarni tartibga solish doirasiga kirmaydigan ishlarning mavjudligi bilan hisoblashishga majburdir.

Ichki davlat huquqi davlatning majburiyatlarini mustahkamlovchi, ma’lum hollarda ushbu davlatning milliy huquqda aks ettirilishi lozim bo‘lgan xalqaro huquqiy me’yorlarning mavjudligi bilan hisoblashadi.

Xalqaro huquq va ichki davlat huquqi bir-biridan alohida mavjud bo‘lmaydi. Xalqaro huquq me’yorlarini ishlab chiqishga milliy huquqiy tizimlar ta’sir ko‘rsatadi, u davlatning tashqi siyosati va diplomatiyasida o‘z ifodasini topadi.

Xalqaro huquq o‘z navbatida milliy qonunchilikning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Xalqaro huquq me’yorlari o‘z subyektlari uchun, ya’ni eng avvalo davlatlar uchun huquq va majburiyatlar turdiradi. Davlatning rasmiy organlari, uning yuridik va jismoniy shaxslari esa bevosita xalqaro huquq me’yorlariga bo‘ysunmaydilar, chunki uning subyekti bo‘lib hisoblanmaydilar. Xalqaro majburiyatlarning ichki davlat huquqi darajasida real amalga oshirilishini ta’minalash uchun xalqaro-huquqiy me’yorlarni milliy qonunlarda mustahkamlash, ya’ni transformatsiya qilish choralar ko‘riladi.

Ko‘pgina davlatlarning, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasining qonunlarida shunday qoida mustahkamlab qo‘yilgan, unga ko‘ra davlatlarning ichki qonuni bilan xalqaro shartnomalari o‘rtasida ziddiyat mavjud bo‘lsa, xalqaro shartnomalar ustuvorlikka ega bo‘ladi. Bunday qoida xalqaro huquqda davlatlarning ichki huquqiy qoidalari ustidan ustuvorligi deb ataladi. O‘zbekistan Respublikasi Fuqarolik kodeksining 7-moddasida shunday deyilgan: «Agar xalqaro shartnomalar va bitimlarda fuqarolik qonunchiligidagidan boshqacha tarzda nazarda to‘tilgan bo‘lsa xalqaro shartnomalar va bitimlardagi qoidalari qo‘llaniladi».

Xalqaro ommaviy huquq va xalqaro xususiy huquq

Xalqaro munosabatlar davlatlararo munosabatlar bilan cheklanib qolmaydi. Turli davlatlarning jismoniy va yuridik shaxslari o‘rtasida, xalqaro nohukumat tashkilotlari o‘rtasida doimiy ravishda aloqalar bo‘lib turadi. Bunday aloqalar tegishli davlatning milliy huquq me’yorlari yoki xalqaro xususiy huquq me’yorlari bilan tartibga solinadi.

Xalqaro ommaviy huquq va xalqaro xususiy huquq o‘rtasida yaqin o‘zaro aloqadorlik mavjud. Har ikkisi ham keng ma’noda xalqaro munosabatlarni tartibga soladi. Xalqaro xususiy huquq xalqaro xarakterdagi fuqarolik-huquqiy me’yorlar majmui sifatida xalqaro ommaviy huquqning umum e’tirof etilgan tamoyillariga zid bo‘lmasligi kerak.

Xalqaro xususiy huquq, xalqaro ommaviy huquq bilan aynan bir xil emas va uning sohalaridan biri hisoblanmaydi. Xalqaro xususiy huquq tartibga soladigan o‘zining mustaqil predmetiga ega.

Xalqaro huquqda me'yirlarni yaratish jarayoni

Xalqaro ommaviy huquq — davlatlararo munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik me'yirlarning mustaqil tizimidir.

Xalqaro huquqiy tizimi me'yorlarini yaratishning o'ziga hos tomoni shundaki, bu jarayonda subyektlarning o'zi ixtiyoriy ravishda, hohish-irodasini bildirish yo'li bilan ishtirok etadilar. Binobarin, xalqaro huquq, uyg'unlashtiruvchi hamda muvofiqlashtiruvchi xarakterga ega.

Xalqaro huquqiy tizim subyektlarining o'zidan boshqa qandaydir bir bu tizimga nisbatan «tashqaridan» bo'lgan subyektlar me'yorlar yaratish jarayonida ishtirok etmaydi. Shu bois, xalqaro huquqiy tizimning subordinarlik xarakteri inkor qilinadi, hech kim xalqaro huquq subyektlarining ixtiyoriga qarshi ular uchun xulq-atvor qoidalarini, ya'ni me'yirlarni o'rnatishi mumkin emas. Binobarin, xalqaro huquqda nisbatan «qonunchilik», «xalqaro qonuniylik» tushunchalarini qo'llash ma'lum ma'noda noto'g'ri.

Xalqaro huquq tizimi

Xalqaro huquq tizimi — bu quyidagi o'zaro ichki elementlarning obyektiv mavjud bo'lgan bir butunligidir.

- Birinchidan, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan tamoyillari, me'yorlari(shartnomaviy va oddiy-huquqiy).
- Ikkinchidan, xalqaro tashkilotlarning qarorlari, tavsiyaviy rezolyutsiyalari, xalqaro sud organlarining qarorlari.
- Uchinchidan, xalqaro huquq institutlari (xalqaro tan olish instituti shartnomalarga nisbatan huquqiy vorislik instituti, xalqaro javobgarlik instituti va boshqalar).

Tizimning qayd etib o'tilgan barcha elementlari turli birikmalarda xalqaro huquq tarmoqlari (diplomatik huquq xalqaro shartnomalar huquqi, xalqaro dengiz huquqi va boshqalar) tashkil qiladi, ushbu har bir tarmoq o'zi mustaqil tizim sifatida namoyon bo'ladi, bunday tizimlar xalqaro huquqning yaxlit yagona tizimi doirasida shu tizimning bir qismi hisoblanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati va diplomatiysi

Tashqi siyosat tushunchasi davlatning xalqaro munosabatlardagi umumiyligi yunalishini qamrab oladi.

Tashqi siyosat davlatning boshqa davlatlar, xalqlar va xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlari sohasidagi faoliyatining maqsadlari va vositalari majmuini qamrab oladi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari Konstitutsiyaning 17-moddasida qonuniy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan.

Diplomatiya tashqi siyosatning muhim vositasi hisoblanadi. Aynan tashqi siyosat diplomatianing maqsad va vazifalarini belgilab beradi. Diplomatiya amaliy tadbirlar, shuningdek, tashqi siyosatni amalga oshirishda foydalilaniladigan shakl, vositalar va metodlar majmuini ifodalaydi. Diplomatiya bilan bir qatorda davlatning iqtisodiy, madaniy va boshqa muhim aloqlari ham uning tashqi siyosiy vositalari hisoblanadi.

O'zbekiston tashqi siyosatining bosh maqsadi davlat suverenitetini himoya qilish, ijtimoiy yunaltirilgan bozor iqtisodiyotini qurish uchun xalqaro zamin yaratish, tinchlikni va siyosiy barqarorlikni ta'minlash, xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida barcha davlatlar bilan teng huquqda hamkorlikdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi o'z tashqi siyosatini yuritishda quyidagi asosiy ustuvorliklardan kelib chikadi:

- birinchidan, o'z milliy-davlat manfaatlari ustuvorligida o'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olish;
- ikkinchidan, inson va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda umuminsoniy qadriyatlarga ustuvorlik berib, O'zbekiston xalqaro maydonda tinchlik va xavfsizlikni

mustahkamlash, mojarolarni tinchlik yo‘li bilan hal qilishni yoqlaydi;

- uchinchidan, O‘zbekistonning tashqi siyosati teng huquqlilik va o‘zaro manfaatdorlik tamoyillariga, ichki ishlariga aralashmaslik, mustaqillik va suverenitetni cheklash mumkin bo‘lgan imkoniyatlarni bartaraf qiladigan tamoyillarga, davlatlararo munosabatlarni mafkuradan holi qilish tamoyillari asosida ko‘riladi;
- to‘rtinchidan, O‘zbekiston tashqi siyosatida ochiq mafkuraviy qarashlardan xolilik tamoyillarini amalga oshirish, keng tashqi aloqalarni barcha tinchliksevar davlatlar bilan o‘rnatishga intiladi;
- beshinchidan, O‘zbekiston davlatining ichki huquqi oldida xalqaro-huquq me’yorlarining ustuvorligini tan oladi, xalqaro-huquqiy standartlarga riosa qiladi;
- oltinchidan, O‘zbekiston o‘zaro ishonch tamoyili bo‘yicha ikki tomonlama va ko‘p tomonlama tashqi aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirish, xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlikni rivojlantirishni yoqlaydi.

2-mavzu.

XALQARO HUQUQ MANBALARI VA NORMALARI TUSHUNCHASI

- Xalqaro huquq normalari tushunchasi.
- Xalqaro huquqiy munosabatlar.
- Xalqaro huquq manbai tushunchasi.
- Xalqaro huquqning asosiy manbalari.
- Xalqaro huquqni sistemalashtirish kodifikatsiyalash.

Xalqaro huquq normalari tushunchasi.

«Norma» so‘zi lotin tilida qoida, rahbariy ko‘rsatma, namuna ma’nosini anglatadi.

Huquq normasi huquq. subyektlari deb ataluvchi va unda ko‘rsatilgan shaxslarning yuridik majburiy xarakterdagи xulq-atvor qoidalari bildiradi. Normalarning yuridik majburiyligi shundaki, u bilan belgilangan yurish-turish va xulq-atvor qoidalari majburiy hisoblanadi va lozim bo‘lgan taqdirda majburlov choralar qorali ta’milanadi. Milliy huquqda yuridik normalar davlat tomonidan o‘rnataladi, muhofaza qilinadi va ta’milanadi.

Xalqaro huquq normalari — davlatlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlari tomonidan yuridik majburiy deb tan olinadigan xulq-atvor qoidalari.

Xalqaro huquq normalari mazmunini davlatlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlarining huquq. va majburiyatlar tashkil qiladi.

Xalqaro huquq subyektining hamda boshqa subyektlarning lozim darajadagi va ehtimolli xulq-atvori to‘g‘risida fikrlashi mumkin.

Xalqaro huquq normalari — subyektlarning normalarida ko‘zda to‘tilgan, zarurat bo‘lganda majburlash yo‘li bilan ta’milanadigan yuridik majburiy xarakterdagи xulq-atvor qoidalari.

Xalqaro huquqning o‘ziga hosligi shundaki, uning subyektlari bir-birlaridan hamda majburiy xulq-atvor qoidalari belgilashi va unga rioya qilinishini ta’milashi mumkin bo‘lgan qandaydir yuqori turuvchi, uchinchi hokimiyat tuzilmasidan mustaqildir. Zero, o‘zar munosabatlarga kirishuvchi davlatlar va ularning birlashmalari ustida ularni o‘ziga bo‘ysundiradigan qandaydir yuqori turuvchi tuzilma yoki boshqa biron bir hokimiyat yo‘q.

Barcha xalqaro-huquqiy normalar majmui yagona me’yoriy tizim — xalqaro huquqni tashkil qiladi.

Xalqaro -huquqiy munosabatlar

Xalqaro huquq. tomonidan tartibga solinadigan xalqaro munosabatlar — subyektlari o‘rtasidagi shunday ijtimoiy munosabatlarki, ular xalqaro-huquqiy tartibga solish obyekti hisoblanadi. Binobarin, bunday munosabatlar xalqaro huquqiy munosabatlar xarakterini kasb etadi.

Xalqaro huquq milliy huquq. singari subyektlar o‘rtasidagi har qanday munosabatlarni emas, balki faqat huquqiy tartibga solish talab qilinadigan qismini tartibga soladi. Bundan tashqari huquq. — xalqaro va milliy huquqlar o‘zining ma’lum konservativligi tufayli odatda vujudga keladigan huquqiy tartibga solish talabidan orqada qoladi.

Xalqaro-huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan xalqaro munosabatlar xalqaro-huquqiy munosabatlar xarakteriga ega bo‘ladi. Xalqaro huquq subyektlari u yoki bu xalqaro-huquqiy munosabatlarga kirishish bilan o‘z huquq. va majburiyatlarini amalga oshiradilar.

Xalqaro huquqiy munosabatlar turli-tumanligi bilan xarakterlanadi va xalqaro huquqiy normalarning turli-tuman bo‘lishini belgilaydi. Bir turdagи xalqaro munosabatlarni muayyan guruhlarga ajratish mumkin, bu o‘z navbatida xalqaro huquq. institutlari va tarmoqlarini tashkil qiluvchi bir turdagи xalqaro huquqiy normalar guruhi va majmui (kompleksi) mavjudligini

bildiradi.

Xalqaro-huquqiy institut — bir turdag'i xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi, ushbu munosabatlarning umumiy obyekti bilan o'zaro yaqin aloqador bo'lgan huquqiy normalar guruhidir.

Huquqiy normalar va institutlar xalqaro huquq tarmog'iga birlashadi. Barcha bir turdag'i xalqaro munosabatlar majmui tarmoq obyekti hisoblanadi. Ularni tashkil qilishning yagona yo'li xalqaro huquq subyektlarining kelishivi hisoblanadi. Faqat xalqaro huquq subyektlarigina o'zining u yoki bu xatti-harakatlariga, xulq-atvor qoidalariga yuridik majburiy xarakter berishi mumkin.

Xalqaro huquqiy normalarni bajarish asosan ushbu huquq tizimi subyektlari tomonidan ixtiyorilik asosida amalga oshiriladi.

Xalqaro huquqning jus cogens normasi davlatlarning xalqaro hamjamiyati tomonidan qabul qilingan va chetlab o'tish mumkin bo'lмаган нормаси сифатида таң олинадиган нормалар сифатида тушунилади ва бундай нормалар фақат кейин qabul qilingan aynan shunday xarakterdagi normalar bilangina o'zgartirilishi mumkin. Jus cogens normasining xalqaro huquqning boshqa imperativ normalaridan farqi shundaki, davlatlarning jus cogens normasidan har qanday chetlashi bunday xatti-harakatni ahamiyatsiz qiladi.

Imperativ normalarning mavjudligi xalqaro-huquqiy normalarning iyerarxiyasi masalasini kun tartibiga qo'yadi. Jus cogens normasi oliy yuridik kuchga ega va barcha xalqaro-huquqiy normalar ularga muvofiq bo'lishi shart. Davlatlar xalqaro maydonda o'z xatti-harakatlarini so'zsiz ravishda shu normalariga moslashtirishlari lozim.

Xalqaro huquq normalari ichida birlamchi deb ham yuritiladigan tartibga soluvchi normalar, ya'ni davlatlar va xalqaro huquqning boshqa subektlarining o'zaro muomala va hamkorligi jarayonidagi xatti-harakatini tartibga soluvchi normalar, shuningdek, ikqilamchi deb yuritiladigan huquqni muhofaza qiluvchi normalarga bo'linadi. So'ngisini ikqilamchiligi shundaki, bunday normalar faqat subyektlar tomonidan tartibga solinuvchi birlamchi normalar bo'zilgan takdirda kuchga kiradi va ular uchun salbiy yuridik oqibatlarni keltirib chiqaradi. Jumladan, bunga xalqaro huquqga xilof xatti-harakati uchun davlatlarning xalqaro javobgarligi to'g'risidagi normalar kiradi.

Xalqaro-huquqiy normalar yagona yaxlit — xalqaro-huquqiy tizim — xalqaro huquqni tashkil qiladi. Natijada uning normalari faqat ularning boshqa barcha normalari bilan o'zaro aloqadorligini hisobga olgan holda talqin qilinadi va qo'llaniladi.

Xalqaro huquq manbalari tushunchasi

Davlat va huquq nazariyasida «huquq. manbalari» atamasi ikki ma'noda — moddiy va formal ma'noda qo'llaniladi. Moddiy manbalar deganda jamiyat hayotining moddiy shart-sharoitlari tushuniladi. Huquqning formal manbalari — huquq normalari o'z ifodasini topadigan shaklini anglatadi. Faqat huquqning formal manbalari yuridik kategoriya hisoblanadi va yuridik fanning, shu jumladan, xalqaro huquq fanining Organish predmeti hisoblanadi.

«Huquq. manbalari» — davlat va huquq nazariyasi tomonidan ishlab chiqilgan va umuman huquqqa taalluqli bo'lgan, ya'ni milliy huquqda ham, xalqaro huquqda ham tegishli bo'lgan tushunchadir. Yuridik ma'noda huquq. manbai xulq-atvor qoidalarini ifodalovchi va yurish-turish qoidalariga huquqiy norma tusini beruvchi shakl hisoblanadi. Mazkur tushuncha ikki elementdan tashkil topadi:

- birinchidan, yuridik ahamiyatga ega bo'lgan xatgi-harakat qoidalari muayyan shaklda ifodalanishi kerak;
- ikkinchidan, bunday shakl mazkur qoidalarni huquqiy norma sifatida e'tirof etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Manbalaridan kelib chiqqan holda xalqaro huquqning o'ziga hoslik tomonlari quyidagilardan iborat:

- Birinchidan, xalqaro huquq. normalari uning subyektlari tomonidan tegishli xatti-

harakatlar bo'yicha va ularga xalqaro-huquqiy norma tusini berish xususida o'rtadagi o'zaro kelishuvni mustahkamlaydi. Normalarni belgilovchi bunday kelishuvga subyektlarning irodasini muvofiqlashtirish yo'li bilan erishiladi va shu bilan ularning umumiy hohish-irodasini ifodalaydi. Shu bois, bunday kelishuv shakli mazkur xalqaro-huquqiy normaning manbai hisoblanadi.

• Ikkinchidan, xalqaro-huquqiy normani unda ko'rsatilgan subyektning subyektiv huquqiga har doim boshqa subyektning tegishli subyektiv majburiyati qarama-qarshi turishi (milliy huquqdan farqli ravishda) xarakterlaydi. Shuning uchun xalqaro huquqning manbalari to'g'risida gap ketganda xalqaro-huquqiy munosabatlarning potensial yoki real ishtirokchilarining subyektiv huquq. manbai yoki subyektiv majburiyat manbai to'g'risida gapirish mumkin.

• Uchinchidan, subyektiv xalqaro-huquqiy majburiyatlar ko'p marotaba qo'llashga mo'ljallangan(umumiy xatti-harakat) normalarda va individual, qandaydir bir martalik vaziyatda yoki juda kam uchraydigan vaziyatlarda (masalan, qarz yoki kredit berish to'g'risidagi majburiyat, o'z hududida harbiy samolyotlarning qo'nishiga ruxsat berish, o'z hududida yuqolganlarning qidiruv ishlarini olib borishga ruxsat berish, muayyan ishlar bo'yicha xalqaro arbitraj yoki sud qarorlariga bo'ysunish) qo'llaniladigan normalarda aks ettirilishini hisobga olish lozim.

Xalqaro huquqning asosiy manbalarini belgilashda BMT Xalqaro sudi Statutining 38-moddasiga murojaat qilinadi. Mazkur moddada: «Sud o'ziga berilgan nizolarni xalqaro huquq. asosida hal qilishga majbur va quyidagilarni qo'llaydi:

- a) *da'vogar davlatlar tomonidan muayyan tan olingan qoidalarni belgilovchi umumiy hamda maxsus xalqaro konvensiyalarini;*
- b) *huquqiy norma sifatida tan olingan, umumjahon amaliyotining isboti sifatida xalqaro odatlarni;*
- v) *madaniyatlari (sivilizatsiyaviy) millatlar tomonidan tan olingan huquqning umumiy prinzipiylarini;*
- g) *huquqiy normalarni belgilash uchun qo'shimcha vosita sifatida 59-moddada ko'rsatilgan shartlar bilan turli millatlarning ommaviy huquq. bo'yicha eng malakali mo'taxassislarining nazariyalarini va sud qarorlarini», deb yozilgan.*

BMT Xalqaro sudi Statutining 38-moddasini talqin qilish ko'plab tortishuvlarga sabab bo'lmoqda, biroq unda ko'rsatib o'tilgan barcha xalqaro huquq. manbalari barcha davlatlar tomonidan tan olinadi.

Xalqaro huquqning asosiy manbalari

Xalqaro huquq fanida xalqaro huquqning manbalari ikki turga, ya'ni asosiy va qo'shimcha manbalarga ajratiladi. Xalqaro huquq. manbalarining bunday bo'linishi shartlidir.

Hozirgi xalqaro huquqning asosiy manbalariga xalqaro shartnoma, xalqaro odatlari, davlatlarning majburiyatları bo'yicha va xalqaro tashkilotlarning a'zo davlatlariga ko'rsatma beruvchi bir tomonlama yuridik hujjalari kiradi.

Birinchi asosiy manba xalqaro huquq. tomonidan tartibga solinadigan, xalqaro huquq. subyektlari o'rtasidagi yozma bitim sifatida tushiniladigan xalqaro shartnomadir. Xalqaro shartnomalarning tuzilishini tartibga soluvchi normalar tizimi xalqaro shartnomalar huquqi deb yuritiladigan xalqaro huquqning alohida mustaqil sohasini tashkil qiladi.

Xalqaro huquqning ikkinchi muhim manbai xalqaro odatlardir. BMT Xalqaro sudi Statutining 38-moddasida xalqaro odatlari «huquqiy norma sifatida tan olingan umumjahon amaliyotining isboti» sifatida belgilanadi. Ushbu tushunchada, birinchidan, davlatlarning amaliyoti to'g'risida, ikkinchidan, ularning bir xil vaziyatlardagi tegishli xatti-harakatlar amaliyoti to'g'risida va uchinchidan, davlatlarning xalqaro hamjamiyati tomonidan shunday ko'p takrorlanadigan xatti-harakatlarni yuridik majburiy deb tan olish, ya'ni davlatlarning so'zsiz kelishivi, mazkur xatti-harakatlarga xalqaro-huquqiy norma sifatini berishi to'g'risida ham gap boradi.

Xalqaro odatlardan xalqaro taomillarni farqlash lozim. Xalqaro taomillar davlatlarni va xalqaro huquqning boshqa subyektlarini yuridik majburiy bo‘limgan xatti-harakat normalaridir. Bunga, masalan, comitas gentium normalari — xalqaro xushmuomalalik normalari, xususan, diplomatik etika va diplomatik protokol normalari kiradi.

Xalqaro huquqning manbalariga davlatlarning majburiyatları — bir tomonlama yuridik hujjatlar kiradi. Bunga davlatlarning boshqa barcha davlatlarga yoki ularning ayrimlariga qaratilgan va mazkur davlatning boshqa davlatlar bilan o‘zaro munosabatlaridagi muayyan xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan majburiyatlarini ifodalovchi rasmiy bayonoti kiradi. Bunday bayonotlar boshqa davlatlar tomonidan bayonot mazmuniga so‘zsiz rozilik berishlari (protest deb yuritiladigan e’tirozning yo‘qligi) bilan u kelishuv xarakterini kasb etadi.

Xalqaro huquqning manbai davlatlarga — xalqaro tashkilotlar yoki organlar ularning ta’sis hujjatlariga muvofiq yoki mazkur tashkilot yoki organlarning aniq amaliyoti natijasida qaror topgan majburiy xarakterga ega bo‘lgan a’zolariga ko‘rsatma beruvchi hujjatlar kiradi.

Xalqaro huquq manbai uning individual normalariga (qandaydir bir muayyan ishga) taalluqli bo‘lgan uning shakllanishi sharoiti bo‘yicha ishda ko‘rilayotgan taraflar uchun yuridik majburiy bo‘lgan xalqaro arbitraj yoki sud qarorlari hisoblanadi.

Zamonaviy xalqaro huquqning manbai xalqaro huquq. bo‘yicha yuristlarning ilmiy asarlari, doktrinalaridir. Doktrinalar xalqaro huquq sohasida maxsus va chuqur bilimga ega bo‘lgan ayrim huquqshunos olimlarning shaxsiy fikrlari, mulohazalarini bildiradi. Doktrinalarning ahamiyati shundaki, xalqaro huquq bo‘yicha yuristlarning ilmiy asarlari amaldagi xalqaro huquq u yoki bu prinsiplari, normalari va institutlarining mazmunini tushunish uchun qo‘sishma material bo‘lib xizmat qiladi.

Xalqaro huquq. normalari ichida uning asosiy normalari — prinsiplari alohida ajralib turadi. Xalqaro huquqning asosiy prinsiplari — shunday umumiy xarakterdagı normalarki, barcha boshqa normalari unga muvofiq ravishda belgilanishi lozim. Ular xalqaro-huquqiy normalar tizimida boshlang‘ich hisoblanadi hamda davlatlar va boshqa xalqaro huquq subyektlarining asosiy huquq. va majburiyatlarini belgilash yo‘li bilan xalqaro munosabatlardagi xatti-harakatlarini umumlashtirilgan holda tartibga soladi.

Xalqaro huquq. murakkab katta ko‘lamli tizimni bildiradi. Xalqaro huquq — davlatlararo munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik normalar majmuidan iborat. Ushbu tizimning o‘zagini normalari barcha davlat uchun majburiy bo‘lgan xalqaro huquq. tashkil qiladi. U umume’tirof etilgan prinsiplar va normalardan iborat. Mazkur prinsiplar va normalar odat shaklida mavjud bo‘ladi. Zero, istisnosiz barcha davlatlar ishtirokidagi shartnoma mavjud emas. Qatnashmaydigan davlat uchun esa shartnoma hech qanday kuchga ega emas. Oddiy normalar hamma davlatlar tomonidan emas, balki aksariyat ko‘pchilik davlatlar tomonidan tan olinishi natijasida xalqaro huquq. normasiga aylanshi mumkin. Ikki va ko‘p tomonlama munosabatlarni tartibga solishda shartnomalar bosh rolni o‘ynaydi. Shartnomaviy normalar soni jihatidan xalqaro huquq normalaridan ko‘proq lekin ular so‘nggi turdagি normalarga tayanadi, xususan ularning majburiyligi umumiy huquq prinsiplari — xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish prinsipi bilan belgilanadi.

Xalqaro huquqni sistemalashtirish kodifikatsiyalash.

Xalqaro huquq — konvensiyaviy va oddiy, umumiy va individual, universal va lokal xalqaro-huquqiy normalar tizimidir.

Xalqaro huquq juda murakkab tizimga ega. Biroq xalqaro huquq milliy huquq. bilan qiyoslaganda nisbatan kuchsiz tuzilmaga ega. Bu uning normalarini muntazam ravishda qandaydir yagona yozma hujjat — kodeks yoki bir qator o‘zaro bog‘liq, lekin mustaqil hujjat — kodekslar (fuqarolik, jinoyat kodekslari va shu singarilar) yo‘qligida ko‘rinadi.

Xalqaro huquqni shunday yoritish uchun uning normalarini yozma hujjatlarda — shartnomalarda, boshqacha aytganda, oddiy huquqiy normalarni yozma ravishda yoritish va ularni qandaydir bir yagona hujjatga yoki bir necha tegishli hujjatlarga birlashtirishni taqozo

qiladi. Bunday ishlar olib borilmoqda, lekin bu boradagi yutuqlar to‘g‘risida gapirishga hali erta.

Xalqaro huquq normalarini sistemalashtirish inkorporatsiya va kodifikatsiya tartibida amalga oshirilishi mumkin.

Xalqaro huquqni inkorporatsiya qilish xalqaro-huquqiy normalarni shunday qayta ishlashki, unda ularning mohiyati o‘zgarmagan holda muayyan tartibda joylashtiriladi. Xalqaro huquq normalarining shunday birlashtirilishi turli to‘plamlarda, xalqaro munosabatlarning ayrim masalalari bo‘yicha ko‘p tomonlama bitimlarda — savdo, transport, aloqa va boshqalarda amalga oshiriladi.

Xalqaro huquqni kodifikatsiya qilish xalqaro-huquqiy normalarni xalqaro huquq subyektlari tomonidan sistemalashtirishni anglatadi. Kodifikatsiya qilish faqat xalqaro-huquqiy normalarni yagona tizimga solishni emas, balki ularni yanada aniq ifodalashni va xalqaro odatlarni shartnomalar shaklida aks ettirishni ko‘zda to‘tadi.

Rasmiy kodifikatsiya qilish faqat xalqaro shartnomalar shaklida amalga oshiriladi. Bu ma’noda hozir faqat xalqaro dengiz huquqi to‘liq kodifikatsiya qilingan. Kodifikatsiya qilish jarayonida BMT alohida o‘ringa ega va bu borada uning Xalqaro huquq Komissiyasi katta ish olib bormoqda.

Xalqaro huquqni kodifikatsiya qilish xalqaro huquq normalarini sistemalashtirish va amaldagi normalarning mazmunini mustahkamlash va aniq ifodalash yo‘li bilan takomillashtirish, eski normalarni qayta ko‘rib chiqish va xalqaro munosabatlarning rivojlanishi talabini hisobga olgan holda yangilarini ishlab chiqish va ushbu normalarni yagona ichki muvofiqlashtirilgan tartibda xalqaro munosabatlarning muayyan sohasini imkon qadar yaxshiroq tartibga solishga yunaltirilgan xalqaro-huquqiy hujjalarda mustahkamlashdan iborat.

Xalqaro huquqni sistemalashtirish avvaldan xalqaro-huquqiy nazariyalar, doktrinalar bilan amalga oshirilgan. Ammo bunday sistemalashtirish, hatto, bir tarixiy davrda ham va mualliflarni aynan bir huquqiy maktabga aloqadorligidan qat’iy nazar, muqarrar ravishda subyektiv va ko‘p variantlidir.

3 mavzu.

HOZIRGI ZAMON XALQARO HUQUQNING SUBYEKTLARI

- Xalqaro huquq subyekt tushunchasi
- Davlat — xalqaro huquqning asosiy subyekti
- Davlat suvereniteti
- Xalqaro huquqiy tan olish
- Davlatlarning huquqiy vorisligi
- Davlat o‘xshash tuzilmalar – xalqaro huquq subyekti
- Millatlar va xalqlar – xalqaro huquq subyekti
- Xalqaro tashkilotlar – xalqaro huquq subyekti
- O‘zbekiston Respublikasi – xalqaro huquq subyekti

«Huquq subyekti» tushunchasi davlat va huquq nazariyasida ishlab chiqilgan bo‘lib, davlatlarning ichki huquqi yoki xalqaro huquqga nisbatan emas, balki umuman huquqga nisbatan qo‘llaniladi.

Xalqaro huquq ma’lum xalqaro munosabatlarni tartibga soladi, buning natijasida ular xalqaro-huquqiy munosabatga aylanadi. Xalqaro huquq me’yorlari bilan tartibga solingen xalqaro-huquqiy munosabatlarning qatnashchilari xalqaro huquq subyektlari deb ataladi.

Huquqiy munosabatlar boshqa ijtimoiy munosabatlardan shunisi bilan farqlanadiki, ularning ishtirokchilari — subyektlari huquq me’yorlarida belgilangan yuridik huquq. va majburiyatlarga ega bo‘ladi. Huquq me’yori asosida subyektga tegishli bo‘lgan muayyan yuridik

huquq uning subyektiv huquqi hisoblanadi. Unga xalqaro huquqda har doim boshqa xalqaro — huquqiy munosabat subyektining majburiyatlari qarama-qarshi turadi.

Huquq me'yirlari tizimi obyektiv ma'nodagi huquq yoki obyektiv huquq deb yuritiladi. Xalqaro huquq tom ma'noda obyektiv huquq hisoblanadi.

Xalqaro huquq subyektlari — xalqaro huquq me'yirlari bilan subyektiv huquq va subyektiv majburiyatlarga ega bo'lgan xalqaro-huquqiy munosabatlar qatnashchilaridir.

Davlatlar diplomatik vakolatxonalarining immunitetlari va imtiyozlari, yuridik maqomi to'g'risidagi me'yirlarni kodifikasiya qilgan 1961 yildagi Diplomatik aloqalar to'g'risidagi Vena Konvensiyasi xalqaro-huquqiy munosabatlarning potensial ishtirokchilari, ya'ni barcha davlatlar o'rtasidagi tegishli munosabatlarni ko'zda to'tadi. Biroq A va B davlatlari o'rtasidagi bunday xalqaro huquqiy aloqalarni amalga oshirish uchun ular nafaqat ushbu Konvensiya qatnashchilari bo'lishi zarur, shuningdek, ma'lum bir yuridik fakt mavjud bo'lishi, ya'ni: ushbu davlatlar va doimiy diplomatik vakolatxona muassasalari o'rtasida o'zaro kelishuvga muvofiq diplomatik aloqalar o'rnatilishi zarur (Konvensiyaning 2-moddasi). Bungacha ular har qanday boshqa davlat kabi tegishli huquqiy munosabatlarning potensial subyektlarigina bo'lishi mumkinligini anglash qiyin emas. Aynan shunday potensial imkoniyat ularni tegishli yuridik fakt mavjud bo'lgan takdirda xalqaro huquqiy munosabatlarning real subyektiga aylantiradi.

Xalqaro huquq subyektlari — xalqaro huquq me'yirlari bilan subyektiv huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan, shuningdek, tegishli huquqiy munosabatlarning real qatnashchilari bo'lishi mumkin bo'lgan taraflar, shaxslardir.

Xalqaro huquqda «burch» atamasi o'rniغا «majburiyat» atamasi qo'llaniladi, chunki tegishli majburiyatlar faqat xalqaro-huquqiy me'yirlar bilan tartibga solingen ijtimoiy munosabatlarning potensial ishtirokchilarining roziligi bilangina majburiyat tusini oladi. Xususan, bu xalqaro-huquqiy munosabat ishtirokchilarining bir-biridan yuridik mustaqilligini, yuridik majburiy bo'lgan xatti-harakat qoidalarini belgilovchi, o'ziga buysundiruvchi tashqi hokimiyatning yo'qligida o'z ifodasini topadi.

Agar «xalqaro huquq subyekti» atamasi uzok vaqt davomida faqat xalqaro huquq nazariyasida foydalanib kelingan bo'lsa, so'nggi vaqtarga kelib xalqaro-huquqiy hujjatlarda ham, xususan BMT doirasida qabul qilingan universal konvensiyalarda foydalanilmokda. Masalan, 1986 yildagi davlatlar va xalqaro tashkilotlar yoki xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi shartnoma huquqi to'g'risidagi Vena Konvensiyasining 3-moddasida «bitta yoki bir necha davlatlar o'rtasida, bitta yoki bir necha xalqaro tashkilotlar va bir yoki bir necha davlat yoki xalqaro tashkilot hisoblanmaydigan xalqaro huquq subyektlari o'rtasida tuzilgan xalqaro bitimlar to'g'risida so'z boradi». Boshqacha aytganda, davlatlar, xalqaro tashkilotlar va xalqaro huquq me'yirlari bilan subyektiv huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan qandaydir bir ijtimoiy tuzilmalar xalqaro huquq subyekti hisoblanishi belgilangan.

Xalqaro huquq subyekti — xalqaro huquqning umumiy me'yorlariga yoki xalqaro-huquqiy hujjatlarning talabiga muvofiq paydo bo'ladigan xalqaro huquq va majburiyatlar egasidir. Shuningdek, bu xatti-harakatlari to'g'ridan-to'g'ri xalqaro huquq bilan tartibga solinadigan va xalqaro-huquqiy munosabatlarga kirishadigan yoki kirishi mumkin bo'lgan shaxsdir.

Xalqaro huquq fanida birlamchi va ikqilamchi (hosilali) xalqaro huquq subyektlariga bo'linadi. Bunday farqlanish — obyektiv voqelik, tabiiy-tarixiy jarayoni va hozirgi xalqaro huquqning rivojlanishi natijasidir.

Birlamchi xalqaro huquq subyektlari — avvalo davlatlar va ayrim hollarda xalqlar va millatlardir. Ular ijtimoiy organizm sifatida paydo bo'lib, muqarrar ravishda o'zaro aloqa o'rnatadi, o'zi uchun o'zaro xalqaro muomala qoidasini yaratadi.

Ikqilamchi (hosilali) xalqaro huquq subyektlari birlamchi subyektlar tomonidan yaratiladi. Ularning xalqaro huquqiy layoqatining hajmi uning tashkilotchilarining ixtiyori va maqsadiga bog'liq. Bu hukumatlararo tashkilot bo'lishi ham mumkin yoki erkin shaharlar singari davlatga o'xshash tuzilma bo'lishi ham mumkin. Tashkilotchilar ularni o'z nomidan davlatlararo munosabatlarga kirishish huquqini beradi.

Davlat — xalqaro huquqning asosiy subyekti

Uzok vaqt davomida davlatlar xalqaro-huquqiy munosabatlarning yagona subyekti bo‘lib kelgan. Hozirgi xalqaro huquq me’yorlari hamon, aksariyat, davlatlar o‘rtasidagi, shuningdek, davlatlar bilan xalqaro tashkilotlar va boshqa xalqaro huquq subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tartibga soladi. Shu bois, davlatlar — xalqaro huquqning asosiy subyektlaridir va xalqaro huquqiy munosabatlarning asosiy real ishtirokchilaridir, chunki ular doimiy ravishda bir-biri bilan, xalqaro tashkilotlar va boshqa xalqaro huquq subyektlari bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishi zarur.

Xalqaro huquqda «davlat» atamasining umumiyligi tushunchasi berilmagan. Lekin, bu tushuncha yuridik jihatdan har qanday davlatga hos bo‘lgan umumiyligi xususiyatidan — suverenitet tushunchasidan kelib chiqadi. Xususan, xalqaro huquqning barcha subyektlariga har qanday davlatning suverenitetini hurmat qilish, davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, xalqaro muomalada davlatlarning suveren tengligidan kelib chiqish majburiyatlarini belgilaydi.

Davlatlar — xalqaro huquqning asosiy va birlamchi subyekti, shuningdek, xalqaro munosabatlar faol ishtirokchisidir. Xalqaro-huquqiy ma’noda davlat uch element:

- birinchidan, muayyan hudud;
- ikkinchidan, unda yashaydigan aholi;
- uchinchidan, siyosiy tashkilot (hokimiyat) birligini namoyon qiladi.

Xalqaro maydonda davlat siyosiy hokimiyat tashkiloti sifatida, ayniqsa, uning oliy organi nomidan xalqaro huquq subyekti bo‘lib, davlatning rasmiy vakili sifatida chiqadi. Davlatning xalqaro huquq subyekti sifatida xarakterlovchi asosiy belgisi davlat suvereniteti hisoblanadi.

Xalqaro huquq subyekti sifatida davlatning birlamchiligi shundaki, ular hech kim tomonidan tashkil qilinmaydi, ular obyektiv tarixiy reallik sifatida mavjuddir. Boshqa tomonidan, davlatlar o‘zlari xalqaro huquqning ikqilamchi (hosilali) subyekti — xalqaro tashkilotlarni tashkil qilishi mumkin.

Birlamchi subyekt sifatida davlatlar universal xalqaro huquq layoqatiga ega. Birlamchilik davlatning xalqaro huquqni asosiy subyekti sifatidagi rolini belgilaydi. Aynan davlatlar xalqaro huquq me’yorlarini ishlab chiqadi, ularni buzganlik uchun javobgarlikni, xalqaro huquqiy tartibotni va xalqaro tashkilotlarning funksiyalarini belgilaydi. Davlatlarning ushbu imkoniyatlari o‘zlari tomonidan yaratilgan xalqaro huquq tamoyillari va me’yorlaridan boshqa hech nima bilan chegaralanmagan. Mazkur tamoyillar va me’yordarga muvofiq davlatlar xalqaro huquq subyekti sifatida xalqaro hujjalarda, xususan BMT Ustavida mustahkamlab qo‘yilgan asosiy huquq va majburiyatlarga ega bo‘ladi. Biroq, hanuzgacha bunday huquq va majburiyatlar ro‘yxati ishlab chiqilmagan.

Hozirgi zamon xalqaro huquq doktrinasi davlatlarning quyidagi asosiy huquqlarini ajratadi:

- mustaqillik va o‘zining qonuniy huquqlarini erkin amalga oshirish;
- o‘z hududi ustidan va uning doirasida xalqaro huquq tomonidan tan olingan immunitetlarga rioya qilgan holda barcha shaxslar va boshqa narsalarga nisbatan o‘z yurisdiksiyasini amalga oshirish;
- boshqa davlatlar bilan teng huquqlilik;
- qurolli bosqinchilikka nisbatan yakka va jamoa tartibida o‘zini mudofaa qilish.

Asosiy majburiyatlar:

- boshqa davlatlarning ichki va tashqi ishlariga aralashmaslik;
- inson huquqlarini hurmat qilish;
- o‘z hududida shunday sharoit belgilash lozimki, unda xalqaro tinchlikka xavf tug‘dirmasligi lozim;
- boshqa davlatlar bilan nizolarni tinchlik yo‘li bilan hal qilish;
- kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan boshqa davlatlarning hududiy yaxlitligiga va siyosiy mustaqilligiga yoki xalqaro huquqga zid bo‘lgan boshqa tarzda tajovuz qilmaslik;

- o‘z majburiyatlarini buzayotgan davlat yoki BMT tomonidan ogohlantiruvchi yoki majburlovchi chora qo‘llanilayotgan davlatga yordam ko‘rsatmaslik;
 - o‘z xalqaro majburiyatlarini vijdonan bajarish singari holatlarni kiritish mumkin.
- Xalqaro huquq uchun davlatlarni oddiy (unitar)ga va murakkabga bo‘lish ma’lum ahamiyatga ega.

Davlatning hududiy-tashkiliy tuzilmasi turli xil bo‘lishi mumkin. Davlat tuzilishining oddiy (unitar) va murakkab (federativ va konfederativ) shakllari farqlanadi.

Unitar davlatlar joylardagi hokimiyat organlari to‘liq bo‘ysundirilgan yuqori davlat hokimiyati organlarining yaxlit tizimini bildiradi. Unitar davlat hududi siyosiy mustaqillikka ega bo‘limgan ma’muriy-hududiy birliklarga bo‘linadi. Bu holda faqat davlat yaxlit tuzilma sifatida xalqaro huquq subyekti bo‘ladi.

Unitar davlat — davlatning hududiy tashkillanishining ikki shaklidan biridir. Davlat, agar bu davlatning ko‘p qismi davlat tuzilmasi maqomiga ega bo‘lmasa unitar (oddiy) hisoblanadi. Unitar davlat tarkibida alohida avtonom milliy davlat, shu jumladan, o‘z davlatchilik belgilariga ega bo‘lgan tuzilmasi bo‘lishi mumkin (masalan, unitar Ukraina tarkibida Qrim Respublikasining mavjudligi). Unitar davlatda faqat yagona Konstitutsiya, bir fuqarolik, yuqori davlat hokimiyati organlarining yagona tizimi mavjud bo‘ladi. Unitar davlatning tarkibiy qismlari aksariyat hollarda ma’muriy-hududiy bo‘linma maqomiga ega: ular markaziy organ tomonidan qabul qilingan qonunlar asosida boshqariladi, ularning hududi oddiy umumdavlat qonuni asosida, mahalliy organlar va mahalliy aholining roziligidan o‘zgartirilishi mumkin.

Unitar davlatning ikki turi: markazlashtirilmagan (detsentralizovannyi) va markazlashgan turi mavjud. Birinchi turdag'i davlatlarda mintaqaviy organlari markaziy organidan mustaqil ravishda tuziladi. Shuning uchun ularning o‘rtasidagi yuridik munosabatlar markazlashmagan asosda ko‘riladi (Buyuk Britaniya, Yangi Zellandiya, Yaponiya, Ispaniya, Italiya). Ikkinci turdag'i unitar davlatlarda mintaqaviy organlarning markazga bo‘ysunishi bevosita markaz tomonidan tayinlanadigan mansabdar shaxslar orqali amalga oshiriladi (Niderlandiya, Qozog‘iston).

Federatsiya murakkab davlat tuzilmasini bildiradi. Unitar davlatdan farqli o‘laroq, federatsiya a’zolari (shtatlar, yerlar, viloyatlar, kantonlar, millat nomi bilan ham yuritilishi mumkin) muayyan mustaqillikka ega. Shu bilan birga federatsiya a’zolarining mustaqilligi xalqaro huquq, subyekti sifatida tan olish uchun yetarli emas. Federatsiya yaxlit davlat tuzilmasi sifatida xalqaro huquq subyekti hisoblanadi.

Federativ davlat (Birlashmalar, Ittifoqlar) — o‘zidan murakkab (ittifoq) davlatni anglatuvchi, yuridik jihatdan muayyan siyosiy mustaqillikka ega bo‘lgan davlat tuzilishining shaklidir. Federativ davlatni tashkil qiluvchi davlat tuzilmalari (shtatlar, yerlar, viloyatlar) federatsiya subyekti hisoblanadi va o‘zining ma’muriy-hududiy bo‘linmasiga ega. Unitar davlatdan farqli ravishda federatsiyada yuqori hokimiyat organining ikki tizimi — federal organlar va federatsiya a’zolarining tegishli organlari mavjud. Federal organlar mamlakatning butun hududida o‘z funksiyasi va vakolatlarini amalga oshiradi. Federatsiyani tashkil qiluvchi davlat tuzilmalari tub ma’nodagi davlat emas. Ular suverenitet, bir tomonlama tashabbus bilan ittifoqdan chiqish, yuridik jihatdan xalqaro munosabatlarda ishtiroy etish huquqlariga ega emas. Ittifoq Konstitutsiyasini yoki qonunchiligini buzgan takdirda markaziy hokimiyat federatsiya subyektiga nisbatan majburiy choralar qo‘llashi mumkin. Federatsiyaning majburiy elementlaridan biri ikki palatali federal parlamenti tuzilmasidir. Odatda federatsiya a’zolari o‘z Konstitutsiyasiga ega bo‘ladi.

Milliy omillarning roliga qarab federatsiya tuzilmasi hududiy asosda (AQSH, Avstraliya, Avstriya, GFR, Venesuela, Braziliya, Meksika), milliy asosda (Hindiston, Belgiya, Nigeriya, Pokiston) va aralash milliy-hududiy asoslarda (Rossiya, Shveysariya, Kanada) bir-biridan farqlanadi.

Davlat va huquq nazariyasida ayrim vaqtarda konstitutsiyaviy federatsiya (AQSH, Kanada, Braziliya), konstitutsiyaviy-shartnomaviy (Rossiya) va shartnomaviy (Shveysariya, Tanzaniya Birlashgan Respublikasi, Birlashgan Arab Amirligi) federatsiyalarga ajratiladi hamda

markazlashgan federatsiya (masalan, Hindiston, unda bittasidan boshqa shtatlarda o‘z Konstitutsiyasi va fuqaroligiga ega emas) bilan markazlashmagan federatsiya (AQSH, GFR, Shveysariya) larga ajratiladi.

Konfederatsiya — umumiy masalalar (o‘zaro mudofaa, tashqi aloqalar, davlat xavfsizligi va boshqalar)ni hal qilishga qaratilgan umumiy qonuniy maslahat organini tuzuvchi suveren davlatlar ittifoqidir. Tub ma’nodagi konfederatsiya xalqaro huquq subyekti sifatida tan olinmaydi, faqat konfederatsiya a’zolari — suveren davlatlar teng huquqli subyekt hisoblanadi.

Konfederatsiya — davlatlar ittifoqining shakli bo‘lib, ittifoqka kiruvchi davlatlar o‘z suverenitetini to‘liq saqlab qoladi. Konfederatsiya o‘zida xalqaro-huquqiy hamda davlat tashkiloti xususiyatlarini mujassamlashtiradi.

Bugungi kunda jahonda faqat bitta konfederatsiya — Yevropa Hamjamiyati mavjud. Turli davrlarda konfederatsiya bo‘lgan: 1918 yilgacha Avstro-Vengriya, 1905 yilgacha Shvetsiya va Norvegiya, 1781 yildan to 1789 yilgacha AQSH, 1815 yildan 1848 yilgacha Shveysariya, 1958 yildan 1961 yilgacha Misr va Suriya va 1982 yildan 1989 yilgacha Gambiya va Sinegal davlatlari konfederatsiya tashkil qilganlar.

Konfederatsiya tarixining tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ushu davlat qurilishi shakli faqat ittifoqning batamom tugashi yoki davlat qurilishining federatsiya shakliga o‘tishi davri uchun hosdir.

Konfederativ davlat qurilish shakli uchun quyidagi xususiyatlar xarakterlidir:

- Konfederatsiya tegishli shartnoma asosida tashkil qilinadi.
- Konfederatsiya subyektlari undan erkin chiqish huquqiga ega.
- Konfederatsiyada suverenitet uni tarkibiga kiruvchi davlatlarga tegishlidir.

Konfederatsiya subyektlarining rozilgisiz ittifoq hokimiyatining qarori hech qanday kuchga ega emas.

- Konfederatsiya ixtiyoridagi masalalar (urush va tinchlik, tashqi siyosat, yagona armiya tuzish kabi masalalar) tor doiraga ega.
- Konfederatsiyada faqat shartnomada alohida ko‘rsatilgan masalalarni yechishga vakolatli bo‘lgan davlat organlarigina tuziladi. Xususan, sud organlari tuzilmaydi.
- Konfederatsiya parlamenti subyektlarining vakillik organlari tomonidan tuziladi, ular depo‘tatlaridan o‘zlariga berilgan ko‘rsatma va yuriqnomalarga qat’iy rioya qilishni talab qiladi.
- Konfederatsiyaning doimiy faoliyat ko‘rsatadigan davlat organlari buyruk berish vakolatlariga ega emas.
- Konfederatsiya subyektlariga nulifikasiya huquqi beriladi, ya’ni Ittifoq hokimiyatining qarorlarini qo‘llashdan bosh tortish yoki tan olmaslik.
- Konfederatsiya budjeti subyektlarning ixtiyoriy badallari hisobidan tuziladi.
- Konfederatsiya subyektlari shaxslar, tovarlar, xizmat va kapitallarning harakatini chekllovchi bojxona va boshqa turdag'i cheklashlarni belgilash huquqiga ega.
- Odatda konfederatsiyada yagona pul muomalasi tizimi mavjud emas.
- Harbiy tuzilmalar konfederatsiya subyektlari tomonidan yig‘iladi, bunda ko‘p hollarda ularning ikki tomonlama, konfederatsiya organlariga va uning subyektiga bo‘ysunish saqlanib qoladi.
- Konfederatsiyada ittifoq fuqaroligi mavjud emas. Davlatlarning ichki huquqida va xalqaro huquqda suverenitetning roli va o‘rnii masalasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat suvereniteti

Suverenitet — ko‘p ma’noli tushuncha. Uning bir necha jihatlari mavjud. Avvalambor, bu — xalq suvereniteti. So‘ng bu — millatlarning o‘z takdirini o‘zi hal qilish huquqi. Va nihoyat bu — davlat suverenitetidir.

Ko‘rsatib o‘tilgan tushunchalar qanchalik bir-biriga yaqin bo‘lmashin, ularning har biri

mazkur muammoning muayyan jihatlarini ta'kidlab, birinchi darajaga chiqaradi. Shu bois, suverenitetni davlatga, xalqga va millatga birday taallukli bo'lgan yagona tushuncha sifatida asoslaydigan mualliflarning fikriga qo'shilib bo'lmaydi.

Haqiqatan ham xalq suvereniteti, milliy suverenitet aynan bir tushuncha emas. Ular turli ijtimoiy voqelikning xususiyatlari bo'lib, shu bilan birga bu tushunchalar ma'lum bir umumiylitka ega. Ushbu tushunchalar ichida xalq suvereniteti birlamchi hisoblanadi. Milliy suverenitetga har doim millatga doir xususiyat sifatida yondashib bo'lmaydi, o'nta millatlarning teng huquqiyligi sifatida tushunilishi lozim. Umuman olganda xalqaro huquqda «millat»ning o'z takdirini o'zi xal qilish huquqi yo'q faqat «xalq»ning bunday huquqi mavjud (BMT Ustavining 1-modda 2-band).

Davlat suvereniteti — davlatning emas, balki davlat hokimiyatining ustuvorligi va mustaqilligidir. «Davlat» va uning «hokimiyati» turli tushuncha va kategoriya hisoblanadi. Davlat suvereniteti mamlakat ichkarisida va tashqarisidagi davlatning faoliyati yordamida amalga oshiriladi. Davlat suverenitetining ushbu ikki jihat, ya'ni: birinchidan, davlat hokimiyatining mamlakat ichida ustuvorligi, ikkinchidan, boshqa davlatlarning suveren huquqlari va umume'tirof etilgan xalqaro huquq tamoyillari va me'yorlariga rioya qilgan holda tashqi aloqalarda mustaqilligi — yaxlit va ajralmasdir.

Davlat suvereniteti kengaytirilishi ham, kamaytirilishi ham mumkin emas, chunki unga nisbatan bevosita sanoq mezonlarini umuman qo'llab bo'lmaydi. Davlat suvereniteti davlatning suveren huquqi bilan bog'liq bo'lishi mumkin emas, biroq shu bilan birga aynan suveren huquqlarning to'liqligi bilan ta'minlanadi.

Davlat suvereniteti bilan bog'liq tarzda «iqtisodiy suverenitet» va «siyosiy suverenitet» tushunchalaridan ham foydalaniladi. Davlatning iqtisodiy suvereniteti deganda xalqni o'z milliy boyliklarini mustaqil tasarruf qilish, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish maqsadlarida o'z tabiiy resurslaridan foydalanish usullarini erkin belgilash anglashiladi. U o'z tabiiy resurslari ustidan mutlaq nazoratni amalga oshirish va iqtisodiyotning barcha sohalaridagi har qanday korxonalar faoliyati ichki yurisdiksiyasiga olishini bildiradi.

Davlatning siyosiy suvereniteti mamlakat xalqining o'z irodasini erkin ifodalashni aks ettiradi. «Xalq» tushunchasiga albatta, millatidan qat'i nazar, ushbu mamlakatning barcha fuqarolari kiradi. Tabiiyki, bunday ko'pmillatli oilada davlatga o'z nomini bergen millat belgilovchi ahamiyatga ega. Umuman, aksariyat hollarda «siyosiy» va «davlat suvereniteti» tushunchalari sinonim sifatida qo'llaniladi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, ushbu tushunchalarga bo'lgan munosabat «unisi yoki bunisi» degan tamoyil bo'yicha qaralishi mumkin emas. Ulardan birini ilmiy muomala tilida ishlatalishi ikkinchi tushunchani inkor qilish deb hisoblanmaydi. Bu o'rinda so'z o'zaro aloqador tushunchalar xususida ketmoqda, ulardan biri ikkinchisiga qaraganda birmuncha tor ma'noda, lekin o'zining mustaqil mazmuniga ega.

1913 yilda yer kurrasida 57 davlat mavjud edi. Hozirga kelib ularning soni ikki yuzga yaqinlashadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, XX asrning ikkinchi yarmida yer kurrasidagi davlatlarning soni uch baravarga oshdi. Ushbu omilning o'zi bizning davrimizga kelib ijtimoiy-siyosiy rivojlanish xalqlarning o'z takdirini o'zi xal qilish huquqi, davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi va jamiyat hayotining davlat-huquqiy shaklidan foydalanishi bilan uzviy bog'liqdir.

Biroq so'z sanoq ko'rsatkichlarida emas, bundan tashqari davlatlarning soni keyinchalik ham sezilarli ko'payishi ehtimoldan yiroq.. Yana shunisi muhimki, davlatlar tomonidan amalga oshiriladigan funksiyalar doirasi kengaydi, jamiyat hayotining barcha sohalarida, jumladan, iqtisodiy hayotida huquqning roli oshdi. Binobarin, davlat hokimiyatining zaruriy xususiyati sifatida suverenitet rolining usish jarayoni ko'zatilmokda. Bunday jarayon turli shakllarda ugadi va turli mamlakatlarda turli xil okibatlarga olib keladi. Lekin, hamma joyda suverenitet muammosi mazkur jamiyatning ijtimoiy va siyosiy tizimining markazida turadi.

Suverenitet rolining oshib borishi davlatlarning ichki huquqida ham o'z ifodasini topadi. Avvalgidek, milliy huquqiy tizimni shakllantirish va rivojlantirishning asosiy yo'llaridan biri sifatida xizmat qiladigan, odat huquqining davri o'tdi.

Suverenitetni davlatlarning ichki huquqidagi roli xususida yuqorida gapirilganlar

suverenitetning xalqaro huquqdagi roli va o‘rniga ham tegishlidir.

Suverenitet yuridik jihatdan umum e’tirof etilgan xalqaro munosabatlar va o‘zaro aloqalar tizimida muhim rol o‘ynaydi. Davlat va uning suvereniteti bilan xalqaro huquqning rivojlanishi ham chambarchas bog‘liqdir, chunki, birinchidan, xalqaro hamjamiyatning asosi avvalgidan ham ko‘proq hozirgi suveren davlatlar hisoblanadi, ikkinchidan, xalqaro tartibot avvalambor davlatlarning kelishuviga asoslanadi.

Albatta xalqaro huquq rivojlanishida muhim rol o‘ynaydigan umumjahon va mintaqaviy — xalqaro tashkilotlarni e’tiborga olmaslik mumkin emas, lekin ular ham suveren davlatlarning yoki bir guruh davlatlarning muvofiqlashtirilgan faoliyati natijasidir. XX asrning ikkinchi yarmidagi tarixiy rivojlanish davlat suverenitetini ilmiy (doktrinal) tankid qilish, «davlatlardan yuqori turuvchi jahon hamjamiyati»ga o‘tish talablarining maqsadga muvofiq emasligini ko‘rsatdi.

Davlat suverenitetini amalga oshirishda huquq yuqori rol o‘ynaydi, shuningdek, davlatlarning ichki huquqi va xalqaro huquq uni amalga oshirishning ikki asosiy shakli hisoblanadi.

Milliy davlatlar tomonidan xalqaro huquq tamoyillarini tan olish va shu bilan ularni davlatlarning ichki huquqiga kiritishning turli yuridik shakllari mavjud. Xalqaro huquq me’yorlarini davlatlarning ichki huquqiga implementatsiya qilishning uch yunalishini ajratish mumkin:

- birinchidan, Konstitutsiyada xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan tamoyil va me’yorlarini tan olish;
- ikkinchidan, davlatlar tomonidan tuzilgan xalqaro shartnoma va bitimlar me’yorlari;
- uchinchidan, mintaqaviy ittifoqdarning huquqlari a’zo-davlatlarning huquqiy tizimlariga nisbatan. Biroq ta’kidlab o‘tish joizki, xalqaro-huquqiy me’yorlarning amaliy roli turli davlatlarning ichki davlat huquqi tizimidagi ko‘rsatib o‘tilgan shakllarida har doim ham unchalik ahamiyatga ega emas.

Xalqaro-huquqiy tan olish

Tan olish — davlatning ixtiyoriy ravipsha, bir tomonlama qabul qilgan hujjatidir. Unda davlat to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita biron-bir davlatni xalqaro huquq subyekti sifatida tan olishi va u bilan rasmiy munosabat o‘rnatish maqsadi borligi yoki davlatda, yoxud uning bir qismida g‘ayrikonstitutsiyaviy yo‘l bilan kelgan hokimiyatni xalqaro munosabatlarda ushbu davlatning yoki shu hududda yashaydigan xalqning vakili sifatida samarali ishtirok etishi mumkin deb hisoblashi to‘g‘risida bayonet beradi.

Tan olish majburiyati mavjud emas. Bu —davlatlarning huquqidir.

Xalqaro-huquqiy tan olish — xalqaro huquqqa muvofiq davlatlar tomonidan yangi davlatni yoki hukumatni, yoxud rasmiy yoki norasmiy, to‘liq yoki qisman, doimiy yoki vaqtinchalik munosabatlarni o‘rnatish mumkin bo‘ladigan boshqa davlat organini tan olishdir. Kuyidagilar xalqaro-huquqiy tan olinshing turlari hisoblanadi:

- davlatni tan olish;
- hukumatni tan olish;
- qo‘zg‘alon ko‘targan tarafni tan olish;
- milliy ozodlik organlarini tan olish;
- qarshilik ko‘rsatish organlari va boshqalarni tan olish.

Shunday tan olishning hozirgi diplomatik amaliyotda eng ko‘p tarqalgan shakli u yoki bu davlat hukumatlari tomonidan mavjud davlatning yangi hukumati bilan yoki yangi paydo bo‘lgan davlatning hukumati bilan diplomatik aloqalar o‘rnatish yoki unga rozilik berish hisoblanadi.

Xalqaro-huquqiy tan olishning de-yure va de-fakto shakllari an'anaviy hisoblanadi.

Xech qanday shartsiz rasmiy tan olish to'g'risidagi, de-yure va de-fakto tan olish to'g'risidagi, diplomatik aloqalar o'rnatish yoki shunga rozi bo'lish haqidagi bayonotlar rasmiy tan olish hisoblanadi.

Norasmiy tan olish u yoki bu davlatning hukumati rasmiy ravishda tan olinmagan mamlakat hukumati bilan aloqaga kirishi, ba'zan ad hoc xalqaro-huquqiy tan olish deb ataladigan, bir-birini tan olmaydigan davlatlar tomonidan xalqaro konferensiyalarda yoki xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlik qilishi hisoblanadi.

Tan olayotgan taraf tomonidan tan olingen taraf bilan zarurat bo'lganda bevosita xalqaro-huquqiy munosabatlarga kirish niyatini tasdiqlovchi guvoxnama — xalqaro-huquqiy tan olishni rasmiylashtiruvchi hujjatdir. Shu bilan birga bu yangi davlat va hukumatni tuzish vositasi hisoblanmaydi.

Hukumatni tan olish — davlatlar tomonidan biron-bir mamlakatning g'ayrikonstitutsiyaviy yo'l bilan hokimiyatga kelgan hukumatni tan olishdir. Rasmiy tan olishning ikki shakli — de-fakto (de-facto) va de-yure (de-jure) mavjud.

De-fakto tan olish — mavjud davlat va hukumatlar tomonidan u yoki bu mamlakatda yangi paydo bo'lgan davlat yoki hukumatni tan olishning an'anaviy shakllaridan biri hisoblanadi. Bunday tan olishning sabablarini ko'rsatish talab qilinmaydi. Odatda de-fakto tan olishi tan olayotgan davlat yangi hukumatni yoki davlatning o'zini yetarli darajada o'zok, yashashi mumkinligiga ishonchszilik bilan Qaraganda qo'llaniladi yoxud ma'lum vaqt o'tgunga qadar yangi xalqaro huquq. subyektini yoki uning hukumatini rasman va to'liq. tan olish niyati yo'qligini ifodalaydi. De-fakto tan olishda diplomatik aloqalar o'rnatishga shart emas. De-fakto tan olish ayrim xollarda konsullik munosabatlarini o'rnatishga olib kelishi mumkin, lekin bu majburiy qoida emas. Bu tan olayotgan davlat mazkur hukumatning mavjudligi bilan hisoblashadi va u bilan biron-bir masala bo'yicha aloqa qilishi mumkinligini anglatadi. De-fakto tan olingen davlat bilan hamkorlik turli sohalarda bo'lishi mumkin, chunki bunday tan olish natijasida xalqaro munosabatlarda suveren davlat sifatida katnashadi. De-fakto tan olish de-yure tan olishdan ko'p farq; qilmaydi (AKSH hukumati tomonidan 1919 yil 7 maydagi Finlyandiyani de-fakto tan olishi shu bilan xarakterliki, 1920 yil 12 yanvar-da berilgan tushuntirish bo'yicha bu to'liq; tan olish hisoblanadi).

De-yure tan olish — to'liq» xal qiluvchi tan olishdir. U odatda diplomatik aloqalar o'rnatishga olib keladi.

De-yure tan olish — mamlakatda vujudga kelgan yangi davlat yoki hukumatni xalqaro maydonagi mavjud davlatlar hamda hukumatlar tomonidan rasmiy tan olishning an'anaviy shakllaridan biridir. Tan olishning bu turi tan oluvchi davlatning mazkur davlat bilan to'liq; diplomatik munosabatlarni o'rnatishga tayyor ekanligini ifodalaydi.

De-yure to'liq; rasman tan olishdir. De-yure tan olish okibatida davlatlar oliy toifadagi diplomatik vakillar bilan almashadilar, tan olinuvchi davlatning xorijda ma'lum mulk va boshqa kimmatabxo buyumlarni tasarruf qilish huquqi hamda uni tan oluvchi davlat yurisdiksiyasidan immuniteti tan olinadi va x.k. Biroq; ba'zan ma'lum shart (ogovorka) ilova kdlinishi ham mumkin (ma-salan, tan olinayotgan hokimiyatni e'tirof etishning hududiy chegaralari to'g'risida (1924 yilda Buyuk Britaniya bilan SSSR, 1950 yilda — XXR) yoki xalqaro majburiyatlarga nisbatan (1947 yilda Buyuk Britaniya bilan Bolgariya Xalq. Respublikasi).

Davlatlarning huquqiy vorisligi

Davlatlarning huquqiy vorisligi — bir davlatga tegishli huquq, va majburiyatlarning boshqasiga o'tishidir. Davlatlarning huquqiy vorisligi to'g'risidagi masala:

- birinchidan, ijtimoiy inkilob natijasida ijtimoiy to'zumning almashinishi yuz berganda (masalan, 1949 yilda Xitoy xutsu-dida XXR e'lon kdlinishi);
- ikkinchidan, milliy-ozodlik ko'rashi natijasida yangi mustaqil davlatning vujudga kelishi (1993 yilda Eritreyani Efiopiyadan ajrab chiqishi);

- uchinchidan, o'tmishdosh — davlat hududida bir necha yangi davlatlarning paydo bo'lishi (1991 yilda SSSR va SFRYUning parchalanib ketishi) va ikki yoki bir necha davlatlarning birlashishi natijasida yangi davlatning vujudga kelishi (1990 yilda ikki Germaniyaning hamda 1991 yilda ikki Yamanning birlashishi) natijasida yuzaga keladi.

Davlatlarning huquqiy vorisligi yangi davlatlar uchun muayyan yuridik okibatlarga ega. Chunki buning natijasida xalqaro shartnomalarni qayta ko'rib chiqish va ularni denonsatsiya qilish, xalqaro tashkilotlarga a'zolik, mulkka bo'lgan meros huquqi kabi masalalarni qaytadan ko'rib chiqish extiyoji ko'rildi.

1978 yilda Shartnomalarga nisbatan davlatlarning huquqiy vorisligi to'g'risida Vena konvensiyasi qabul qilindi (xali kuchga kirmagan). Konvensiya kuyidagi holatlarda vujudga keladigan davlatlarni shartnomalarga nisbatan huquqiy vorisligini tartibga soladi:

- birinchidan, avvalgi tobe hududlarda yangi mustakdl davlatning tashkil topishi;
- ikkinchidan, bir necha davlatlarning birlashish yoki davlatni bir necha mustaqil davlatlarga bo'linib ketishi;
- uchinchidan, kelishuvga muvofiq bir davlatga tegishli hududning bir qismini boshqa biriga berishi.

Konvensiyada qator ijobjiy elementlar:

- yangi mustaqil davlatning o'z xalqaro-huquqiy aloqalarini mustaqil belgilash huquqi;
- ozodlikka erishgan davlatning o'z tabiiy boyliklariga nisbatan ajralmas suverenitetini tasdiqlash;
- o'z yurisdiksiyasi ostida bo'limgan hududlarda chet el harbiy bazalarini barpo etishning noqonuniyligi;
- merosxo'r-davlatning xalqaro huquqning umume'tirof etilgan me'yorlariga riosa qilish majburiyatini mustahkamlanishi mavjud.

1983 yilda Davlat mulki, davlat arxivlari va davlat qarzlariga nisbatan davlatlarning huquqiy vorisligi to'g'risidagi Vena Konvensiyasi qabul qilindi (xali kuchga kirmagan). Ushbu Konvensiyaning davlat mulki to'g'risidagi qismidagi muhim qoida (9-modda) — o'tmishdosh-davlat mulkining merosxo'r-davlatga o'tishi bilan uning mulkka nisbatan huquqi bekor bo'lib, merosxo'r-davlatda esa ushbu mulkka nisbatan huquq paydo bo'lishidir. Konvensiya umumiy tamoyil sifatida o'tmishdosh-davlat mulkining merosxo'r-davlatga xech qanday tovonsiz (kompensatsiyasiz) o'tishini belgilagan. Davlatning meros huquqi amalga oshiriladigan vaqtida o'tmishdosh-davlat hududida bo'lgan va uning ichki huquqiga muvofiq, uchinchi davlatga tegishli bo'lgan mulk huquq va manfaatlariga nisbatan merosxo'r-davlat daxl qilmaydi.

Shunday qilib, davlat huquqiy vorisligi uchinchi davlatlar mulkiga nisbatan xech qanday okibatlardan tug'dirmaydi. Konvensiya davlatlar davlatlarning huquqiy vorisligining besh turini ajratadi. Bular:

- Davlat hududining ma'lum qismini boshqa davlatga berilishi;
- Yangi mustaqil davlatning to'zilishi;
- Davlatlarning birlashishi;
- Davlat qismi yoki kismlarining ajrab chiqishi;
- Davlatlarning bo'linishidan iborat.

SSSR parchalanib ketganidan so'ng Mustaqil Davlatlar Hamdustligi (MDX)ga kirgan davlatlar o'rtasida davlatlar huquqiy vorislik bo'yicha kompleks kelishuvga erishilgan va ular tomonidan huquqiy vorislik bo'yicha qator qarorlar, xususan, sobik SSSRning o'zaro manfaat kasb etuvchi shartnomalariga nisbatan hamfikrlik to'g'risidagi memorandum (1992 yil), sobik SSSRning chet ellardagi barcha mulkini taqsimlash to'g'risidagi kelishuv (1992 yil), sobik SSSRning davlat arxivlariga nisbatan huquqiy vorislik to'g'risidagi kelishuv, Huquqiy vorislik

masalalari bo'yicha MDX davlat boshliklari Kengashi qarori (20 mart 1992 yil) qabul qilingan.

Rossiya SSSRning huquqdi vorisi emas, balki davomchisi hisoblanadi. Bu to'g'rida u 1992 yil yanvar oyida barcha davlatlarga nota orqali rasman bildirgan.

Davlat chegaralariga nisbatan huquqiy vorislik — davlatlar vorisiyligi natijasvda chegara chiziqlari holatiga nisbatan huquq va majburiyatlarning boshqa davlatga o'tishini anglatadi. 1978 yilda qabul kdingan Shartnomalarga nisbatan davlatlar huquqiy vorisligi to'g'risidagi Vena konvensiyasiga muvofiq davlatlarning huquqiy vorisligi davlat chegaralari huquqiy tartibiga tegishli huquq va majburiyatlar va shartnoma bilan belgilangan chegaralarga daxl qilmaydi. Bu, agar davlat huquqiy vorisligi faktining o'zidan shartnomaviy huquq va majburiyatlarni bekor qilish yoki o'zgartirish uchun qandaydir asoslar vujudga kelsa, bunday asoslar shartnoma bilan belgilangan chegaralar yoki chegara rejimiga taallukli huquq, va majburiyatlarning o'zgartirishvda foydalanishi mumkin emasligini anglatadi.

Agar ma'lum davlat bilan o'zaro kelishuv asosida va xalqaro huquqqa muvofiq chegaralar o'zgartirishiga kelishilmagan bo'lsa, chegaralar to'g'risidagi shartnomalar merosxo'r-davlat tomonidan bajarilishi lozim.

Hukumatlarning huquqiy vorisiyligi — davlat ichkarisidagi o'zgarishlar natijasida huquq va majburiyatlarga nisbatan meros huquqidir. G'ayrikonstitutsiyaviy yo'l bilan hukumatlar almashinuvi natijasvda yangi hukumatning xorijiy davlatlar bilan umishdosh hukumat tomonidan tuzilgan shartnoma va bitimlarga nisbatan munosabati masalasi kun tartibiga chikadi. Biroq, bu masalada boshqa nuqtai nazar ham mavjud. Unga muvofiq hukumat almashinuvi davlatlarning huquq va majburiyatlariga ta'sir qilmaydi.

Davlat bo'linishi natijasvda mustaqil davlatlarning vujudga kelishidagi huquqiy vorislik — xalqaro huquq bo'yicha umishdosh-davlat huquq va majburiyatlarini merosxo'r davlatlarga o'tishi tushuniladi. Agar davlatning biror qismi ajrab chiqib ketganidan so'ng ham u o'z faoliyatini davom ettirsa, davlatga huquqiy vorislik o'tayotgan paytda o'tmishdosh-davlatga nisbatan kuchda bo'lgan har qanday shartnoma uning kolgan barcha hududlari uchun o'z kuchini saqlab qoladi. Bu avvalambor davlatlar o'rtasida barqaror shartnomaviy munosabatlarni saqlab qolish maqsadini ko'zda to'tadi.

Ushbu holatda shartnomalar huquqiy vorisligiga nisbatan belgilanadigan asosiy tamoyil — shartnomalarga rioya qilish tamoyilidir. Xali kuchga kirmagan 1978 yilda qabul qilingan Shartnomalarga nisbatan davlatlarning huquqiy vorisiyligi to'g'ri-sidagi Vena Konvensiyasining 35-moddasi ko'rsatilgan umumiyligini qoidadan istisno bo'lgan holatlarni ko'rsatib o'tadi:

- birinchidan, agar merosxo'r-davlat va shartnomaning boshqa katnashchi-davlati yoki davlatlari o'zgacha kelishgan bo'lsalar;
- ikkinchidan, shartnoma fakdt o'tmishdosh-davlatdan ajrab chiqqan hudud uchungina tegishli ekanligi belgilangan bo'lsa;
- uchinchidan, agar shartnoma qoidalarini merosxo'r-davlatga nisbatan qo'llash uning obyekt va maqsadlariga muvofiq kelmasligi yoki uning harakat shartlarini tubdan o'zgartirib yuborishi mumkinligi shartnomaning o'zidan ko'rinish turgan bo'lsa yoki boshqacha tarzda belgilangan bo'lsa.

Yangi mustaqil davlatlar tashkil topishida huquqdy vorisiylik ma'lum o'ziga hos xususiyatlarga ega. O'zok yillar davomida mustamlaka xukmronligi ostida yoki noqonuniy okko'patsiya ostida bo'lgan tobe hududlar xalqaro shartnomalar tuzishda ishtirok etmaydilar. Ushbu funksiya metropol-davlat tomonidan tobe hudidlarda yashovchi aholi manfaatlari inobatga olimmagan xolda amalgaga oshirilgan.

Tobe hudidlarga tegishli bo'lgan shartnomalarning aksariyat qismi asoratga soluvchi shartnomalar sanalgan. Bu kabi shartnomalar harakatining davom ettilishi yosh davlatlarning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini xavf ostida koldirar edi.

1978 yilda qabul qilingan Shartnomalarga nisbatan davlatlarning huquqdy vorisligi to'g'risidagi Vena konvensiyasi yangi mustakdl davlatni o'tmishdosh-davlat shartnomalaridan ozod qilishni ko'zda to'tadi. Konvensiya qator ijobjiy elementlarni o'zida mujassamlashtiradi. Bular:

- yangi mustaqil davlatlarning xalqaro shartnomaviy aloqalarini mustaqil (erkin asoslarda) belgilay olish huquqi
- ularning tabiiy zaxiralari ustidan ajralmas suverenitetini tan olish;
- o‘zga hududlarda chet el harbiy bazalarini kurishni gayriqonuniy deb belgilash to‘g‘risidagi qoida;
- merosxo‘r-davlatlarning xalqaro huquqning umum tan olingen tamoyillariga riosa qilish majburiyati kabilardir.

1983 yilda davlat mulki, davlat arxivlari va davlat qarzlariga nisbatan davlatlarning huquqiy vorisligi to‘g‘risidagi Vena konvensiyasiga muvofiq, agar merosxo‘r-davlat yangi mustaqil davlat bo‘lsa va davlat huquqiy vorisiylik obyekta hisoblanmish o‘tmishdosh-davlatning kuchmas davlat mulki uning hududida joylashgan bo‘lsa, u xolda u merosxo‘r-davlat ixtiyoriga o‘tadi. Merosxo‘r-davlatga, shuningdek, ushbu hududdan tashkarida bo‘lgan, Biroq, o‘tmishdosh-davlat tomonidan mustamlaka davomida egallab olingen kuchmas mulk ham o‘tadi. Agar xorijdagи bunday mulkning yaratilishida tobe davlat ham ishtirok etgan bo‘lsa, u xolda yangi davlatga uning kushgan ulushi mikdoridagi xissasi o‘tadi.

Ikki yoki bir necha davlatlarning birlashishi natijasida yagona merosxo‘r-davlat va shu bilan birga mazkur davlatning huquqiy vorisiyligi vujudga keladi.

Davlatlarning huquqiy vorisligi vujudga kelgan paytda ularning har biriga nisbatan kuchda bo‘lgan har qanday shartnoma merosxo‘r-davlatga nisbatan o‘z kuchini saqlab qoladi. Kachon-ki mazkur hududga nisbatan ushbu shartnomani qo‘llash uning obyekt va maqsadlariga muvofiq kelmasligi yoki uning harakat shartlarini tubdan o‘zgartirib yuborishi shartnomada aniq, ifodalangan yoki o‘zga tartibda belgilangan bo‘lsa, u holatda umumiy qoidadan istisno bo‘lishi mumkin (1978 yilda qabul qilingan shartnomalarga nisbatan davlatlarning huquqiy vorisligi to‘g‘risidagi Vena konvensiyasining 31-moddasi). Oxirgi holatga GDRning 1990 yilda GFR bilan birlashishi natijasida uning xalqaro majburiyatları merosxo‘r-davlatga utmaganligi misol bo‘lishi mumkin.

Hududlarga nisbatan huquqiy vorisiylik davlat hududining biror qismi yoki davlat hududi qismi hisoblanmagan, Biroq, uning xalqaro munosabatlari uchun shu davlat javobgar bo‘lgan qandaydir hududning boshqa davlat hududi qismiga aylanib kolgan holatlarda vujudga keladi. Bunday holatda:

- birinchidan, o‘tmishdosh-davlat shartnomalari ma’lum hududning boshqa davlat ixtiyoriga o‘tishi bilan unga nisbatan o‘z kuchini yo‘qotadi;
- ikkinchidan, mazkur hududda merosxo‘r-davlatning shartnomalari yuridik kuchga ega bo‘ladi.

Kachonki, mazkur hududga nisbatan ushbu shartnomaning qo‘llanishi uning obyekt va maqsadlariga muvofiq kelmasa yoki majburiyatlar hajmini tubdan o‘zgartirib yuborsa, ushbu qoidalardan istisno bo‘lishi mumkin.

O‘tayotgan hududning chegaralariga nisbatan uchinchi davlatlar bilan tuzilgan shartnomalar unga nisbatan o‘z kuchini saqlab qoladi (1978 yilda qabul qilingan shartnomalarga nisbatan davlatlarning huquqiy vorisligi to‘g‘risidagi Vena konvensiyasining 15-moddasi).

Ijtimoiy inkilob vaqtidagi huquqiy vorisiyligi ushbu inkilob natijasida vujudga kelgan yangi davlatga eski davlatga tegishli bo‘lgan ba’zi xalqaro huquq va majburiyatlarining o‘tishi tushuniladi.

Ijtimoiy inkilob natijasida yuz berayotgan keskin (radikal) ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar agdarib tashlangan to‘zumning xalqaro huquq va majburiyatlarini qaytadan ko‘rib chiqish uchun asos bo‘ladi. Bunda yangi davlat to‘zumi asoslariga zid bo‘lgan huquq va majburiyatlargina bekor qilinadi.

Ijtimoiy inkilob yuz berganda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan huquqiy vorislikning turli nazariyalari mavjud. Ulardan biriga muvofiq, ijtimoiy inkilob natijasida huquq va majburiyatlarining qayta ko‘rib chiqilishi xalqaro huquqning sifat jihatidan yangi subyekti vujudga kelganligi bilan xarakterlanadi. Ikkinci bir nazariyaga ko‘ra, ijtimoiy inkilob mamlakatda tubdan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlarni amalga oshirish bilan birga uning

xalqaro huquqiy subyektligiga xech qanday ta'sir ko'rsatmaydi. Biroq, pirovardida, ba'zi xalqaro huquq, va majburiyatlarni qayta ko'rib chiqish huquqini beradi.

Oktabr inkilobi natijasida vujudga kelgan Sovet davlati (yangi hukumatning fikriga muvofiq) Rossiya imperiyasining teng huquqlilikka asoslanmagan, maxfiy hamda ittifoqchilik majburiyatlarini bajarishga karatilgan bitimlaridan voz kechdi. Shuningdek, Sovet davlati podsho hukumati qarzlarini to'lashdan voz kechdi va xorijiy kreditlarni bekor kildi. Shu bilan birga gumanitar, ma'muriy va texnik sohalardagi ko'pgina bitimlar hamda bir qator xalqaro majburiyat va huquqlar saqlab qolindi.

Davlatga uxshash tuzilmalar — xalqaro huquq subyekti

Davlatga o'xshash tuzilmalar — xalqaro huquq subyektlarining bir turi hisoblanadi. Davlatga o'xshash tuzilmalarga «erkin shaharlar» (ugmishda — Venetsiya, Gamburg, Novgorod) kiradi. Ushbu ibora umumlashtirilgan tushuncha hisoblanadi, chunki u nafaqat shaharlarga, balki ma'lum tumanlarga nisbatan ham qo'llanadi. Ba'zi holatlarda tegishli tuzilmalarni erkin shaharlar, ba'zan esa mustaqil (ozod, erkin) hudud yoki mintakd (zona) deb atashgan (masalan, erkin shahar Dansig, mustaqil hudud Triyest).

Umuman erkin shaharlar hududiy da'volarni tuxtatib kuyish, xalqaro munosabatlarda ma'lum hududning tegishliligi borasida vujudga keladigan keskinlikni yumshatishning bir uslubi sifatida vujudga kelgan.

Erkin shahar xalqaro shartnoma yoki xalqaro tashkilotning qaroriga binoan barpo etiladi va cheklangan huquq layokatiga ega bo'lgan o'ziga hos davlat hisoblanadi. U o'z Konstitutsiyasi yoki o'xshash (anologik) xarakterdagi hujjatga, oliy davlat organlariga, fuqaroligiga ega bo'ladi.

Erkin shahar, odatda, qurolsizlantirilgan va betaraf hisoblanadi.

Uning qurolli kuchlari faqat mudofaa xarakterini kasb etadi. Ular an'anaviy tushunchadagi qurolli kuchlar emas, balki chegaralarni ximoya qilish va huquqiy tartibotni saqlab turishga xizmat qiluvchi kuchlardir.

Erkin shaharni barpo qiluvchilar, odatda, uning maqomini boshqa huquq subyektlari tomonidan riosa etilishini nazorat qilish usullarini belgilab kuyadilar. Masalan, ushbu maqsadlarda o'z vakillari yoki vaqilini tayinlaydilar.

Xalqaro maydonda erkin shahar manfaatlarini manfaatdor davlat yoki xalqaro tashkilot ximoya qiladi. Ikki jahon urushi oralig'ida mavjud bo'lgan erkin shahar Dansig maqomini Millatlar ligasi kafolatlagan, uning tashqi aloqalardagi manfaatlarini Polsha ximoya qilgan.

Erkin shahar Triyest 1947 yilda Italiya bilan tuzilgan tinchlik sulxi asosida tashkil topgan, keyinchalik, 1954 yil bitimiga asosan Italiya va Yugoslaviya o'rtasida bo'lingan va BMT Xavfsizlik Kengashi ximoyasida bo'lgan.

Shahar-davlatlar Vatikan va Malta ordeni kabi davlatga o'xshash tuzilmalar o'ziga hos jihatlarga ega. Chetdan qaraganda Vatikan (xatolik cherkovining Mukdddastaxti) davlatining barcha atributlariga — uncha katta bo'limgan hudud, davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari tizimiga ega. Biroq Vatikan aholisi to'g'risida faqat shartli ravishda gapirish mumkin: bu — xatolik cherkovida tegishli lavozimlarda ishlovchi mansabdor shaxslar. Shu bilan birga Vatikan — ijtimoiy mazmundagi, ya'ni ma'lum jamiyatni boshqaruvchi mexanizm, uning tomonidan yaratilgan va uni ximoya qiluvchi davlat emas. Ko'proq u xatolik cherkovining ma'muriy markazi sifatida qurilishi mumkin.

Vatikan maqomining o'ziga hosligi uni rasman xalqaro huquq subyekti deb tan oluvchi davlatlar bilan diplomatik munosabatlар o'rnatganligi bilan izoxlanadi. Bunday tan olish xatolik cherkovining siyosiy rolini amalda tasdiqlashni anglatadi.

1889 yilda suveren tuzilma sifatida tan olingan Malta ordenining xalqaro huquq subyekti ekanligi masalasi muayyan o'ziga hos xususiyatlarga ega. Orden manzilgoxi — Rim shaxrida joylashgan. Uning rasmiy maqsadi — xayriya faoliyatini amalga oshirish. U ko'pgina davlatlar bilan diplomatik munosabatlarga ega. Ordenning o'z hududi va aholisi yo'q. Uning suvereniteti va xalqaro huquq layokati — huquqiy fiksiya.

Shuni ta'kidlash lozimki, bu kabi tuzilmalarning hammasi ham xalqaro huquq subyektlari hisoblanmaydi.

Millatlar yoki xalqlar — xalqaro huquq subyekti sifatida

O'z ozodligi uchun kurashayotgan va ma'lum hokimiyat tuzilmalarini tuzgan, yagona markaz bilan birlashgan millat yoki xalqlar millat yoki xalq nomidan xalqaro munosabatlarda ishtirok etishi va xalqaro huquq subyekti maqomiga ega bo'lishni talab qilishi mumkin. Amalda bunday tuzilmalar qatoriga yagona qo'mondonlikka ega bo'lgan hamda aksariyat xollarda bir vaqtning o'zida siyosiy raxbarlikni amalga oshiruvchi qurolli otradlar kiradi.

Millatlar yoki xalqlar xalqaro huquqning alohida va maxsus subyektlari hisoblanadi. Imperativ xarakterdagи me'yор-tamoyilga — teng huquqlilik va xalqlarning o'z takdirini o'zi belgilash tamoyiliga muvofiq barcha xalqlarning o'z takdirini o'zi belgilash huquqi, ya'ni tashkaridan xech qanday aralashuvsiz erkin asoslarda o'zining siyosiy maqomini belgilash va iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishini amalga oshirish huquqi tan olinadi. 1970 yidda qabul qilingan Xalqaro huquq tamoyillari to'g'risidagi deklaratasiyaga muvofiq har bir davlat ushbu huquqni xurmat qilishi lozim. So'z xalqlar va davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar (xalqaro huquqiy munosabatlar) to'g'risida bormokda.

Xalqaro huquq tamoyillari to'g'risidagi deklaratasiyaga muvofiq; suveren va mustaqil davlatning paydo bo'lishi, mustaqil davlatga erkin qo'shilishi yoki u bilan birlashishi yoki xalq tomonidan erkin asoslarda belgilangan boshqa siyosiy maqomning o'rnatilishi ushbu xalqning o'z takdirini o'zi belgilashni amalga oshirishning usullari sanaladi.

Xalqaro huquqda «xalq» tushunchasi aniqlanmagan. Bizning nazarimizda, xalq — hududiy xarakter kasb etuvchi tushunchadir. Xalq — mazkur hududda, ular o'rtasidagi irkiy, etnik, diniy yoki boshqa xarakterdagи farqlardan katyi nazar, doimiy yashovchi (balogat yoshidagi) shaxslarning yig'indisidir. Bunday tarzda o'z takdirini o'zi belgilash bir vaqtning o'zida ushbu hududning siyosiy maqomini ham belgilashdir.

Yakin vaqtarda ham o'z takdirini o'zi belgilash to'g'risida so'z borganda birinchi galda tobe hududlarning xalqlari, ya'ni mustamlaka ostida bo'lgan xalqlar ko'zda tutilar edi. Va har bir davlatga ularning o'z takdirini o'zi belgilashda ko'maklashish majburiyati yuklangan.

Davlatlar o'zaro munosabatlarida ichki huquq; qonun hujjatlarida xorijiy davlatlarning jismoniy va yuridik shaxslari, o'z hududidagi barcha individlar hamda nohukumat tashkilotlarning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlashga o'zaro rioya qilish majburiyatini (avvalambor tegishli xaikaro shartnomadar asosida) oladilar.

Jismoniy va yuridik shaxslar, nohukumat tashkilotlar yoki milliy huquqning o'zga subyektlari xalqaro huquq; subyektlari emas, chunki ular ichki davlat huquqiy tartibiga buysunadilar. Xalqaro huquq; subyekglarining o'ziga hos jihatи x.am ularga yuridik majburiy xatgi-x.arakat k;oidalarini belgilab beruvchi kuch yoki hokimiyatning mavjud emasligi bilan izoxlanadi. Xalqaro tashkilotlar — xalqaro huquq; subyekti sifatida xalqaro tashkilotlar tarkibiga hukumatlararo tashkilotlar hamda a'zolari shaxsiy tartibda harakat qiluvchi davlatlararo mexanizmlar va organlar (xalqaro arbitrajlar, komitetlar, ekspertlar guruhi va boshqalar) kiradi.

Hukumatlararo konferensiyanı vaqtinchalik xalqaro muassasa deb hisoblash mumkin.

Xalqaro tashkilot o'zining xapkaro huquq; layokatiga ta'sis shartnomasiga muvofiq; ega bo'ladi. Shartnomalar xalqaro tashkilotni ma'lum huquqda ega bula olish, ya'ni davlatlar va hukumatlararo tashkilotlar bilan shartnomalar tuzish, o'z nomidan qarorlar qabul qilish k;obiliyati bilan ta'minlaydi.

Xalqaro huquqiy hujjatlarda xalqaro tashkilot — bu hukumatlararo tashkilot deb ko'rsatilgan ta'rifdan boshqa «xalqaro tashkilot» tushunchasi mavjud emas. Biroq bunday ta'rif faqat hukumatlararo (xalqaro) tashkilotni nohukumatlararo tashkilotdan farqlaydi, xolos. Xalqaro tashkilot xalqaro tuzilma bo'lib, uning ta'sis etilishi va faoliyati xalqaro huquq normalari bilan tartibga solinadi. Xalqaro tashkilotning ta'sis etilishi va faoliyati hozirgi davr xalqaro huquqining asosiy tamoyillariga muvofiq; kelishi lozim. Xalqaro huquqiy munosabatlarda xalqaro tashkilot

a'zo-davlatlar irodasidan farqli o'laroq o'z irodasini ifodalab, faqat o'z nomidan katnashishi mumkin. Xalqaro tashkilot a'zo-davlatlar, o'zga tashkilotlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlari bilan bo'ladigan huquqiy munosabatlarda uning irodasini belgilangan qoidalarga muvofiq; shakllantiruvchi va ifodalab bera oluvchi organlarga ega bo'lishi lozim.

A'zolari tarkibi va faoliyat doirasi bo'yicha xalqaro tashkilotlar universal xalqaro tashkilotlar, ya'ni barcha davlatlar katnashishi uchun ochiq bo'lgan, hududiy (regional), ya'ni qandaydir yirik region davlatlarini birlashtiruvchi va maxalliy — bir necha (odatda uchtadan oz bo'lмаган) davlatlarni birlashtiruvchi turlarga bo'linadi.

O'z tarkibi, faoliyat sohasi va xalqaro munosabatlardagi tutgan alohida o'rniga ko'ra eng universal tashkilot — Birlashgan Millatlar Tashkilotidir.

Yana xalqaro organlar deb nomlanadigan xalqaro tuzilmalar ham xalqaro huquq subyektlari hisoblanadi. Bular xalqaro arbitrajlar va sudlar (doimiy va ad hoc), tergov, yarashtiruvchi va boshqa komissiyalar, chunki ular davlatlar o'rtasidagi o'zaro bitimlar asosida yaratiladi va o'z faoliyatida xalqaro-huquqiy qoidalarga rioya qiladi.

O'zbekiston Respublikasi — xalqaro huquq subyekti

«O'zbekiston — xalqaro munosabatlар subyekti» degan konstitutsiyaviy formula nafaqat O'zbekiston Respublikasining hozirgi jahonda tutgan o'rminigina emas, balki O'zbekiston jahon hamjamiyatining ajralmas bir qismi, uning teng huquqli a'zosi ekanligini anglatadi. Bu kuyidagilarda kurinadi:

- birinchidan, O'zbekiston suveren davlat sifatida faqat hozirgi xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan tamoyillari va me'yorlari hamda o'zi ishtirok etgan xalqaro shartnomalar qoidalari bilan bog'liqidir va o'zining roziligidiz boshqa xech qanday majburiyat yuklanishi mumkin emas;
- ikkinchidan, O'zbekiston hududi ichida davlat hokimiyati cheklanmagan va xalqaro huquqdning boshqa biron-bir subyekti unta aralashishga xakli emas. Uning hududidan tashkarida esa hokimiyat boshqa manfaatdor davlatning roziligi bilangina amalga oshirilishi mumkin;
- uchinchidan, O'zbekiston xalqaro huquqning boshqa subyektlari bilan diplomatik aloqalar o'rnatish va ular bilan shartnomalar tuzish bilan bevosita davlatlararo munosabatlarda ishtirok etadi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston jahoning 120 dan ziyod davlatlari bilan rasmiy diplomatik aloqalar o'rnatdi. Toshkentda 35 mamlakatning elchixonalari ochildi va 19 xorijiy davlatlarning elchilarini urindoshlik asosida O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan. Respublikada 88 xorijiy vakolatxonalar, 24 ta hukumatlararo va 13 ta xalqaro nodavlat tashkilotlar faoliyat ko'rsatmokda.

Konstitutsiya asosida O'zbekiston Respublikasini xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatida belgilovchi huquqiy asos yaratilgan. Kuyidagilar tashqi siyosat sohasida eng ahamiyatli hisoblanadi:

1. 1996 yildagi O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari to'g'risidagi Qonun;
2. 1992 yildagi Diplomatik vakolatxonalarning raxbarlarini tayinlash va chakirib olish tartibi to'g'risidagi Qonun;
3. 1992 yildagi Diplomatik unvonlar va darajalarni berish to'g'risidagi Qonun;
4. 1992 yildagi Xalqaro shartnomalar to'g'risidagi Qonun;
5. 1996 yildagi Konsullik Ustavi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar sohasida kuyidagi qonun hujjatlari qabul qilingan:

1. 1992 yilda Xorijiy sarmoyalalar to'g'risidagi Qonun;
2. 1994 yilda Xorijiy sarmoyadorlarning faoliyatlarini kafolatlash to'g'risidagi

Qonun;

3. 2000 yilgi yangi taxrirdagi Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risidagi Qonun.

O‘zbekistonning tashqi aloqalarini ta‘minlovchi davlat organlari tuzilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy Majlis depo‘tlari umumxalq tomonidan mukobillik va ko‘ppartiyaviylik asosida saylandi, mamlakat hukumati to‘zildi. Tashqi ishlar vazirligi faoliyatining yunalishlari va vazifalari tubdan o‘zgartirildi. Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi va tashqi iqtisodiy faoliyat milliy Banki to‘zildi. Tashqi savdo firmalarining ixtisoslashgan tarmoqlari tashkil qilindi, 260 dan ziyod chet el firmalari, banklari va kompaniyalarining vakolatxonalari ochildi.

4 mavzu.

XALQARO HUQUQ TAMOYILLARI

- Xalqaro huquq tamoyillari tushunchasi va o‘ziga hos xususiyatlari.
- Davlatlarning suveren tengligi tamoyili.
- Kuch ishlatmaslik va kuch bilan taxdid kilmaslik tamoyili.
- Davlat chegaralarining daxsizligi tamoyili.
- Davlatlarning hududiy yaxlitligi tamoyili.
- Xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan xal etish tamoyili.
- Davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik tamoyili.
- Inson huquqlarini xurmat qilish tamoyili.
- Xalqlar va millatlarning o‘z takdirini o‘zi belgilashi tamoyili.
- Davlatlarning xalqaro hamkorlik tamoyili.
- Xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish tamoyili.

Xalqaro huquq tamoyillari tushunchasi va o‘ziga hos xususiyatlari

Huquq tamoyili — vokelikning obyektiv tartibi, ijtimoiy amaliyat, ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlarining me’yoriy in’ikosidir.

Xalqaro huquq tamoyillari — ijtimoiy amaliyat natijasida vujudga keladigan xalqaro huquqning yuridik mustahkamlangan asoslari bo‘lib, huquq subyekglari xatti-harakatining raxbari qoidalari hisoblanadi.

Xalqaro huquqning bir qator me’yorlarini, garchi ular xalqaro huquq me’yorlari bo‘lsada, tamoyillar deb nomlanadi. Biroq, ularning ba’zilari azaldan tamoyillar deb nomlangan, ba’zilari esa xalqaro-huquqiy tartibga solishda tutgan ahamiyati bois shunday deb atala boshlangan. Shu bilan birga xalqaro huquqiy tartibotni ta‘minlashda xalqaro hamjamiyat uchun o‘ta muhim ahamiyatga ega bo‘lgan va umumiy xarakter kasb etuvchi alohida tamoyillar ham mavjud.

Tamoyillar ichida hozirgi davr xalqaro huquqiy tartibotining asosini tashkil etuvchi xalqaro huquqning asosiy tamoyillari ajralib turadi. Davlatning qandaydir asosiy tamoyilni bo‘zishi xalqaro hamjamiyat tomonidan butun xalqaro huquqiy tartibotga tajovo‘z qilish deb tushunilishi mumkin.

Xalqaro huquq tamoyili — avvalambor xalqaro huquq me’yordir.

Huquq tamoyillaridan huquqiy ong tamoyillarini, ya’ni kishilar, ijtimoiy harakatlar,

siyosiy partiylar va xokazolarning subyektiv tasavvurlarini farqlash lozim.

Huquq subyeklari uchun xalqaro huquq tamoyillariga rioya qilish katyiyan majburiyidir. Xalqaro huquq tamoyilini ijtimoiy amaliyotni o'zgartirish orqaligina bekor qilish mumkin. Bu esa alohida davlatlar yoki davlatlar guruhi imkoniyati doirasida emas. Shuning uchun har bir davlat xalqaro huquq tamoyillarini bo'zish orqali ijtimoiy amaliyotni «to'zatish»ga karatilgan har qanday bir tomonlama tartibdagi urinishlarga o'z munosabatini bildirishi lozim.

Xalqaro huquq tamoyillari odatiy va shartnoma usullari orqali shakllanadi. Ular bir paytning o'zida ikki xil funksiyani bajaradi:

- birinchidan, xalqaro munosabatlarni ularning ma'lum me'yoriy doiralar bilan chegaralash orqali barqarorlapshshiga kumaklashadi;
- ikkinchidan, xalqaro munosabatlar amaliyotida vujudga keladigan barcha yangi holatlarni mustahkamlaydi.

Xalqaro huquq tamoyillarining o'ziga hosligi ularning universalligidir. Ya'ni xalqaro huquqning barcha subyeklari tamoyillarga katyiyan rivoja qilishlari lozim, chunki mazkur tamoyillarni har qanday tarzda bo'zish mukarrar ravishda xalqaro munosabatlarning boshqa ishtirokchilari qonuniy huquq va manfaatlariga daxl qilishga olib keladi. Xalqaro huquq tamoyillari bugun xalqaro-huquqiy me'yorlar tizimining qonuniylik mezoni hisoblanadi.

Xalqaro huquqning asosiy tamoyillari BMT Ustavida mustahkamlangan. BMT Ustavi tamoyillari jus cogens xarakterini kasb etishi keng tan olingan, ya'ni ular davlatlar tomonidan bekor qilinishi mumkin bo'limgan oliv darajadagi majburiyatlar sanaladi.

Xalqaro huquqda uning umume'tirof etilgan tamoyil va me'yorlarini batatsil bayon qilib beruvchi yagona me'yoriy hujjat mavjud emas. Agar BMT Ustavida besh tamoyilning nomi keltirilgan bo'lsa, Xalqaro huquq tamoyillari to'g'risidagi Deklaratsiyada ularning yetgitasi ifodalab berilgan. Bular kuyidagilardir:

- 1) Kuch ishlatmaslik va kuch bilan taxdid kilmaslik ta moyili.
- 2) Xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan xal etish tamoyili.
- 3) Davlatlarning ichki ishlariiga aralashmaslik tamoyili.
- 4) Davlatlarning xalqaro hamkorlik tamoyili.
- 5) Davlatlarning suveren tengligi tamoyili.
- 6) Xalqlar va millatlarning o'z takdirini o'zi belgilash ta moyili.
- 7) Davlatlarning xalqaro majburiyatlarini vijjdonan bajarisht tamoyili.

Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashning Xelsinki Yakunlovchi Hujjatida mazkur tamoyillarga yana uchtasi kushilgan. Bular:

- 1) chegaralar daxlsizligi;
- 2) davlatlarning hududiy yaxlitligi;
- 3) inson huquqlari va asosiy erkinliklarini xurmat qilishdir.

Jahon hamjamiyati oldida turgan umumbashariy muammolarni xal etish zaruriyatini ifoda etuvchi yangi tamoyillar ham (masalan, atrof muxitni ximoya qilish majburiyati) shakllanmokda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida yuqorida ko'rib ugilgan tamoyillardan beshtasi aniq belgilab qo'yilgan va «xalqaro huquqning boshqa umumtan olingan tamoyil va me'yorlari»ni xurmatlash aytib ugilgan

Davlatlarning suveren tengligi tamoyili

Xalqaro huquqiy tartibotni faqat uning katnashchilari yuridik tengligini xurmat qilish orqali ta'minlash mumkin. Har bir davlat xalqaro tizimning boshqa ishtirokchilari suverenitetini xurmat qilishi kerak. Bu yerda ularning o'z huquqi doirasida qonunchilik, ijro va sud hokimiyatini amalga oshirishari hamda mustaqil tashqi siyosatni olib borish huquqi nazarda tutilmokda. Davlatlarning suveren tengligi xrzirgi davr xalqaro munosabatlarning asosini, xalqaro hamkorlik bazasini tashkil kdladi.

Suveren tenglik tamoyilining asosiy maqsadi — barcha davlatlarni, ularning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy yoki boshqa xususiyatlaridan kat'i nazar, xalqaro munosabatlarda yuridik teng asoslarda katnashishini ta'minlashdir. 1970 yil Deklaratsiyasiga muvofiq suverenitet tushunchasi kuyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

- birinchidan, barcha davlatlar yuridik tengdirlar;
- ikkinchidan, har bir davlat to'liq suverenitetga hos bo'lgan huquqlardan foydalanadi;
- uchinchidan, har bir davlat bopsha davlatlarning huquq layokatini xurmat kilmogi lozim;
- turtinchidan, davlatning hududiy yaxlitligi va siyosiy mustaqilligi daxlsizdir;
- beshinchidan, har bir davlat o'zining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tizimlarini erkin asoslarda tanlash va rivojlantirsh huquqiga egadir;
- oltinchidan, har bir davlat o'zining xalqaro majburiyatlarini to'liq; va vijdonan bajarishi lozim.

Suveren tenglik tamoyili O'zbekiston Konsgitupiyasida e'lon qilingan va bu o'zga davlatlarning o'ziga hosligini, ularning mustaqilligi, huquq va erkinliklarini xurmat qilishni, o'zining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tizimlarini erkin asosda tanlash va rivojlantirsh hamda o'zining qonunlari va ma'muriy qoidalarini belgilash huquqini tan olishni ko'zda to'tadi.

Kuch ishlatmaslik va kuch bilan taxdid kilmaslik tamoyili

Xalqaro munosabatlarni demokratik asoslarda qayta kurish mukarrar ravishda kuch ishlatish va kuch bilan taxdid solishning cheklanishiga olib keladi. Birinchi bor mazkur obyektiv qonuniylik xalqaro huquq tamoyili sifatida BMT Ustavida mustax.kamlangan. Ustavning 2-modda 4-bulimiga muvofiq. «Birlashgan Millatlar Tashkilotining barcha a'zolari o'zlarining xalqaro munosabatlarda har qanday davlatning hududiy daxlsizligi yoki siyosiy mustaqilligiga qarshi kuch bilan taxdid qilish va uni qo'llashdan o'zlarini tiyib turadilar».

Kuch ishlatmaslik majburiyati barcha davlatlar uchun taalluklidir, chunki xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash zaruriyati barcha davlatlarning o'zaro munosabatlarida ushbu tamoyilga rioya qilishlari lozim ekanligini talab kilmokda.

YEXXKning Yakunlovchi xuxjatida ishtirokchi-davlatlarning o'zaro munosabatlarida «boshqa ipggirokchi-davlatni majbur qilish maqsadida kuch ishlatishning har qanday kurinishlaridan» hamda «har kdnday iqtisodiy majbur etish xatti-harakatlaridan o'zini tiyib turish» bevosita ko'rsatib o'tilgan.

BMT Ustavining 42-47 va 51-moddalarida qurolli kuchlardan qonuniy foydalana olish mumkin boltan holatlar ayтиб o'tilgan. 41 va 50-moddalarda esa harbiy bo'lмаган kuchlarni qonuniy qo'llash to'g'risida so'z boradi. Ularda «iqtisodiy munosabatlarni, temiryo'l , dengiz, havo, pochta, telegraf, radio yoki aloqaning boshqa vositalarini to'liq yoki qisman o'zish va shuningdek, diplomatik munosabatlarni o'zish» choralarini sanab o'tilgan.

BMT Ustavi qurolli kuchlarni qonuniy qo'llashning faqat ikkita holatini nazarda to'tadi:

- birinchidan» o'zini mudofaa qilish maqsadida (52-modda);
- ikkinchidan, tinchlikka xavf tugilganda, tinchlik bo'zilgan yoki boskinchilik harakati sodir bo'lganida BMT Xavfsizlik Kengashi qarori bilan (39 va 42-moddalar).

O‘zini mudofaa qilish tartibida qurolli kuchlarni ishlatish, agar davlatga qarshi qurolli xujum sodir etilgan holatdagina qonuniy hisoblanadi. BMTning Xavfsizlik Kengashiga keladigan bo‘lsak, agar u nizoni xal etish uchun tavsiya qilingan noharbiy choralarini yetarli emas deb hisoblasa, u xolda «xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash yoki tiklash uchun zarur bo‘lgan havo, dengiz yoki quruqlikdagi kuchlar bilan bunday harakatlarni amalga oshirish vakolatini oladi».

Xalqaro munosabatlarda kuch ishlatishdan yoki kuch bilan taxdid kilishsan voz kechish tamoyili tomonlarni boshqa davlatga qarshi bevosita yoki bilvosita kuch ishlatishni ifodalovchi har qanday harakatlardan o‘zini tiyib turishni anglatadi. Bu yerda shuni esda tutmok lozimki, BMT Ustavida (2-modda, 4-bulim) ta’riflangan «kuch» tushunchasi mazmuni nafaqat qurolli kuchni, balki majburlashing kolgan barcha shakllarini ham ko‘zda to‘tadi.

Davlat chegaralarining daxlsizligi tamoyili

Davlat chegaralarining daxlsizligi tamoyili davlat milliy xavfsizligining eng muhim asoslaridan birini tashkil qiladi.

Mazkur tamoyil Yevropada xavfsizlik va hamkorlik bo‘yicha Kengashning 1975 yilda qabul qilgan Yakunlovchi hujjatida ta’riflab berilgan. Unda aytilishicha, «ishtirokchi-davlatlar bir-birlariga tegishli, shuningdek, Yevropadagi barcha davlatlar chegaralarini bo‘zilmas deb hisoblaydilar va shuning uchun ular hozir va kelajakda ushbu chegaralarga nisbatan har qanday tajovo‘z qilishdan o‘zlarini tiyadilar».

Ushbu tamoyilni tan olish har qanday hududiy da’volardan voz kechishni ham anglatadi.

YEXXXK ishtirokchi-davlatlari Yevropa davlatlarining mayjud chegaralarini tan olishlarini va tasdiqlashlarini izxor qilganlar. Ushbu tan olish xalqaro-huquqiy bo‘lib, ma’lum yuridik okibatlarga ega, xususan uni bekor qilish mumkin emas.

Chegaralar daxlsizligi va bo‘zilmasligi tamoyilining asosiy mazmunini kuyidagi uch element bilan ifodalash mumkin:

- birinchidan, mavjud chegaral arni xalqaro huquqqa muvofiq tarzda yuridik belgilangan deb tan olish;
- ikkinchidan, hozirda va kelajakda dar qanday hududiy talablardan voz kechish;
- uchinchidan, ushbu chegaralarga nisbatan har qanday boshqa tajovo‘zlardan voz kechish.

Chegaralar daxlsizligi tamoyili barcha davlatlarning hududiy ustunligi va yaxlitligini surmat qilishni ham anglatadi. Ushbu tamoyilga muvofiq davlatlar umumiyl chegaralarning, shuningdek, boshqa davlatlarga tegishli chegaralarning bo‘zilmasligini tan oladilar. Ular har qanday davlat hududining ma’lum bir qismi yoki uning butun hududini bosib olishga karatilgan har qanday talab va harakatlardan o‘zlarini tiyish majburiyatini oladilar. Bu alohida olingan davlatlar o‘rtasida nizoli hududlar masalasi bulmaydi degani emas, Biroq; chegaraga daxldor masalalar mo‘zokaralar va xalqaro huquqkd muvofiq tarzda boshqa vositalar yordamida xal etilmogi lozim. Chegaralar daxlsizligi tamoyili universal xarakter kasb etib, barcha kigyalarda qo‘llanishi lozim. Bu esa o‘z o‘rnida xalqaro tinchlikni va xavfsizlikni mustahkamlaydi.

Davlatlarning hududiy yaxlitligi tamoyili

Davlatlarning hududiy yaxlitligi tamoyili BMT Ustavi qabul qilinishi bilan o‘z yechimini topgan. Biroq mazkur tamoyilning nomlanishi oxirigacha o‘z yechimini topgani yo‘q. Shuning uchun huquqiy adabiyotlarda hududiy yaxlitlik va hududiy daxlsizlik iboralarini uchratishimiz mumkin.

BMT Ustavi har qanday davlatning siyosiy mustaqilligi va hududiy daxlsizligiga (yaxlitligiga) qarshi kuch ishlatish va kuch bilan taxdid qilishni ta’kiklaydi. 1970 yilgi Xalqaro huquq tamoyillari to‘g‘risidagi Deklaratsiyada BMT Ustavining 2-modda 4-bulimi mazmunini

yoritishda bu yerda bevosita hududiy yaxlitlik tamoyilining o‘zi tilga olinmasa-da, uning ko‘pgina elementlari o‘z aksini topgan. Xususan, har bir davlat:

- birinchidan, «boshqa davlatning milliy birligi va hududiy daxlsizligini bo‘zishga karatilgan har qanday harakatlardan o‘zini tiyib turish kerak»;
- ikkinchidan, «davlat hududi Ustav qoidalarini bo‘zish orqali kuch ishlatish natijasi harbiy bosib olish obyekti bulmasligi lozim»;
- uchinchidan, «davlat hududi kuch bilan taxdid qilish yoki uni ishlatish natijasida boshqa davlat tomonidan egallab olinish obyekti bo‘lishi mumkin emas».

Mazkur tamoyilni rivojlantirishning keyingi boskichi 1975 yilgi YEXXKning Yakunlovchi hujjati buldi. Ushbu hujjat hududiy yaxlitlik tamoyilining to‘liq ta’rifini o‘zida ifodalagan.

Xalqaro nizolarни tinch yo‘l bilan xal etish tamoyili

Hozirgi zamon xalqaro huquqiga muvofiq davlatlar o‘z nizolarini tinch yo‘llar bilan xal etishlari lozim.

BMT Ustavining 2-modda 3-bulimiga muvofiq «Birlashgan Millatlar Tashkilotining barcha a’zolari o‘zlarining xalqaro nizolarini xalqaro tinchlik, xavfsizlik va adolatni xavf ostida koldirmaslik uchun tinch yo‘llar bilan xal etadilar, ya’ni mo‘zokaralar, tekshirish utkazish, vositachilik, yarashtirish, arbitraj, sudd ishni kurish, regional organlar yoki kengashlarga murojaat qilish yoki o‘z hohishiga ko‘ra boshqa vositalar yordamida» xal etadilar.

So‘nggi chorak asr xalqaro nizolarini tinch yo‘l bilan xal etish vositalari ahamiyati va salmogiing usib borishi bilan xarakterlanadi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasida mustahkamlab qo‘yilgan davlatlar o‘rtasidagi nizolarini tinch yo‘l bilan xal etish tamoyili barcha nizoli masalalar xalqlarning qonuniy manfaatlari, tinchlik va xavfsizlik xavf ostida komasligi uchun xalqaro huquqqa mos ravishda tinch usullar bilan xal etilishini belgilab beradi. 1970 yildagi Xalqaro huquq tamoyillari to‘g‘risidagi Deklarasiyada ayttilishicha: «Har bir davlat o‘zining boshqa davlatlar bilan mavjud xalqaro nizolarini, xalqaro tinchlik, xavfsizlik va adolatni xavf ostida koldirmaslik uchun tinch yo‘llar bilan xal etadi». O‘zbekiston ushbu tamoyilga ogishmay rioya kilmokda.

Davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik tamoyili

Davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik tamoyili BMT Ustavining 2-moddasi 7-bulimida aks ettirilgan va 1970 yildagi Xalqaro huquq tamoyillari to‘g‘risidagi Deklaratsiya, YEXXKning Yakunlovchi hujjati, davlatlarning ichki ishlariga aralashishga yo‘l kuyib bulmaslik, ularning mustaqilligi va suverenitetini ximoya qilish to‘g‘risidagi BMT Rezolyutsiyasi kabi xalqaro hujjatlarda o‘zining yanada aniq bayonini topgan.

BMT Ustavining 2-moddasi 7-bulimiga muvofiq tashkilot o‘z moxiyati bo‘yicha har qanday davlatning ichki vakolatiga kiradigan ishlarga aralashish huquqiga ega emas». Biroq davlat hududi doirasida yuz berayotgan ba’zi harakatlар Xavfsizlik Kengashi tomonidan faqat muayyan davlatning ichki ishi emas deb baxolanishi mumkin. Masalan, agar BMT Xavfsizlik Kengashi ma’lum xodisani xalqaro tinchlik va xavfsizlikka xavf tugdiradi deb hisoblasa, ushbu harakatga nisbatan Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan amalga oshirilgan xatti-harakatlar davlatning ichki ishlariga aralashish deb karalmasligi lozim.

Aralashmaslik konsepsiysi davlatlar har qanday masalalarni ixtiyoriy ravishda o‘z vakolatlari doirasiga kiritib olishini anglatmaydi. Davlatlarning xalqaro majburiyatları, shuningdek, ularning BMT Ustavidan kelib chikuvchi majburiyatları mazkur masalalarni to‘g‘ri xal etishga yondashishda mezon bo‘lib xizmat kaladi.

Inson huquqlarini xurmat qilish tamoyili

Inson huquqlarini xurmat qilish tamoyili shakllanishi bevosita BMT Ustavining qabul qilinishi bilan bog'liq Ustavning 1-moddasida Tashkilot a'zolarining maqsadi sifatida «barcha uchun ularning irki, jinsi, tili va dinidan katiyiy nazar inson huquqlari va asosiy erkinliklarini ragbatlantirish va xurmat qilishni rivojlantirishda» davlatlar o'rtaida hamkorlik to'g'risida so'z boradi. Ustavning 55-moddasi muhim ahamiyatga ega. Unga muvofiq. Birlashgan Millatlar Tashkiloti:

- birinchidan, aholining yashash darajasi yuksalishiga, to'liq bandligiga, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish shart-sharoitlariga;
- ikkinchidan, inson huquqlari va asosiy erkinliklarini xurmat qilishga va rioya etishga kumaklashadi.

Bu yerda davlatlarning majburiyatlari eng umumi shaklda bayon qilingan, shuning uchun davlatlar inson huquqlarini xurmat qilish tamoyilining me'yoriy mazmunini aniqlashga intilmokdalar. Bu vazifa 1948 yildagi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida va 1966 yilda qabul qilingan ikkita pakt Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktlarda to'liq va universal tarzda bajarilgan. Kayd etilgan xalqaro hujjatlar umumi xarakter kasb etadi, ya'ni inson huquqlari va erkinliklariga barcha davlatlar tomonidan rioya qilinishi lozim.

Inson huquqlari sohasidagi davlatlararo hamkorlikning asosiy maqsadi milliy qonunchilikni bir xil qilish (unifikatsiyalashtirish) emas, balki davlatlar uchun milliy qonunchilikni ishlab chiqishda boshlangich nukta vazifasini o'tashga xizmat qiluvchi standartlarni yaratishdir.

Inson huquqlari va erkinliklarini bevosita tartibga solish va ximoya qilish avvalgiday har bir davlatning ichki ishi bo'lib kolmokda. Inson huquqlari sohasidagi xalqaro me'yorlarning aksariyat qismi bevosita davlat hududida qo'llanishi mumkin emas. Mazkur me'yorlar implementatsiyasi suveren davlatdan muayyan chora va tadbirlar amalga oshirilishini talab qiladi.

Xalqlar va millatlarning o'z takdirini o'zi belgilashi tamoyili

Har bir xalq o'zining rivojlanish yo'li va shakllarini erkin tanlay olish huquqini so'zsiz xurmat qilish xalqaro munosabatlarning asoslaridan birini tashkil qiladi.

Xalqlar va millatlarning o'z takdirini o'zi belgilashi tamoyili BMT Ustavi qabul qilingandan so'ng majburiy me'yor sifatida rivojlanmokda. BMTning asosiy maqsadlaridan biri — «davlatlar o'rtaida dustona munosabatlarni xalqlarning tengligi va o'z takdirini o'zi belgilashi tamoyili asosida rivojlantirish»dir (Ustavning 1-modda, 2-bulimi). Ushbu maqsad Ustavning boshqa ko'pgina qoidalarida aniqlashtirilgan.

O'z takdirini o'zi belgilash tamoyili mustamlaka va tobe xalqlar muammolarini xal etishda asos bo'lib xizmat qiladi, chunki mazkur tamoyilning subyekta davlatlar emas, balki xalqlar va millatlardir.

BMT hujjatlarida o'z takdirini o'zi belgilash tamoyili me'yoriy mazmunining asosi ifodalab berilgan. Misol uchun, 1970 yilda qabul qilingan Xalqaro huquq tamoyillari to'g'risidagi Deklaratsiyada ta'kidlanishicha: «Suveren va mustaqil davlatning to'zilishi, mustaqil davlatga birladshishi yoki u bilan qo'shilishi, yoki xalq tomonidan erkin belgilangan har qanday siyosiy maqomning o'rnatilishi mazkur xalqning o'z takdirini o'zi belgilash huquqini amalga oshirish shakllari hisoblanadi».

Agar millat mustaqil davlatni yaratса yoki davlatlar federatsiyasi tarkibiga kirsa, o'z takdirini o'zi belgilashi huquqi yo'q ketmaydi. O'z takdirini o'zi belgilash huquqining subyektlari nafaqat tobe davlatlar, balki suveren millat va xalqlar ham sanaladi. Milliy mustaqilikka erishish bilan o'z takdirini o'zi belgilash huquqi faqat o'z mazmunini o'zgartiradi, bu esa tegishli xalqaro huquqiy me'yorlarda o'z ifodasini topadi.

Davlatlarning xalqaro hamkorlix tamoyili.

Davlatlar ularning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy to‘zumidan katyi nazar xalqaro hamkorlik goyasi BMT Ustavini tashkil etuvchi me’yorlar tizimida asosiy hisoblanadi.

Hamkorlik tamoyili ko‘pgina xalqaro tashkilotlar Ustavlarida, xalqaro shartnomalarda, ko‘p sonli rezolyutsiya va deklaratsiyalarda aks ettirilgan. Misol uchun, BMT Ustavida davlatlar «iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va gumanitar xarakterdagi xalqaro muammolarni xal etishda xalqaro hamkorlikni amalgaga oshirishlari lozim»ligi majburiyati ko‘rsatib ugilgan.

Albatta, hamkorlikning aniq, shakli va uning hajmi davlatlarning o‘ziga, ularning talab va moddiy zaxiralariga, ichki qonunchilik va ular qabul qilgan xalqaro majburiyatlarga 6oglikdir. Biroq, davlat maqsadlarini ifodalovchi huquqiy xuj-jatlar taxlili davlatlar hamkorlik tamoyiliga universal xarakter berishga intilayotganliklarini ko‘rsatmokda. Barcha davlatlar BMT tamoyillariga muvofiq harakat qilishlari majburiyati ularga turli xil xalqaro muammolarni yechishda o‘zaro hamkorlik asosida harakat qilishlari lozimligi majburiyatini yuklamokda.

Xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish tamoyili

Xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish tamoyili davlatchilikning ilk boskichlarida xalqaro-huquqiy odat shakli sifatida — pacta sunt servanda vujudga keldi. Mazkur tamoyil hozirgi vaqtida ko‘p sonli ko‘p tomonlama va ikki tomonlama xalqaro shartnomalarda o‘z aksini topgan.

Xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish tamoyili xalqapo huquq subyektlari xattiharakatini belgilovchi umume’tirof etilgan me’yor sifatida BMT Ustavida kayd etilgan. Ushbu xalqaro hujjat Mukaddimasida BMT a’zolari kat’iylik bilan «shartnomalar va xalqaro huquqning boshqa manbalaridan kelib chiqadigan majburiyatlarga nisbatan adolatli va xurmatli munosabatda bula olishni ta’minalashga xizmat qiluvchi sharoitlarni yaratish»ni ta’kidlaydilar.

Xalqaro huquqning rivojlanishi xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish tamoyilining universal har akterini tasdiqlamokda. Xalqaro shartnomalar huquqi to‘g‘risidagi Vena konvensiyasiga muvofiq; «amaldagi har bir shartnoma uning ishtirokchilari uchun majburiy va ular tomonidan vijdonan bajarilishi lozim».

Xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish tamoyilining harakat doirasi oxirgi yillarda sezilarli kengaydi. Buni kuyidagi xalqaro-huquqiy hujjatlarning ta’rifidan ham bilsak bo‘ladi: 1970 yilgi Xalqaro huquq tamoyillari to‘g‘risidagi Deklaratsiya va 1975 yilgi YEXXX Yakunlovchi hujjati.

5 mayzu.

XALQARO HUQUQDA HUDUD VA BOSHQA MAYDONLAR

- Xalqapo huquqda hudud tushunchasi va turlari
- Davlat hududining huquqiy maqomi
- Davlat chegarasi tushunchasi va turlari
- Davlat chegaralarini o‘zgartirish
- Xalqaro daryolar
- Hududiy nizo
- Qurolsizlantirilgan va betaraf hududlar
- Antarktikaning xalqaro huquqiy maqomi
- Dengiz maydoni
- Havo bo‘shlig‘i

Xalqapo huquqda hudud tushunchasi va turlari

Xalqaro va milliy huquqda «hudud» iborasi yerdagi boshqa maydonlardan ma’lum yuza (chevara) bilan chegaralangan, yuridik maqom va shunga mos ravishda huquqiy tartibga ega bo‘lgan yerdagi va shuningdek, yerdan tashkaridagi kosmik maydonni belgilash uchun qo’llaniladi.

Yer maydonini kosmik maydondan ajratib turuvchi chegara Yer konfiguratsiyasini takrorlovchi va uning yuzasi (dengiz darajasi) dan bir qadar masofada joylashgan sharsimon yuza hisoblanadi. Ushbu sharsimon yuzaning aniq balandlik darajasi xali belgilangani yo‘q, Biroq, u Yer yo‘ldoshini atmosferada jiddiy tuxtashlarsiz va kuyib ketmasdan harakat qila olishiga imkoniyat beruvchi darajada bo‘lishi lozimligidan kelib chiqiladi. Bu daraja 10 kilometrni tashkil etadi.

Kosmik fazo (borlik)ni shartli ravishda yakin joylashgan, yani Kuyosh tizimini urab turuvchi va unda joylashgan osmon jismlari hamda uning tashkarisidagi kosmik maydonga bo‘lish umkin. Kosmik borlikni tadkik qilish va undan foydalanishga daxldor xalqaro-huquqiy

tartibga solish asosan Kuyosh tizimi makonita tegishli.

Yer maydonining o‘zi, agar uning yuridik maqomi nuqtai nazaridan kelib chiqadigan bo‘lsak, ikkita katta toifaga, ya’ni davlat hududini tashkil etuvchi hamda davlat hududi doirasidan tashkarida bo‘lgan maydonga bo‘linadi.

Bunday maydonlar — davlat hududi va davlatga tegishli bo‘limgan hudud bir-biridan chegaralar bilan ajratiladi. Chegaralar haritalarda, shuningdek, (agar imkoniyati bo‘lsa) joylarda belgilangan chiziqlar va ushbu chiziqlar buylab yer maydonini fazo bilan nazariy jihatdan Yerning markazi yer osti boyliklari tubi, aslida yer ostida kirish mumkin bo‘lgan joygacha o‘tuvchi vertikal yuza hisoblanadi.

Ko‘rsatilgan maydon davlat va davlatga tegishli bo‘limgan hudud doirasidagi quruqlik, suv, yer osti boyliklari va yer yuzasidagi havo maydonini o‘zida birlashtiradi. Ularning huquqiy tartibi va ulardan foydalanish shart-sharoitlari, odatda, alohida belgilanadi hamda xalqaro dengiz va havo huquqlarining tartibga solish predmetini tashkil qiladi.

Demak, xalqaro huquqda hudud tushunchasi ostida yer sharining turli maydonlari tushuniladi. Bular: quruqlik va suv yuzasi, tabiiy zaxiralar va havo bo‘shlig‘i hamda kosmik maydon va fazodagi osmon jismlari.

Xalqaro huquqda barcha hududlar o‘z huquqiy makrmining asosiy turlariga qarab uch guruhga:

- birinchidan, davlat hududlari;
- ikkinchidan, xalqaro rejimga ega bo‘lgan hududlar;
- uchinchidan, aralash rejimdagi hududlarga bo‘linadi.

Davlat hududi deb, ma’lum milliy davlatning suvereniteti ostida bo‘lgan hududlar tushuniladi. Bir tomonidan, ushbu hududning davlatga tegishliligi va ikkinchidan, mazkur hududda ushbu davlatning ustuvorligi — davlat hududining asosiy belgilari hisoblanadi. Harbiy okko‘patsiya holatlarda va hudud xalqaro-huquqiy ijaraga olingan holatlarda bir qator vaqtinchalik chekinishlarga yo‘l qo‘yilishi mumkin.

Xalqaro rejimdagagi hududlar, deganda, davlat hududi chegarasidan tashkarida bo‘lgan, alohida olinganda, xech qaysi bir davlatga tegishli bo‘limgan va xalqaro huquqqa muvofiq; barcha davlatlar tomonidan umumiyo foydalaniladigan maydonlar tushuniladi. Bu tur hududlarga, eng avvalo, ochiq dengiz, uning ustidagi havo maydoni hamda kontinental shelf doirasidan tashkaridagi chukur dengiz tublari kiradi.

Aralash rejimga ega bo‘lgan hududlarga kontinental shelf va iqtisodiy zonalar (mintaka) kiradi. Ushbu hududlar milliy davlatlar suvereniteti ostida bulmaydi va davlat hududi tarkibiga kirmaydi. Biroq, qirg‘oqbo‘yi davlatlari kontinental shelf va iqtisodiy dengiz zonasiga tutashib turuvchi maydonlarda foydali qazilmalarni izlab topish va ularni kazib olish, ushbu hududlarda tabiiy muxitni ximoya qilishga nisbatan suveren huquqlarini saqlab qoladi. Bunday vakolatlar hajmi xalqaro huquq, bilan belgilanadi.

Antarktikada alohida xalqaro-huquqiy tartib o‘rnatalgan. 1959 yilda qabul qilingan Shartnomaga ko‘ra, Antarktika butunlay quroslanzantirilgan va barcha davlatlarning ilmiy tadqiqotlar utkazishlari uchun ochiq hudud deb e’lon qilingan. Antarktikaning xech bir qismi biror davlat suvereniteti ostida emas.

Kosmik fazo yer hududidan tashkarida bo‘lib, uning huquqdy maqomi xalqaro kosmik huquq, tamoyil va normalari bilan belgilanadi. Xususan, 27 yanvar 1967 yilda qabul qilingan Kosmik fazoni, shu jumladan, Oy va boshqa osmon jismlarini tadksh; qilish va ulardan foydalanish bo‘yicha davlatlar faoliyati tamoyillari to‘g‘risidagi shartnomaga asosan belgilangan. U ma’lum davlat tomonidan egallab olinishi mumkin emas va barcha davlatlar uchun tadqiqot olib borish va foydalanish uchun ochiqdir.

Davlat hududining huquqiy maqomi

Davlat hududi — yer maydoni bo‘lib, uning doirasida davlatga hos bo‘lgan hududiy ustuvorlik amalda bo‘ladi. Mazkur maydon doirasida davlat oliy hokimiyatni amalga oshiradi va

uni tasarruf qiladi, ma'muriy asosda (boshqarish maqsadlaridan kelib chiqib) uni tashkil etadi va uning (butun hududda yoki uning qismida) huquqiy tartibni o'rnatadi.

Davlatlar o'rtasida davlat hududi borasidagi o'zaro munosabatlari har bir davlat uchun hos bo'lgan xalqaro huquqda belgilangan, xususan, davlat suverenitetini xurmat qilish, davlatlarning suveren tengligi, ularning xalqaro munosabatlarda mustaqilligi, hududiy yaxlitlik va daxsizlik, har bir davlatning hududiy birligi kabi imperativ normalardan kelib chiqadigan hududiy ustuvorlik bilan ifodalanadi.

Davlat hududining huquqiy tartibini hamda milliy huquqiy tartibotni o'rnatish har bir davlatning ichki vakolatiga tegishlidir.

Hududining huquqiy tartibini davlat o'z ixtiyori bilan belgilaydi, davlat xalqaro huquq yoki shartnoma asosida xalqaro-huquqiy majburiyat olgan holatlar bundan istisno sanaladi.

Ichki davlat huquqi davlat hududi tarkibiga kiruvchi tabiiy muhitni ham inobatga oladi va tabiatdan foydalanish to'g'risidagi (davlatning xalqaro majburiyatlarini ham ifodalovchi) normalarda, uni saqlab qolishning zaruriy shart-sharoitlarini belgilaydi.

Davlat hududi tarkibiga quruqlik va suvlar, yer osti boyliklari bilan birga quruqlik va suvlar ustidagi havo maydoni kiradi. ularning chegarasi davlat chegaralarini belgilaydi.

Davlatning quruqlik hududi uning chegarasi doirasidagi barcha quruqlik maydonlaridir.

Davlatning suv hududini ichki (milliy) suvlar va hududiy dengiz tashkil etadi. 1982 yilda qabul qilingan BMTning Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiyasiga muvofiq ichki suvlarga:

- birinchidan, dengiz suvlar, xususan, hududiy dengiz kengligini o'lchash uchun qabul qilingan davlat-arxipelaglarning qirg'oqdan to'g'ri chiziq bo'yicha joylashgan suvlar;
- ikkinchidan, portlar suvlar;
- uchinchidan, bo'g'ozlar suvlar, agar ularning qirg'oqlari bir davlatga tegishli bo'lsa hamda 24 dengiz milyasidan oshmasa, shuningdek, «tarixiy» bo'g'ozlar kiradi.

Hududiy dengiz deb, qirg'oq, butki dengiz suvlar qismiga aytildi. 1982 yil Konvensiyasiga ko'ra, uning kengligi 12 dengiz milyasidan oshmasligi kerak.

Quruqlik va suv osti boyliklari, ular qanday chuqurlikda joylashganidan qatyi nazar, davlat hududi tarkibiga kiradi.

Davlatning havo hududini uning quruqlik va suv chegaralari doirasida joylashgan havo maydoni tashkil etadi.

Davlat o'z hududi doirasida ustuvorlikni amalga oshiradi. U hududiy ustuvorlik deb nomlanadi va davlat suverenitetining tarkibiy qismini tashkil etadi. Davlat ustuvorligi mazkur davlat hokimiyati uning hududi chegarasidagi barcha shaxslar va tashkilotlarga nisbatan oliy hokimiyat ekanligini anglatadi.

Davlat hududi nafaqat mazkur davlat hokimiyati amalga oshiriladigan makon bo'libgina qolmay, balki uning tarkibiy qismlari bilan birga: quruqlik va suvlar, havo makoni va yer osti boyliklari bilan birga tabiiy muhitdir.

Hech kim davlatni unta tegishli hudud va albatta, tabiiy boyliklardan mahrum qilish huquqiga ega emas.

Davlat hududi, xususan yer, yer osti boyliklari, xorijiy davlatlar, ularning yuridik va jismoniy shaxslari tomonidan ishlab chiqish maqsadlarida hududiy suverenning roziligidiz foydalaniishi mumkin emas.

Xalqaro munosabatlarda o'z davlati nomidan ishtirok etuvchi davlat hokimiyati va boshqaruvining oliy organlari xalqaro munosabatlarda hududni tasarruf qilish vakolatiga egadirlar. Bunday vakolatlar, agar ular mamlakatning konstitutsiyaviy qoidalariga to'g'ri kelsagina qonuniy hisoblanadi. Xalqaro munosabatlarda mazkur vakolatlardan foydalanish qachonki ular xalqaro huquqning asosiy tamoyil va normalariga muvofiq kelsa, qonuniy (huquqiy) hisoblanadi.

Davlat chegarasi tushunchasi va turlari

Davlat chegaralarining asosiy vazifasi davlat hududi doirasini belgilashdan iborat. Davlat

chegarasi — muayyan chiziq va mazkur chiziq orqali o'tgan vertikal tekislikdir.

Davlat hududi quruqlik, suv va havo chegaralari kabi turlardan iborat.

Quruqlikdagi chegaralar qo'shni davlatlar bilan shartnomaga asosida o'rnatiladi. Odatda ushbu chegaralar joyning relyefi (tug'lar, daryolar va boshqa xususiyatlari belgilarni) hisobga olgan holda o'tkaziladi va orfografik chegaralar deb nomlanadi. Ba'zan chegaralar ikkita nuqtani bir-biriga bog'lab, to'g'ri chiziq orqali (geometrik chegaralar), shuningdek, meridian yoki parallellar orqali (astronomik chegaralar) ham o'tkaziladi.

Suv chegaralari daryo, ko'l, dengiz va boshqa suv havzalari orqali o'tadigan chegara turlariga bo'linadi. Daryolarda chegaralar qirg'oqbo'y'i davlatlarining o'zaro kelishuviga asosida o'rnatiladi: kema qatnaydigan daryolarda — talvega buylab (daryoning eng chuqur joyi orqali) yoki bosh farvateri o'rtasidan, kema qatnamaydigan daryolarda — daryo o'rtasidan, ko'llarda va boshqa suv havzalarida davlat chegarasi quruqlikdagi chegaralarni suvgaga chiqish nuqtalarini to'g'ri chiziq orqali bir-biriga bog'lash bilan o'rnatiladi.

Davlatning dengiz chegaralari uning hududiy dengizi tashqi chetlari (chegaralari) yoki chegaradosh yoki qarama-qarshi yotuvchi davlatlarning hududiy dengizlari chegarasini belgilovchi chiziqlar hisoblanadi. Hududiy dengizning tashqi chegaralari qirg'oqbo'y'i davlatining qonun hujjatlari bilan xalqaro huquqning umumtan olingan tamoyil va normalariga muvofiq o'rnatiladi. 1982 yilda qabul qilingan Dengiz huquqi bo'yicha BMT Konvensiyasiga ko'ra har bir davlat o'zining hududiy dengizi kengligini 12 dengiz miliyasiidan oshmagan darajada belgilash huquqiga ega.

Davlat havo maydonining yon va yuqori chegaralari davlat hududining havo chegaralari hisoblanadi. Davlat chegaralarining quruqlik va suv chiziqlari bo'yicha o'tadigan vertikal tekislik havo maydonining yon chegaralarini tashkil etadi.

Hozirgi davrda davlatning quruqlik va dengiz chegaralari shakllangan amaliyotga muvofiq chegaradosh davlatlar o'rtasida tuziladigan shartnomalar asosida o'rnatiladi.

Quruqlik chegaralari (qisman dengiz chegaralari) chiziqlarining o'tkazilishi xalqaro shartnomada bat afsil yoritiladi va ushbu tasvirga mos ravishsa chiziqlar holati xaritaga tushiriladi. Davlat chegaralarini shartnomaga asosida bunday aniqlanish jarayoni delimitatsiya deb nomlanadi. Joylarda quruqlik chegaralari chiziqlarini aniqlash uchun chegaradosh davlatlar qo'shma komissiya tuzadilar. Mazkur komissiya joylarda chegara chiziqlarini maxsus chegara belgilarini (demarkatsiya) o'rnatish orqali belgilaydi.

Davlat chegaralarini o'zgartirish

Davlat hududining chetlari yer maydoni kabi chegaralar bilan belgilanadi. Mazkur chegaralar davlat hududini qo'shni davlatlar hududi yoki uni davlat hududiga tegishli bo'limgan boshqa hududlardan ajratib turadi. Davlatning xalqaro chegaralari deb nomlanadigan bunday chegaralar xalqaro tan olingan va xalqaro belgilangan bo'lishi lozim.

Xalqaro tan olingan davlatlararo chegaralar — o'tkazilishi qo'shni davlatlar bilan kelishilgan chegaralardir. Agar chegaralarning o'tkazilish chiziqlari xalqaro shartnomanining tarkibiy qismi bo'lmish xaritalarda belgilangan, ya'ni delimitatsiya amalga oshirilgan hamda chegaralar demarkatsiyasi, agar imkon joylarda belgilangan, o'tkazilgan va chegara demarkatsiyasi to'g'risidagi bayonlarda tasvirlab berilgan bo'lsa, davlat chegaralari o'rnatilgan sanaladi.

Davlatning xalqaro tan olingan va belgilangan chegaralari uning hududini davlat hududi hisoblanmagan hududdan ham ajratib turadi (odatda bu hududiy dengizning tashqi chegaralari hisoblanadi). Ushbu chegaralar mazkur davlat tomonidan delimitatsiya qilingan va chegara chiziqlarining o'gkaziyaishi boshqa davlatlar tomonidan ochiq yoki indamay tan olingan bo'ladi, chunki bu belgilangan xalqaro-huquqiy talablarga javob beradi.

Qachonki davlatlar o'rtasidagi chegara daryo chegarasi bo'lsa va unda kema qatnovi amalga oshirilsa, chegara chiziqlari talvega bo'yicha o'tkaziladi. Yuqorida aytilganidek, daryoning eng chuqur qismidan yoki bosh farvaterring o'rtasidan, aks xolda daryoning

o‘rtasidan belgilanadi. Umuman olganda qo‘shni davlatlarning o‘zaro kelishuviga muvofiq boshqacha tartibda ham bo‘lishi mumkin.

Daryo chegaralarining huquqiy tartibi ham manfaatdor davlatlar tomonidan o‘zaro kelishuv asosida belgilanishi mumkin.

Hozirgi zamon xalqaro huquqiga muvofiq chegaralarni ikki asosga ko‘ra:

- birinchidan, xalqlar va millatlar tomonidan o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqini amalga oshirishlari natijasida (bu holatda davlatlarning bo‘linishi yoki qo‘shilishi yuz beradi va tabiiyki, uning oqibatida yangi davlat chegaralarini o‘rnatish yoki bekor qilishga zaruriyat tug‘iladi);

- ikkinchidan, chegaradosh davlatlar o‘rtasida uncha katta bo‘lmagan hududlarni almashishlari natijasida o‘zgartirish mumkin.

Xalqaro daryolar

Ikki yoki bir necha davlatlar hududini kesib o‘tadigan yoki ajratib turadigan daryolar xalqaro daryolar toifasiga kiradi. Ba’zan ularni ham bevosita xalqaro daryolar, ya’ni dengizga chiqish yo‘li mavjud bo‘lgan, undan foydalanishda esa barcha davlatlar yoki qirg‘oqbo‘yi davlatlaridan tashqari bu toifaga kirmaydigan davlatlar ham manfaatdor bo‘lgan va ko‘pmillatli daryolar, foydalanishda faqat qirg‘oqbo‘yi davlatlari manfaatdor bo‘lgan daryolar kabi turlarga bo‘lish maqsadga muvofiqli.

Odatda, xalqaro daryoga nisbatan qirg‘oqbo‘yi davlati (ba’zan kengroq ahamiyatga ega bo‘lgan «xalqaro ochiq suv oqimlari iborasi ishlataladi») o‘z ixtiyori bilan mazkur daryoning uning hududi doirasidagi qismi huquqiy tartibini belgilaydi. Shu bilan birga xalqaro huquqqa muvofiq davlat o‘z hududining tabiiy shart-sharoitlarini, agar bu o‘zga davlat hududi tabiiy shart-sharoitlariga zarar keltiradigan bo‘lsa o‘zgartirishi mumkin emas. Shuning uchun, xalqaro daryo qismining uning hududidan oqib o‘tuvchi suvdan foydalanuvchi qirg‘oqbo‘yi davlati boshqa mazkur daryo suvdan foydalanuvchi davlatga zarar yetkazishi yoki daryoning unga taalluqli qismidan tegishli tarzda foydalanishiga to‘sinqlik qilishi mumkin emas. Boshqacha aytganda, mazkur holatda qirg‘oqbo‘yi davlatlarining huquq va majburiyatları o‘zaro bog‘liq va bu o‘z navbatida xalqaro daryolar suvdan foydalanishni xalqaro-huquqiy tartibga solish zaruriyatini tug‘diradi.

Biroq bu sohada umumiy xalqaro huquq darajasida hatto namunaviy kelishuvni ham ishlab chiqishning imkoniyati yo‘q, chunki, birinchidan, ko‘pgina (orol va arxipelag) davlatlar hududida xalqaro daryolar umuman mavjud emas; ikkinchidan, har bir shu kabi daryoning hisobga olinishi lozim bo‘lgan shart-sharoiti shu qadar turli-tumanki, ularni oqilona umumlashtirishning iloji yo‘q.

Xalqaro daryolardan foydalanishni xalqaro-huquqiy tartibga solish qirg‘oqbo‘yi davlatlari tomonidan tuziladigan shartnoma asosida amalga oshiriladi. Bu kabi shartnomalarda, agar qirg‘oqbo‘yi davlatlari tomonidan maqsadga muvofiq deb topilsa, qirg‘oqbo‘yida joylashmagan davlatlarning ham qonuniy manfaatlari hisobga olinishi mumkin.

Xalqaro daryo tushunchasi uni tashkil etuvchi suvlarga nisbatan mohiyatan aniqlik kiritilishini talab qiladi.

- Birinchidan, daryoning boshidan yoki uni boshqa nuqtasidan daryo qo‘yilishi joyigacha;
- ikkinchidan, o‘zida daryoning barcha irmoqlarini birlashtiruvchi daryo havzasini ko‘rib chiqish;
- uchinchidan, daryo tizimidan kelib chiqib, uni oziqlantiruvchi suv osti va suv usti suvlarini inobatga olish mumkin.

Daryo yuqorisi va quyida joylashgan davlatlar manfaatlari ham bir-biridan jiddiy farq qiladi. Ta’kidlab o‘tilgan va boshqa ko‘pgina omillar natijasida xalqaro daryolardan foydalanishni huquqiy tartibga solishga erishish — ko‘p sa’y-harakatni talab qiluvchi, manfaatdor davlatlar o‘rtasida qator nizolarni keltirib chiqaruvchi faoliyat hisoblanadi.

Hududiy nizo

Hududiy nizo davlat hududining u yoki bu qismini yuridik taalluqliligin belgilovchi xalqaro huquq (shartnomalar yoki odat) normalarining mavjudligi yoki harakatiga nisbatan tomonlarning turli (bir-biridan farq qiluvchi) nuqtai nazarlarining mavjudligidan kelib chiqadi. Bu holatda shu narsani ta'kidlash lozimki, hududiy nizoni tan olish hali yuridik taalluqliligi tugal belgilanmagan ma'lum hududning mavjud ekanligini tan olish bilan barobardir.

Qurolsizlantirilgan va betaraf (neytral) hududlar

Qurolsizlantirilgan hudud — davlat hududining shunday hududiki, mazkur davlat ushbu hududda mudofaa inshootlari va istehkomlarni ko'rish, qurollarning ma'lum turlarini joylashtirish hamda qurolli kuchlarni qisqartirish yoki ega bo'lmaslik (xalqaro) majburiyatini oladi. Bunday hududlar xalqaro bitimlar (shartnomalar) asosida manfaatdor davlatlar tomonidan o'zaro xavfsizlikni mustahkamlash maqsadida yaratiladi.

To'liq qurolsizlantirilgan hududning elementlari: mavjud mudofaa inshootlarini tugatish va yangi ko'rilyotganlarini taqiqlash, ushbu hududlarda politsiya kuchlaridan boshqa qurolli kuchlarni saqlab turishni taqiqlash. Shuningdek, qurolsizlantirilgan hududda harbiy materiallarning ishlab chiqarilishi va olib kirilishi, harbiy samolyotlarning uchib o'tishi ham taqiqlanishi mumkin. Umuman ushbu yunalishda amalga oshiriladigan barcha harakatlar davlat hududining mazkur qismini harbiy maqsadlarda foydalanishining oldini olishga qaratilgan.

Qisman qurolsizlantirish odatda yangi harbiy inshootlarni ko'rishni taqiqlash, ushbu hududda joylashgan qurolli kuchlar sonini va qurollar turlari va qudratini cheklashga qaratilgandir. Ma'lum hududni betaraf deb e'lon qilish deganda davlat hududining mazkur qismida harbiy harakatlarni amalga oshirish yoki undan harbiy harakatlar uchun tayanch sifatida foydalanish ta'qilanganadi. Davlat hududining ma'lum qismini betaraf qilib qo'yish davlatning harbiy harakatlar boshlanganda betaraf bo'lib qolishini anglatmaydi. Biroq, harbiy harakatlar teatridan betaraf qilingan hudud istisno bo'lishi lozim.

Bir vaqtning o'zida ma'lum hududni betaraf qilib belgilash va qurolsizlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro munosabatlar amaliyotida qurolsizlantirilgan va betaraf qilib belgilangan hududlar asosan chegara hududlari, xalqaro kanal va bo'g'ozlar, orollar, shuningdek, alohida olingan shaharlardan iborat bo'ladi.

Antarktikaning xalqaro-huquqiy maqomi

Antarktikaning qalin muz bilan qoplangan ushbu qit'aning unga tutashib turuvchi suv va orollarning alohida xalqaro-huquqiy maqomi XX asr boshida bir qator davlatlar tomonidan u yoki bu asoslarda ushbu hududning alohida tumanlariga nisbatan o'z suverenitetini e'lon qilishlari va buning natijasida davlatlar o'rtasida nizolar va qurolli to'qnashuvlar kelib chiqishi bilan bog'liq.

Bunday holatning istiqboli yo'qligi va insoniyatning umumiy manfaatlari yo'lida Antarktikani o'rganish va undan foydalanishga qaratilgan xalqaro hamkorlikning jadal rivojlanishi uning alohida xalqaro-huquqiy maqomini va hududi tartibini belgilashni talab qildi. 1959 yilda Antarktika bo'yicha xalqaro konferensiya chaqirildi. Ushbu konferensiya Antarktika to'g'risidagi Shartnomani ishlab chiqdi. Dastlab mazkur shartnomaga qatnashchilar 12 ta davlatdan iborat edi. Bugun uning qatnashchilarini soni 40 dan ortiqdir. Ushbu Shartnomaga asosida keyinchalik Antarktika huquqiy holatini tartibga soluvchi, xususan, Antarktika zahiralaridan foydalanish borasida shartnomalar tuzildi.

1959 yilda qabul qilingan shartnomasi ikki asosiy holatdan kelib chiqadi:

- birinchidan, u qandaydir davlatning Antarktika hududining biror qismiga nisbatan

suverenitetini tan olmaydi va shu bilan birga mavjud hududiy da'volarni inkor ham etmaydi (mazkur shartnomaga bunday da'volarni «to'xtatib qo'ygan»);

- ikkinchidan, shartnomaga davlatlar xalqaro hamjamiyati maslagididan kelib chiqib, Antarktika faqat tinch maqsadlarda foydalanishi lozimligini belgilaydi.

Shunga muvofiq Antarktikaning to'liq qurollsizlantirilganligi va betarafligi begilangan.

Antarktikada ilmiy va o'zga tadqiqotlar olib borayotgan stansiya va ekspeditsiya a'zolari uni jo'natgan davlat yurisdiksiyasi ostida bo'ladi, stansiya va ekspeditsiyalar o'rtasida ular xodimlari almashtirilganda ham bu holat saqlanib qoladi.

Dengiz maydoni

Hozirgi zamonda dengiz huquqi ma'lum xalqaro-huquqiy me'yorlar mustaqil tizimi sifatida 1982 yilda qabul qilingan Dengiz huquqi bo'yicha BMT konvensiyasida kodifikatsiya qilingan. Unda barcha dengiz maydonlari, shu jumladan, dengiz va okeanlar tub iva tabiiy boyliklari, ularning ustidagi havo bo'shlig'i huquqiy maqomi va huquqiy tartibi belgilab berilgan. Ushbu universal kodifikatsiya qilingan Konvensiya matni, ishtirokchi-davlatlar tomonidan konsensus asosida Dengiz huquqi bo'yicha III Konferensiyada ishlab chiqilgan bo'lib, dengiz maydonlaridan tinch maqsadlarda va insoniyat farovonligi uchun foydalanish va uni tadqiq qilishni tartibga soluvchi keng ko'lamdag'i xalqaro-huquqiy normalarni kodifikatsiya qilish va ijobjiy (progressiv) rivojlantirishning yorqin misolidir. Konvensiya ikki turdag'i, ya'ni:

- birinchidan, qirg'oqbo'yi davlatlari hududi tarkibiy qismini tashkil etuvchi hamda;
- ikkinchidan, davlatlar yurisdiksiyasi doirasidan tashqarida joylashgan dengiz maydonlari huquqiy maqomi va huquqiy tartibini belgilaydi.

Ma'lum bir davlat suvereniteti ostida bo'limgan bu kabi maydonlar xalqaro maydonlar yoki umumiy foydalanish maydonlari hisoblanadi.

Ularning huquqiy tartibi davlatlar va ba'zi tegishli vakolatga ega bo'lgan xalqaro tashkilotlar (xususan, Yevropa Ittifoqi) tomonidan kelishilgan bo'lib, Konvensiya qoidalari o'z ifodasini topgan bo'ladi. Umuman olganda bu kabi tartib xalqaro dengiz maydonidan foydalanuvchi barcha davlatlar uchun o'rnatilgan. Biroq xalqaro dengiz maydonlarining ba'zi qismlari huquqiy tartibini o'rnatishda qirg'oqbo'yi davlatlari va ushbu davlatlarning alohida manfaatlari hisobga olinadi. Shundan kelib chiqib bu turdag'i maydonlar uchun alohida huquqiy tartib belgilanadi.

Xalqaro dengiz maydoni tarkibida:

- (hududiy dengizga) tutashib turuvchi zona;
- alohida iqtisodiy zona;
- kontinental shelf kabi qismlar mavjud. Ushbu iboralar moxiyati va ularning huquqiy tartibi Konvensiyada aniqlab berilgan.

Dengiz huquqiga taalluqli boshqa muhim tushunchalarga «ochiq dengiz» tushunchasi kiradi. Ochiq dengiz huquqiy tartibini tashkil etuvchi eng muhim qismlardan biri «ochiq dengiz erkinligi» ibora-tushunchasi bilan ifodalanuvchi tartib hisoblanadi.

Dengiz va okeanlarni tinch maqsadlarda, shu jumladan, o'rganish, himoya qilish va dengiz muhitini saqlash maqsadlarida foydalanishni tartibga solishning eng muhim xalqaro-huquqiy asoslari shulardan iborat.

Havo bo'shlig'i

Havo yer bo'shlig'i xalqaro huquqqa muvofiq ikki turdag'i maydonni, ya'ni:

- birinchidan, davlat hududining tarkibiy qismi hisoblangan maydonlarni;
- ikkinchidan, davlat hududi chegarasidan tashqarida joylashgan maydonlarni o'z ichiga oladi.

Birinchi turga kiruvchi havo maydoni yuridik maqomi — ma'lum davlat suvereniteti (mutlaq yurisdiksiyasi) ostidagi maydon hisoblanadi. Davlat mazkur maydon huquqiy tartibini xalqaro-huquqiy normalardan kelib chiquvchi xalqaro majburiyatlarni inobatga olgan holda belgilaydi.

Davlat hududi chegaralari tashqarisidagi havo maydoni, boshqacha aytganda, xalqaro havo maydoni — yuridik maqomi ma'lum davlatning suvereniteti (mutlaq yurisdiksiyasi) ostida bo'lmasisligi jihatni bilan xarakterlanadi. Shunga muvofiq, bu maydon barcha davlatlar va ularning fuqarolari uchun tadqiqotlar olib borish va tinch yo'llarda foydalanish uchun ochiqdir.

6 mavzu.

XALQARO HUQUQDA AHOLI

- Xalqaro huquqda aholi tushunchasi.
- Xalqaro huquqda fuqarolik.
- Fuqarolikka ega bo'lish va uni yo'qotish usullari.
- Ikki fuqarolik va fuqarosizlik.
- Xalqaro huquqda qochoqlar.
- Xalqaro huquqda ko'chirilgan shaxslar.
- Chet el fuqarolarining huquqiy maqomi.
- Davlatga kirish va undan chiqib ketish tartibi.
- Siyosiy boshpana tushunchasi va uni berilishi oqibatlari.

Xalqaro huquqda aholi tushunchasi

«Aholi» atamasi xalqaro huquqda u yoki bu muayyan davlat hududida o'sha vaqtida yashab turgan shaxslar majmui tushuniladi. Har qanday davlatning aholisi quyidagi uch kategoriyanadan:

- birinchidan, ushbu davlat fuqarolaridan;
- ikkinchidan, chet elliqlardan;
- uchinchidan, fuqaroligi bo'lmagan shaxslardan tashkil topadi.

Bundan tashqari ayrim o'rta kategoriylar (masalan, ikki fuqarolikka ega bo'lgan shaxslar) ham mavjud.

Aholiga bevosita va bilvosita taallukli bo'lgan, xususan, fuqarolik, jinoyatchini ushlab berish, inson huquqlari, chet elliq fuqarolarning rejimi masalalari bo'yicha qator xalqaro huquq normalari, shartnomaviy va odat normalari mavjud.

Xalqaro huquqda fuqarolik

Fuqarolik — jismoniy shaxsni davlat bilan, ularni o'zaro huquq va majburiyatlari majmuida aks ettiriladigan barqaror huquqiy aloqalaridir.

Fuqarolik masalalari asosan davlatning ichki qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

Fuqarolik — davlatchilik bilan uzviy bog'liq bo'lgan tushuncha. Fuqarolik to'g'risidagi qonunning yo'qligi fuqarolikning o'zi yo'qligini anglatmaydi. Binobarin, har bir davlat bu borada mustaqil ish ko'radi, shu bois turli davlatlarning fuqarolik to'g'risidagi qonunlarining to'qnashushi (kolliziysi) muqarrardir.

Bunday kolliziyalarni bartaraf qilish yoki oldini olish uchun davlatlar ko'proq xalqaro shartnomalar tuzadi, ya'ni xalqaro huquqning tegishli normalarini ishlab chiqadi.

Fuqarolikka ega bo‘lish va uni yo‘qotish usullari.

Fuqarolikka ega bo‘lish yo‘li ikki katta guruhga bo‘linadi: birinchi guruh — umumiyl tartibda fuqarolikka ega bo‘lish usulini qamrab oladi; ikkinchisi — istisno tariqasida fuqarolikka ega bo‘lishdir.

Umumiyl tartibda fuqarolikka ega bo‘lish usuli milliy davlatlar qonunchiligi uchun ozmi-ko‘pmi odatiy va barqaror qoida hisoblanadi. Ularga fuqarolikka ega bo‘lishning quyidagi usullari kiradi:

- birinchidan, tug‘ilish natijasida;
- ikkinchidan, naturalizatsiya (fuqarolikni qabul qilish) natijasida;
- uchinchidan, in’om etish natijasida.

Fuqarolikka istisno tariqasida:

- birinchidan, guruh bo‘lib fuqarolikka ega bo‘lish yoki jamoa bilan naturalizatsiya;
- ikkinchidan, optatsiya yoki fuqarolikni tanlash;
- uchinchidan, reintegratsiya yoki fuqarolikni tiklash yo‘li bilan ega bo‘lish mumkin.

Tug‘ilishdan fuqarolikka ega bo‘lish — fuqarolikka ega bo‘lishning eng oddiy tartibidir. Davlatlarning milliy qonunchiligi ushbu masala bo‘yicha ikki tamoyildan: qon huquqi (jus sanguinis) yoki tuproq huquqi (jus soli) dan biriga asoslanadi. Yuridik adabiyotlarda qon huquqi asosida fuqarolikka ega bo‘lishning kelib chiqishi asosida fuqarolikka ega bo‘lish deb ham yuritiladi. Qon huquqi shaxs tug‘ilgan joyidan qat‘i nazar, ota-onasining fuqaroligiga ega bo‘lishini bildiradi; tuproq huquqida — shaxs ota-onasining fuqaroligidan qatyi nazar, qaysi davlat hududida tug‘ilgan bo‘lsa, o‘sha davlat fuqaroligiga ega bo‘ladi. Ko‘p davlatlar qon huquqiga rioya qiladilar. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi ham asosan qon huquqiga asoslanadi.

Naturalizatsiya (ildiz otish) — manfaatdor shaxsning iltimosiga ko‘ra yakka tartibda fuqarolikka qabul qilishdir. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi bunday atama qo‘llanilmagan, lekin bu tushuncha xalqaro huquq nazariyasida umum e’tirof etilgan.

Naturalizatsiya — ixtiyoriy aktdir. Majburiy tarzda naturalizatsiya qilish xalqaro huquqqa xilof bo‘lib, uni amalga oshirishga qarshi doimo norozilik notasi e’lon qilinadi.

In’om etish natijasida olingan fuqarolik naturalizatsiyadan farqli o‘laroq doimo vakolatlidavlat hokimiyatining tashabbusi bilan davlat oldidagi alohida xizmatlari uchun beriladi.

Optatsiya (fuqarolikni tanlash) har doim ham fuqarolikka ega bo‘lish yo‘li sifatida ko‘rilmaydi. Masalan, ikki fuqarolik to‘g‘risidagi konvensiyalarda optatsiya imkoniyatlari ko‘zda tutiladi. Agar biron-bir milliy davlatning fuqarosi bir vaqtning o‘zida xorijiy davlat fuqaroligiga ham ega bo‘lsa, unga ikkisidan birini optatsiya qilish, shu bilan ikkinchisidan voz kechish huquqi beriladi. Bu holatda fuqarolikka ega bo‘linmaydi, chunki optatsiyada fuqarolikning biridan mahrum qilishga olib keladi.

Istisno tariqasida fuqarolikka ega bo‘lish usulidan biri — reintegratsiya yoki fuqarolikni tiklashdir.

Ayrim mamlakatlarda fuqarolikni tiklash masalalari fuqarolik to‘g‘risidagi maxsus qonunda emas, balki umumiyl qonunchilikda ko‘zda tutilgan. Bu holatda fuqarolikka tiklash fuqarolikka ega bo‘lishning mustaqil usuli sifatida xizmat qilmaydi, balki soddalashtirilgan naturalizatsiya hisoblanadi.

Fuqarolikni yo‘qotishga kelsak uning uch shakli:

- birinchidan, fuqarolikni avtomatik ravishda yo‘qotish;
- ikkinchidan, fuqarolikdan chiqish;
- uchinchidan, fuqarolikdan mahrum qilishni ko‘rsatish mumkin.

Fuqarolikni avtomatik ravishda yo‘qotish faqat xalqaro bitimlarda va maxsus qonunlarda uchraydi.

Fuqarolikdan chiqish — manfaatdor shaxsning iltimosiga ko‘ra chiqariladigan davlatning

vakolatli organlari qarori asosida fuqarolikni yo‘qotishdir.

Fuqarolikdan mahrum qilish o‘z ichiga jazolash elementini oladi va davlat organlari tashabbusi bilan ushbu davlatga dushmanlik faoliyatiga aralashgan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi.

Ikki fuqarolik va fuqarosizlik

Bir shaxsda ikki yoki undan ortiq davlat fuqaroligiga ega bo‘lish imkoniyati mavjud. «Ikki fuqarolik» atamasi ko‘p fuqarolik (uch fuqarolik va hokazo)ni ham qamrab oladi. Ikki fuqarolik turli davlatlarning fuqarolik to‘g‘risidagi qonunlar kolliziysi oqibatida, masalan, tuproq va qon huquqiga asoslangan qonunlarda vujudga keladi.

O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik to‘g‘risidagi qonuniga muvofiq, O‘zbekiston fuqarosi boshqa davlat fuqaroligiga ega bo‘lishi mumkin emas.

Ikki fuqarolik muayyan salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Ularning ichida quyidagilarni alohida ko‘rsatib o‘tish mumkin:

- birinchidan, ikki fuqarolikka ega bo‘lgan shaxslarga diplomatik himoya ko‘rsatish bilan bog‘liq oqibatlar;
- ikkinchidan, ikki fuqarolikka ega bo‘lgan shaxslarning harbiy xizmatni o‘tashi bilan bog‘liq bo‘lgan oqibatlar.

Ikki fuqarolik masalalariga bag‘ishlangan xalqaro shartnomalarning ikki turi mavjud.

Bulardan birinchisi — ikki fuqarolik oqibatlarini bartaraf qilishga qaratilgan shartnomalar (Diplomatik himoya ko‘rsatish yoki harbiy xizmat bilan bog‘liq);

ikkinchisi — ikki fuqarolik to‘g‘risidagi shartnomalar — ikki fuqarolikni yo‘q qilishga qaratilgan shartnomalardir.

Fuqarosizlik — shaxsning biron-bir milliy davlatning fuqaroligiga mansub emasligidir. Fuqarosizlik mutlaq va nisbiy bo‘lishi mumkin.

Fuqarosiz shaxslar (apatriidlar) huquqsiz bo‘lmasligi kerak. Umuman ularning huquqiy maqomi ular yashayotgan davlatning ichki qonunlari bilan belgilanadi. O‘zbekistonda fuqarosiz shaxslarning maqomi chet ellik fuqarolarning maqomiga tenglashtirilgan. Bunda faqat bir istisno mavjud, ya’ni ularga chet el diplomatik vakolatxonalar yordam ko‘rsatishga haqli emas. Ular chet el fuqarolari kabi harbiy majburiyatga va saylov huquqlariga ega emaslar. Fuqarosiz shaxslarga ham chet el fuqarolari singari ayrim kasbiy cheklashlar qo‘llaniladi.

O‘zbekiston ichki chora-tadbirlar bilan cheklanib, fuqarosiz shaxslarga taallukli biron-bir xalqaro shartnomada qatnashgani yo‘q. Masalan, O‘zbekistonning fuqarolik to‘g‘risidagi qonuniga muvofiq, O‘zbekiston hududida tug‘ilgan fuqarosiz shaxsning farzandi O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi.

Ichki qonunlarda qanday hujjatlar va omillar shaxsning u yoki bu davlat fuqarosi ekanligining isboti bo‘lib xizmat qilishini belgilaydi. O‘zbekistan Respublikasining Fuqarolik to‘g‘risidagi qonuniga muvofiq fuqarolikni tasdiqlovchi hujjat avvalo pasport, pasport olgunga qadar tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma hisoblanadi. Ko‘p xorijiy mamlakatlarda sudda fuqarolikni aniqlash protsedurasi mavjud.

Xalqaro huquqda qochoqlar

Qochoqlar — ta’qib ostida, harbiy harakatlar yoki boshqa favqulodda holatlar natijasida doimiy yashab turgan mamlakatini tashlab chiqqan shaxslardir.

Qochoqlar muammosi qator xalqaro shartnomalar bilan tartibga solinadi. BMT doirasida qochoqlar muammosini yechishga yordam berish uchun Qochoqlar ishi bo‘yicha Bosh Komissariat Boshqarmasi (KBKB) tashkil qilingan. 1951 yil 28 iyulda esa ko‘p tomonlama Qochoqlar maqomi to‘g‘risida Konvensiya qabul qilingan.

1966 yili Bosh Assambleya konvensiyaga ba’zi o‘zgartirishlar kiritishni nazarda tutadigan qochoqlar maqomiga taalluqli Protokolni ma’lumot uchun qabul qildi. «Qochoqlar»

atamasi tabiiy ofat oqibatida o‘z mamlakatini tashlab chiqqanlarga nisbatan qo‘llanmaydi.

Konvensiya va KBKB Ustavi «qochoq.» shaxslar tushunchasiga dini, fuqaroligi, muayyan guruhlarga kirishi yoki siyosiy qarashi oqibatida ta’qib qilinishiga to‘la asosli xavf ostidagi avval fuqarosi bo‘lgan mamlakatdan tashqarida yashovchi va mazkur mamlakat hukumati himoyasidan foydalana olmaydigan yohud bundan himoyadan foydalanishni istamaydigan shaxslarni kiritadi. Ular ko‘pincha de facto fuqaroligi yo‘q shaxslar deb ataladi, chunki ularning siyosiy maqomi fuqaroligi yo‘q shaxslarning siyosiy maqomidan hech narsa bilan farq qilmaydi.

Siyosiy qochoqlar kategoriyasiga tegishli bo‘lish siyosiy boshpana olishga da‘vogarlik qilishga asos sifatida qaralishi mumkin. Biroq, ushbu masalaning pirovard natijasi qochoqlar turgan davlatning qonunchiligi va siyosatiga bog‘liqdir.

Qochoqlar muammosini turli omillar ta’siri (qochoqlarning ijtimoiy va milliy tarkibi, ularni o‘z yurtini tashlab chiqishga majbur qilgan sabablar va boshqalar) ostida yagona tartib bilan hal qilish mumkin emas. BMTning ba’zi organlarida aholining ommaviy ketishi yoki kelishi (mass exodus) to‘g‘risidagi masalani inson huquqlarini poymol qilish bilan bog‘lab bir necha marotaba ko‘tarib chiqilgan. «Ommaviy ketish (kelish)» tushunchasi qochoqlar muammosini va aholining iqtisodiy migrasiya muammosini sezilarli darajada birlashtiradi.

Xalqaro huquqda ko‘chirilgan shaxslar

Ko‘chirilgan shaxslar — ikkinchi jahon urushi davrida gitlerchilar tomonidan bosib olingan hududlardan majburiy tarzda ko‘chirib ketilgan shaxslardir.

Sobiq Sovet Ittifoqi qator davlatlar bilan sovet fuqarolaridan iborat ko‘chirib ketilgan shaxslarni repatriatsiya qilish to‘g‘risida bitim tuzgan. 1951 yildagi Qochoqlar maqomi to‘g‘risidagi Konvensiyada «ko‘chirilgan shaxslar» atamasi uchramaydi.

So‘nggi yillarda KBKB amaliyotida ayrim «ichki» qochoqlar kategoriyasiga, ya’ni o‘z mamlakatining biron-bir qismidan ixtiyoriga qarshi tashlab ketib boshqa bir qismida yashayotgan shaxslarga nisbatan qo‘llash tendensiyasi ko‘zga tashlanadi. Ba’zan ularni «majburiy ko‘chirilganlar» deb ataladi.

Chet el fuqarolarining huquqiy maqomi

Chet elliklarning ikki tushunchasi mavjud.

Ulardan biri umumiylaz nazariy ahamiyatga ega. Chet ellik — har qanday davlat hududida turgan, ushbu davlat fuqaroligiga ega bo‘lmagan va boshqa davlat fuqaroligiga mansub bo‘lgan shaxs.

Ikkinchi tushuncha odatda ichki davlat huquqida uchraydi. Bu muayyan amaliy va ichki ahamiyat kasb etadi, chunki u yoki bu davlatda qanday shaxslar chet ellik deb hisoblanishini belgilaydi.

Ikkinchi turdag‘i tushunchaning ta’rifi quyidagicha: chet el fuqarosi sifatida kelgan davlatining fuqarosi bo‘lmagan, boshqa davlat fuqaroligiga mansubligi to‘g‘risida isbotga ega bo‘lgan shaxslar chet el fuqarolari deb tan olinadi.

«Chet ellik» atamasi o‘rniga «chet el fuqarosi» atamasining qo‘llanishi to‘g‘riroqdir, chunki ko‘pgina davlatlarning qonunchiligidagi «chet ellik» atamasi kengrok ma’noda qo‘llaniladi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni ham qamrab oladi.

Chet ellik fuqaroligiga ega bo‘lgan davlatning diplomatik himoyasidan foydalanishga haqli.

Garchi chet ellik boshqa davlat hududida qonunga zid ravishda kelgan bo‘lsa, unda mazkur davlat ushbu chet el fuqarosini g‘ayriqonuniy ravishda davlat hududiga kirgani uchun javobgarlikka tortishi va hududidan majburan chiqarib yuborishi mumkin.

Milliy rejim chet elliklarni u yoki bu sohada o‘z fuqarolari bilan tenglashtirilishini anglatadi.

Chet elliklarning quyidagi rejimlari mavjud:

- birinchi rejim: birmuncha yaxshiroq rejim bo‘lib, ushbu davlat hududidagi eng maqbul huquqiy holatda bo‘lgan har qanday uchinchi davlat fuqarosi uchun nazarda tutilgani singari chet elliklarga biron-bir sohada shunday huquqlar berish va majburiyatlar o‘rnatishni bildiradi.
- ikkinchisi: maxsus rejim bo‘lib, u chet elliklarga biron-bir sohada shunday huquqlar berish va majburiyatlar o‘rnatishni bildiradiki, bunda o‘z fuqarolari uchun belgilangan tartibdan birmuncha farq qiladi (masalan, chegara oldi tumanlarida yashovchi fuqarolar uchun chegaradan o‘tishning soddalashtirilgan tartibini o‘rnatish).

Maxsus rejim salbiy xarakterda, ya’ni faqat chet elliklar uchun belgilangan huquqiy cheklashlar majmuidan iborat bo‘lishi ham mumkin.

Chet elliklarning huquqiy holati odatda chet elliklarning ushbu davlat hududidagi huquq va majburiyatlarining majmuini bildiradi.

Xalqaro huquq nuqtai nazaridan chet ellik fuqaro holatining murakkabligi shundaki, u qandaydir ikki tomonlama — hududiy jihatdan qaysi davlatda turgan bo‘lsa, o‘sha davlatning huquqiy tartibot qoidalariga bo‘ysunadi va bir vaqtning o‘zida shaxsiy jihatdan fuqaroligiga mansub bo‘lgan davlatning qonunlariga bo‘ysunadi. Bu borada, agar o‘z davlati qonunchiligi bilan hududida turgan davlatning qonunchiligidagi qandaydir ziddiyatlar bo‘lsa, ma’lum qiyinchiliklar vujudga kelishi ham mumkin. Bunday holatda ko‘rsatib o‘tilgan asoslarning raqobati yuzaga keladi.

Chet ellik (o‘z davlatining qonunlarida nazarda tutilgan) huquqlaridan foydalanishi va majburiyatlarini bajarishi mumkin, faqat hududida turgan davlatning suverenitetiga, uning xavfsizligiga zid kelmaydigan darajada yo‘l qo‘yilishi mumkin. Boshqa tomonidan davlat chet elliklar rejimini o‘rnatishda xalqaro huquqning umume’tirof etilgan tamoyillari va me’yorlarini buzmasligi lozim.

Xalqaro huquqning chet elliklar rejimiga qiladigan ta’sirining eng muhim jihatlari:

- birinchidan, chet elliklarning siyosiy huquqlarida;
- ikkinchidan, chet elliklarning harbiy xizmatida;
- uchinchidan, chet elliklarning kelishi va ketishini tartibga solishda
- to‘rtinchidan, chet elliklarga nisbatan davlatning jinoiy yurisdiksiyasining chegarasini belgilashda;
- beshinchidan, diplomatik himoyada ko‘rinadi.

Ba’zan chet elliklar boshqa davlat hududida qanday darajada siyosiy huquqlardan foydalanishi mumkin, degan savol tug‘iladi. Bu o‘rinda so‘z avvalo saylov huquqi xususida boradi: odatda chet elliklar bunday huquqlardan foydalana olmaydilar.

Boshqa siyosiy huquqlarga kelsak, uning darajasi o‘sha davlatning qonunlari bilan belgilanadi.

Chet elliklar harbiy majburiyatga ega bo‘lmaydilar, aks holda bu xalqaro huquqning buzilishiga olib keladi. Bunda chet ellik o‘z ixtiyoriga xilof ravishda o‘z yurtiga qarshi quroq ko‘tarishi mumkin bo‘lgan vaziyatga tushib qolishi mumkinligidan kelib chiqiladi. Bundan tashqari ayrim toifadagi chet elliklarni majburiy harbiy xizmatga jalb qilish manfaatdor davlatlarning e’tirozini bildirmaydigan holatlar ham uchrab turadi.

Chet el armiyasida o‘z ixtiyori bilan xizmat qilish xalqaro huquqqa xilof emas. To‘g‘ri, ayrim paytlarda chet el armiyasida xizmat qilgan fuqarolar o‘z davlati tomonidan javobgarlikka tortilishi mumkin.

Davlatga kirish va undan chiqib ketish tartibi

Hozirgi davrda deyarli barcha davlatlarda o‘z fuqarolari va chet elliklarga ham kirish va chiqishning ruxsat etilgan tartibi mavjud. U ba’zan birmuncha xalqaro huquqqa muvofiq ravishda soddalashtirilgan.

Davlat hududiga kirish va chiqishga ruxsat etish tartibi, davlatga kirish va chiqish vaqtida davlat o‘z fuqarosi hamda chet el fuqarosini bu borada cheklashi mumkinligini ham nazarda tutadi. Xalqaro-huquqiy sohada davlatning o‘z fuqarosi bilan chet el fuqarosini davlat hududiga kirish va chiqish tartibida jiddiy farqlar mavjud. Bunday qoidalar ichki davlat huquqida har doim ham o‘z ifodasini topmaydi, davlatlarning tashqi aloqalari borasida mazkur qoidalar xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan tamoyillari bilan belgilanadi.

Yuqoridagi qoidadan farqli o‘laroq agar chet el fuqarosi boshqa davlat hududidan chiqib ketishni istab murojaat qilsa, tegishli davlat organlari muntazam ravishda unga rad javobini berish mumkin emas. Agar mazkur shaxsning ishi sudda ko‘rilayotgan yoki tergov olib borilayotgan yoxud chet ellik fuqaroligiga mansub bo‘lgan davlat bilan ushbu davlat urush holatida bo‘lsa, chet el fuqarosiga davlat hududidan chiqib ketishiga rad javobini berish uzrli sabab sifatida tan olinishi mumkin.

Agar siyosiy boshipana berish asoslari davlatning milliy qonunchiligidan kelib chiqadigan bo‘lsa, davlatlarning muayyan toifadagi shaxslarga bunday boshipana bermaslik majburiyati esa xalqaro huquq normalari (shartnomalarini va odat normalari)da belgilangan.

Siyosiy boshipana tushunchasi va uning berilishi oqibatlari

Siyosiy boshipana berishning asosiy xalqaro-huquqiy oqibati bunday boshipana berilgan shaxsni davlat tomonidan bermaslik majburiyati hisoblanadi.

Siyosiy boshipana berish bilan biron-bir shaxsga ma’lum bir davlat hududida doimiy yashashga ruxsat berishni farqlash lozim. Zero, ikkinchi holatda davlat hech qanday xalqaro-huquqiy majburiyat olmaydi.

Ko‘pincha siyosiy boshipana olishga o‘z davlatida siyosiy jinoyatchi hisoblangan shaxs da’vogar bo‘ladi. Bu borada ko‘p nizolar kelib chiqadi. Hududiy boshipana to‘g‘risidagi deklaratsiyada mustahkamlangan tamoyilga ko‘ra pirovardida mazkur masala boshipana bergen davlat tomonidan hal qilinadi.

Umumiyligi sodir qilgan shaxslarga siyosiy boshipana berilmashligi lozimligi to‘g‘risidagi qoidalar umume’tirof etilgan qoida hisoblanadi.

Siyosiy boshipana berishning ikkinchi xalqaro-huquqiy oqibati shundan iboratki, biron-bir shaxsga siyosiy boshipana bergen davlat ushbu shaxsning huquqlari xorijiy davlatlarda buzilgan taqdirda kvazidiplomatik himoya ko‘rsatish huquqiga ega bo‘ladi.

Siyosiy boshipana berishning uchinchi oqibati biron-bir shaxsga boshipana bergen davlat mazkur shaxsning faoliyati uchun javobgar bo‘ladi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, boshipana bergen davlat bunday shaxslar tomonidan qochib chiqqan davlatiga nisbatan jinoiy hatgi-harakatlar qilishiga yo‘l qo‘ymasligi shart.

Bevosita xalqaro huquq normalari asosida shaxsga boshipana huquqi berilmaydi. Shaxsning bunday huquqlari ichki davlat huquqida o‘z aksini topadi. Xalqaro huquq normalari faqat davlatlarning muayyan toifadagi shaxslarga boshipana berish huquqini va boshqa davlatlarning mazkur huquqni hurmat qilish majburiyatini mustahkamlaydi.

Agar siyosiy muhoxir (emigrant)ni boshipana qidirishga majbur qilgan vaziyat bargaraf qilinsa yoki siyosiy muxojir boshipana bergen davlatda naturalizatsiya qilgan bo‘lsa, siyosiy boshipana tugatiladi.

7 mavzu.

XALQARO HUQUQDA JAVOBGARLIK

- Xalqaro huquqda javobgarlik tushunchasi

- Xalqaro-huquqiy javobgarlik turlari va shakllari
- Xalqaro-huquqiy javobgarlikning kelib chiqish asoslari va uni amalga oshirish
- Xalqaro jinoyat tushunchasi
- Xalqaro jinoyat sodir etgan jismoniy shaxslarning javobgarligi
- Xalqaro jinoyat sodir etgan xalqaro tashkilotlarning javobgarligi

Xalqaro huquqda javobgarlik tushunchasi

Javobgarlik — xalqaro huquqning eng qadimiy institutlaridan biridir. Biroq, ushbu institutning huquqiy me'yorlari hanuzgacha kodifikatsiya qilinmagan, shu bois u odatda pretsedentlar va sud qarorlari negizida shakllangan oddiy-huquqiy me'yorlarga asoslanadi.

Xalqaro-huquqiy javobgarlik — huquqbuzarlik subyektining xalqaro huquqni boshqa subyektiga yetkazgan zarari oqibatlarini bartaraf qilish bo'yicha yuridik majburiyatlaridir.

Xalqaro huquqbuzarlik xalqaro qilmishlarga va xalqaro jinoyatlarga bo'linadi. Xalqaro jinoyatlarga xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan tamoyillari va me'yorlarini buzadigan, shuning uchun butun jahon hamjamiyati tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan alohida xavfli qilmishlar kiradi.

Xalqaro huquqda shakllangan umumiylamoyilga ko'ra xalqaro g'ayrihuquqiy qilmishlar xalqaro-huquqiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Javobgarlik masalalarini tartibga soluvchi me'yorlar asosan xalqaro shartnomalarda o'z aksini topgan, shuningdek, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlarning rezolyutsiyalarida tasdiqlangan. Xalqaro huquqda xalqaro javobgarlik deganda huquq me'yorlaridan kelib chiqadigan subyektiv majburiyatlarini buzgan, ya'ni xalqaro huquqqa xilof hatti-harakat sodir etgan subyekt uchun noqulay salbiy yuridik oqibatlar tushuniladi.

Xalqaro huquq me'yorlari ichki davlat huquqi me'yorlari singari uch elementdan:

- birinchidan, belgilangan xulq-atvor qoidalari shart-sharoitini anglatuvchi gipotezadan;
- ikkinchidan, ushbu qoidalarni ifodalovchi dispozitsiyadan; uchinchidan, ushbu qoidalarni buzgan subyekt uchun vujudga keladigan salbiy oqibatlar uchun ko'zda tutilgan sanksiyadan iborat. Xalqaro-huquqiy javobgarlik — xalqaro-huquqiy me'yorlarda nazarda tutilgan subyektiv majburiyatlarini buzish va ushbu me'yorlarda belgilangan sanksiyalarini qo'llash natijasida kelib chiqadigan yuridik oqibatlardir.

Sanksiya me'yorlarning zaruriy elementi ekanligi to'g'ridan--to'g'ri ma'noda, huquqning har bir alohida me'yorida muayyan sanksiya ko'rsatilishi sifatida tushunilmasligi lozim. Bu milliy huquq uchun ham, xalqaro huquq uchun ham birdek tegishlidir. Xalqaro huquqda xalqaro javobgarlik me'yorlari tizimi uni huquq bilan tartibga solinadigan xalqaro munosabatlarning barcha sohalariga oid bo'lgan umumiylamoyilga institutlaridan birini tashkil qiladi.

Xalqaro huquqda eng avvalo davlatlarning xalqaro javobgarligi xususida so'z boradi. 1969 yildan BMTning Xalqaro huquq komissiyasi tegishli me'yorlarni kodifikatsiya qilish bilan shug'ullanib kelmoqda.

Davlatning har qanday xalqaro huquqqa xilof qilmishi ushbu davlatning xalqaro javobgarligini keltirib chiqaradi.

Quyidagi holatlar mavjud bo'lganda davlatning xalqaro huquqqa xilof qilmishi:

- birinchidan, harakat yoki harakatsizlikda namoyon bo'ladigan qandaydir xulq-atvor xalqaro huquqqa muvofiq davlatga tegishli bo'lganda va,
- ikkinchidan, bunday xulq-atvor ushbu davlatning xalqaro majburiyatlarini buzish hisoblanganda ayon bo'ladi.

Xalqaro huquqiy munosabatlarda davlatlar yuridik ahamiyatga molik hatti-harakatlari (yoki harakatsizligi) bilan huquqiy asosda (o'z xalqaro majburiyatlariga rioya qilish bilan) yoki huquqqa xilof (majburiyatlarini buzish bilan) faoliyatni amalga oshiradi. Har qanday davlat organining hatti-harakati ushbu davlatning ichki huquqi asosida shunday maqomga ega bo'lsa (xalqaro va milliy huquqning o'zaro aloqadorligi), xalqaro huquqqa muvofiq mazkur davlatning

qilmishi deb hisoblanadi.

Davlat tomonidan xalqaro majburiyatlarning buzilishi, davlatning qilmishi ushbu majburiyat bo'yicha davlatdan talab qilinadigan harakatga nomuvofiq bo'lgan taqdirda namoyon bo'ladi.

Faqat xalqaro huquq subyektlarigina xalqaro-huquqiy javobgarlik subyekti bo'lishi mumkin. Jismoniy va mustaqil yuridik shaxslar oddiy huquqbuzarlik uchun bunday javobgarlikka tortilmaydilar, chunki bunda fuqarolik-huquqiy javobgarlik vujudga keladi.

Amaliyotda xalqaro huquq subyektlarining hatti-harakatlari davlat nomidan ish ko'rishga haqli bo'lgan davlat organlari va mansabdar shaxslarning harakatlarida ifodalanadi. Ularning hatti-harakatlari uchun davlat o'zining butun milliy boyligi bilan javob beradi.

Xalqaro-huquqiy javobgarlik turlari va shakllari

Xalqaro huquqqa xilof qilmish ikki toifaga, ya'ni: xalqaro huquqbuzarlik va davlatlarning xalqaro jinoyatlariga bo'linadi. So'nggi toifa, agar davlatlar hamjamiyati tomonidan muayyan xalqaro huquqqa xilof qilmishlarni xalqaro jinoyat toifasiga kiritilsa, mavjud bo'ladi. Huquqbuzar davlat ikki turda xalqaro javobgarlikka: moddiy va siyosiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Xalqaro-huquqiy javobgarlikning ikkita: siyosiy va moddiy turi mavjud.

Siyosiy xalqaro-huquqiy javobgarlik satifikatsiya shaklida ifodalanadi. Bu zarar ko'rgan tarafni sodir etilgan huquqbuzarlik qaytarilmasligi to'g'risida ishontirish va uzr so'rash, huquqbuzarlikni sodir etishdagi aniq, aybdorlarni jazolashdir.

Siyosiy javobgarlik huquqbuzar davlat zimmasiga turli cheklash yoki tiklash xususiyatiga ega bo'lgan majburiyatlar yuklatishda:

- birinchidan, buzilgan xalqaro majburiyatlarni tiklashda;
- ikkinchidan, huquqqa xilof qilmish sodir etishda gumon qilingan shaxslarni javobgarlikka tortish va bunda aybdor bo'lgan shaxslarni jazolashda;
- uchinchidan, jismoniy shaxslar va ularning birlashmalarini muayyan faoliyatini ta'qiqlashda;
- to'rtinchidan, yuridik shaxslarni javobgarlikka tortish va boshqalarda namoyon bo'ladi. Davlat tomonidan xalqaro jinoyat sodir etilganda, masalan, agressiya, ushbu davlatning siyosiy javobgarligi harbiy xarakter (qurolli kuchlarni va quronishni cheklash kabilarda)dagi majburiyatlar yuklatilishi, militaristik yoki boshqa turdag'i tashkilot va birlashmalarini taqiqlash, demilitarizatsiya chora-tadbirlarini amalga oshirish, shuningdek, tajovuzkor davlat hududining bir qismini ajratib olish mumkin.

Repressaliya deb yuritiladigan, huquqbuzarlikka javoban zarar ko'rgan subyekt tomonidan amalga oshiriladigan zo'rlik hatti-harakatlari (masalan, noqonuniy ravishsa baliq ovlagani uchun baliq ovlash kemasi qo'lga olish, mulkni xatlash yoki musodara qilish kabilar) singari siyosiy javobgarlik shaklini ham eslab o'tish lozim.

Repressaliyadan retorsiyani farqlash kerak. Retorsiya — huquqbuzarlik hisoblanmaydigan, lekin do'stona munosabatlarga zid bo'lgan xatti-harakatlar bilan bog'liq bo'lgan (masalan, nodo'stona tarzdagi bayonotga javoban elchilarni chaqirib olish) javob choralaridir.

Individual repressaliyadan jamoa sanksiyasi farqlidir. Bunday sanksiyalar BMT Ustaviga muvofiq faqat Xavfsizlik Kengashining qarori asosida qo'llanilishi mumkin.

Restitutsiya va reparatsiya davlatlarning moddiy javobgarlik shakli hisoblanadi. **Restitutsiya** — huquqbuzar davlat tomonidan noqonuniy ravishda egallab olingan moddiy boyliklarni zarar ko'rgan davlatga qaytarish yoki ular yo'q bo'lib ketgan taqdirda, zararni boshqa teng qiymatli moddiy boyliklar bilan qoplashdir. Reparatsiya — talofat ko'rgan davlatga yetkazilgan moddiy zararni (shu jumladan, olinmay qolning foydani ham) pul yoki natura shaklida qoplashdir.

Moddiy xalqaro-huquqiy javobgarlik restitutsiya (huquqbuzarlikka qadar bo'lgan moddiy

holatni tiklash) va reparatsiya (zarar ko‘rgan tarafga yetkazilgan zararni pul bilan yoki boshqa tarzda qoplash) shakllarida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan, yetkazilgan moddiy zararni qoplash majburiyatida ifodalanadi.

Urush nizolarini hal qilishning qonuniy vositasi hisoblangan paytlarda moddiy javobgarlikning kontributsiya — yengilgan tarafdan g‘olib o‘z harbiy harajatlarini undirish shakli mavjud bo‘lgan.

Haqiqiy moddiy zarargina (bevosita va bilvosita) undirilishi mumkin. Odatda qo‘ldan boy berilgan foyda undirilmaydi.

Mutlaq (absolut) yoki obyektiv javobgarlik singari moddiy javobgarlikning turlari faqat shartnoma asosidagina vujudga keladi. Bu yerda so‘z, zarar yetkazgan tarafning aybsizligidan qat‘i nazar vujudga keladigan javobgarlik xususida bormoqda. Zarar ko‘rgan taraf faqat hattiharakat (harakatsizlik) bilan yetkazilgan zarar o‘rtasidagi sababli bog‘lanishni isbotlash talab qilinadi.

Xalqaro-huquqiy javobgarlikning kelib chiqish asoslari va uni amalga oshirish

Siyosiy javobgarlik boshqa subyektlarning manfaatlarini himoya qiluvchi xalqaro huquq me’yorlarini buzish (masalan, diplomatik vakolatxonalarining daxlsizligini buzish) holatidan kelib chiqdi.

Moddiy javobgarlik xalqaro huquq me’yorlarini buzish holatlari majmuining mavjudligidan, huquqbazarlik oqibatida mulkiy zarar kelib chiqishi va huquqbazarlik bilan zarar o‘rtasida bevosita sababli bog‘lanishning mavjudligidan kelib chiqdi.

Davlatning qilmishi faqat xalqaro huquq asosida xalqaro huquqqa xilof deb baholanishi mumkin. Faqat subyektning harakati (harakatsizligi) mazkur majburiyat bo‘yicha undan talab qilinadigan xatti-harakatlarga mos kelmagan taqdirdagina xalqaro majburiyat buzilishi tan olinadi. Bunda ushbu majburiyat shartnomaviy yoki oddiy-huquqiy xarakterga ega ekanligining ahamiyati yo‘q.

Huquqbazarlik holati (mutlaq javobgarlikda — moddiy zarar yetkazish holati) aniqlanganda zarar ko‘rgan taraf da’vo qo‘zg‘atadi. Da’vo qo‘zg‘atuvchi faqat bevosita xalqaro huquqning zarar ko‘rgan subyekti bo‘lishi mumkin.

Xalqaro jinoyat tushunchasi

Xalqaro jinoyatlarga davlatlar va xalqlarning hayotiga, xalqaro huquqning asosiy tamoyillariga, xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tajovuz qiladigan og‘ir xalqaro huquqqa xilof qilmishlar kiradi.

Umumjahon tinchligi va xalqaro xavfsizlik, davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi yaxshi qo‘schnichilik va do‘stona munosabatlar, xalqlar va millatlarning o‘z taqdirini o‘zi hal qilish huquqi, urush qonunlari va odatlari, inson huquqlari xalqaro jinoyatning obyekti bo‘lishi mumkin.

Xalqaro jinoyatlarga tajovuzkorlik hatti-harakatlari, zo‘rlik bilan mustamlakachilikni o‘rnatish, genotsid, aparteid va boshqalar kiradi.

Xalqaro jinoyat sodir etgan jismoniy shaxslarning javobgarligi

Hozirgi xalqaro huquqda jismoniy shaxslarning tinchlikka va insoniyat xavfsizligiga Qarshi jinoyat sodir etganligi uchun individual javobgarligi tan olinadi. Jismoniy shaxslarning xalqaro jinoyat uchun javobgarligi ko‘proq ularning jinoiy qilmishi davlatning jinoiy faoliyati bilan bog‘liq ravishda vujudga keladi. Jinoyat sodir etgan davlat xalqaro-huquqiy javobgarlikka, jismoniy shaxslar jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Shaxs tomonidan buyruqni (o‘z hukumati yoki rahbarining buyrug‘ini) bajarish natijasida jinoiy hatti-harakat sodir etishi jinoiy javobgarlikdan ozod qilmaydi. Bunday shaxslarni jazolash

uchun xalqaro va milliy qonunchilik qo'llaniladi.

Shaxsning rasmiy maqomi (davlat yoki hukumat rahbari) uni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun asos bo'lmaydi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng asosiy harbiy jinoyatchilarni sudlash uchun ikki: Nyurnberg va Tokio xalqaro harbiy tribunallari tashkil qilingan. Xavfsizlik kengashining qarori (1993 yil) Bilan sobiq Yugoslaviya hududida jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxslarni sudlash uchun xalqaro tribunal tashkil etish nazarda tutilgan.

Xalqaro jinoyat sodir etgan xalqaro tashkilotlarning javobgarligi

Xalqaro tashkilotlarning javobgarligi ularning xalqaro shartnomalardan va xalqaro huquqning boshqa manbalaridan kelib chiqadigan o'z xalqaro majburiyatlarini buzishi oqibatida vujudga keladi.

Xalqaro tashkilotlar o'z organlarining nizomidagi va boshqa majburiyatlariga rioya qilmasligi va xalqaro mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari bilan keltirilgan zarar uchun javobgar bo'ladilar.

8 mavzu.

XALQARO SHARTNOMALAR HUQUQI

- Xalqaro shartnomalar huquqi tushunchasi va manbalari.
- Xalqaro shartnoma tushunchasi va uning yuridik tabiat.
- Xalqaro shartnoma obyekti va maqsadi.
- Xalqaro shartnomalarni tasniflash (klassifikatsiyalash).
- Xalqaro shartnoma shakli, tuzilishi va nomi.
- Xalqaro shartnomaning kuchga kirishi va harakat tartibi.
- Xalqaro shartnomalarning haqiqiyligi.
- Xalqaro shartnomalarning bekor qilinishi va harakatining to'xtatilishi.
- Xalqaro shartnoma ijrosini ta'minlash usullari.
- Davlatlarning xalqaro shartnomalarga nisbatan huquqiy vorisligi

Xalqaro shartnomalar huquqi tushunchasi va manbalari

Xalqaro shartnomalar huquqi xalqaro huquqning alohida sohasi bo'lib, xalqaro shartnomalarni tuzish, ularning harakati va ularni bekor qilish borasida davlatlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlari o'rtaсидаги munosabatlarning tartibga soluvchi xalqaro-huquqiy me'yorlar yig'indisini tashkil qiladi.

Xalqaro shartnoma shartnoma tomonlarining o'zaro huquq va burchlarini aniq, va ochiq-oydin belgilab berish uchun tuziladi. Xalqaro munosabatlarning shartnomalarga asoslanib mustahkamlanishi xalqaro huquqiy tartibot barqarorligini ta'minlaydi.

Xalqaro shartnomalar huquqi subyektlari xalqaro huquq subyektlaridir.

Uzoq vaqt davomida xalqaro shartnomalar huquqining birdan-bir yagona manbai xalqaro odat bo'lib kelgan. 1986 yilda Davlatlar va xalqaro tashkilotlar yoki xalqaro tashkilotlar o'rtaсидаги shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasi qabul qilindi. Mazkur konvensiya xalqaro huquqning ijobiy (progressiv) rivojlanishi va kodifikatsiyalashtirilishining natijasi bo'lib, xalqaro tashkilotlar ishtirokidagi shartnomalarning o'ziga xosligini inobatga oluvchi qoidalarni ifodalaydi.

Xalqaro shartnomalar huquqi — xalqaro huquqning alohida sohasidir. Mazkur huquq sohasi nisbatan mustaqil me'yorlar majmui va tizimidan iborat bo'lib, tartibga solish predmetining umumiyligiga (birligiga) asoslangan. Ushbu holatda shartnomalarni tuzish va ijro

etish huquq sohasining predmeti hisoblanadi.

Hozirgi vaqtida xalqaro shartnomalar huquqi asosan quyidagi uch universal konvensiyalarda kodekslashtirilgan:

- birinchisi — Xalqaro shartnomalar huquqi to‘g‘risidagi Vena konvensiyasi (1969 yil).
- ikkinchisi — Davlatlar va xalqaro tashkilotlar yoki xalqaro tashkilotlar o‘rtasidagi shartnomalar to‘g‘risidagi Vena konvensiyasi (1986 yil).
- uchinchisi — Davlatlarning shartnomalarga nisbatan huquqiy vorisligi to‘g‘risidagi Vena konvensiyasi (1978 yil).

Mazkur uchala konvensiyalar o‘z matnlarida konvensiyalar davlatlarning xalqaro javobgarligi hamda davlatlar o‘rtasidagi harbiy harakatlarning boshlanishidan kelib chiqadigan oqibatlar bilan bog‘liq qoidalarga ega emasligini uqtiradi, ya’ni ushbu qism bo‘yicha boshqa xalqaro-huquqiy me’yorlarga havola qiladilar.

Xalqaro shartnoma tushunchasi va uning yuridik tabiatи

Xalqaro shartnomalar to‘g‘risidagi 1969 yilgi Vena konvensiyasi qoidalari ko‘ra, xalqaro shartnoma – davlatlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlari o‘rtasida bir, ikki yoki bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan bir necha hujjatlarda mujassamlashganligidan hamda uning aniq nomidan qat’i nazar yozma shaklda tuziladigan xalqaro huquq bilan tartibga solinadigan bitim hisoblanadi.

Xalqaro tashkilotning shartnomalar tuzish huquqiy layoqati Ushbu tashkilot qoidalari bilan tartibga solinadi. Agar davlatlarning xalqaro shartnomalar tuzishga nisbatan huquq layoqati cheklanmagan va ular har qanday masalalar bo‘yicha shartnomalar tuzish huquqiga ega bo‘lsa, xalqaro tashkilotlarning shartnoma tuzish huquq layoqati ularning ta’sis hujjatlari bilan belgilanadi

«Xalqaro shartnoma» - davlatlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlari tomonidan bir, ikki yoki bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan bir necha hujjatlarda ifodalanganidan hamda uning aniq nomidan qat’iy nazar yozma shaklda tuziladigan xalqaro huquq bilan tartibga solinadigan bitim hisoblanadi.

Xalqaro shartnoma – og‘zaki tarzda tuzilgan boshqa bitimlardan, ya’ni jentlmenlik bitimlari (ma’lum matndan iborat, Biroq xalqaro shartnomaning boshqa atributlarini, xususan unga yuridik kuch beruvchi, kuchga kirish shart –sharoitlarini av harakat muddatini belgilovchi qoidalarni o‘zida ifodalamagan og‘zaki bitim) dan farqli o‘laroq davlatlar o‘rtasida tuzilgan yozma bitimdir.

Xalqaro shartnoma obyekti va maqsadi

Xalqaro huquq subyektlarining moddiy va nomoddiy ne’matlarga qaratilgan munosabatlari, harakatlari va ma’lum xatti-harakatda o‘zlarini tiyib turishlari xalqaro shartnoma obyekti hisoblanadi.

Xalqaro shartnoma maqsadi deganda xalqaro huquq subyektlarining shartnoma tuzish orqali amalga oshirish va erishishga qaratilgan holati tushuniladi. 1969 yilgi Vena konvensiyasi me’yorlari davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga hamda xalqaro shartnomalar doirasida xalqaro huquqning boshqa subyektlari xususan, xalqaro tashkilotlar o‘rtasidagi munosabatlarda ham qo‘llanadi. Xalqaro shartnomalar huquqi to‘g‘risidagi 1969 yilgi Vena konvensiyasiga muvofiq, shartnoma matnini tayyorlash va qabul qilish: «muzokaralarda qatnashayotgan davlatlar», ya’ni shartnoma matnini tayyorlash va qabul qilishda qatnashgan yoki ko‘p tomonlama shartnoma matniga nisbatan xalqaro konferensiyada ishtiroy etayotgan va ovoz berishda qatnashayotgan davlatlarning uchdan ikki qismi ovoz berishi orqali amalga oshiriladi.

Xalqaro shartnomalarni tasniflash

Xalqaro shartnama turli asoslarda tasniflanishi mumkin. Ishtirokchilar soniga ko‘ra xalqaro shartnomalar ikki tomonlama va ko‘p tomonlama turlarga bo‘linadi. Ko‘p tomonlama xalqaro shartnomalarga barcha davlatlar ishtirokini ko‘zda tutuvchi universal shartnomalar hamda ishtirokchilar soni cheklangan shartnomalar kiradi. Xalqaro shartnomalar ochiq yoki yopiq bo‘lishi mumkin. Ochiq xalqaro shartnomalar deb, har qanday davlatlar ishtirok eta olishi mumkin bo‘lgan shartnomalarga aytildi. Yopiq xalqaro shartnomalar ularda ishtirok etish uchun shartnama ishtirokchilari roziligi talab qilinadi. Tartibga solish obyektiga ko‘ra xalqaro shartnomalar iqtisodiy, siyosiy, ilmiy-texnikaviy va boshqa turlarga bo‘linishi mumkin.

1969 yilgi Vena konvensiyasi shartnomalarning uch turini belgilaydi:

- 1) ikki tomonlama shartnomalar;
- 2) ko‘p tomonlama shartnomalar;
- 3) cheklangan sonli ishtirokchilarga ega bo‘lgan ko‘p tomonlama shartnomalar.

Xalqaro shartnama shakli tuzilishi va nomi

Xalqaro shartnama yozma va og‘zaki shaklda tuzilishi mumkin. Xalqaro shartnama tuzilishiga uning tarkibiy qismlari ya’ni shartnama nomi, muqaddima, asosiy va xulosa qismlari, tomonlar imzosi singarilari kiradi.

Muqaddima xalqaro shartnomaning muhim qismlaridan biri hisoblanadi. Chunki unda asosan shartnama maqsadi ifodalananadi.

Xalqaro shartnomaning asosiy qismi moddalarga bo‘linadi. Ular ham o‘z navbatida bo‘limlarga bo‘linishi mumkin.

Shartnomannig xulosa qismida xalqaro shartnomaning kuchga kirish va to‘xtatilish shartlari, shartnama tili kabi qoidalar o‘z ifodasini topishi mumkin.

Xalqaro shartnomalar aksar holatlarda bayonnomalar shaklidagi ilovalarga ega bo‘ladi. Ilovalar xalqaro shartnomaning ajralmas qismi bo‘lishi mumkin.

Xalqaro shartnama turli nomlar bilan, masalan, bitim, konvensiya, shartnama, protokol, deklaratsiya, nizom, partiya — yoki ma’lum nomga ega bo‘imasligi ham mumkin. Xalqaro shartnama nomi hech qanday yuridik ahamiyat kasb etmaydi.

Xalqaro shartnama matni tayyorlanadigan til tomonlar kelishuvi asosida belgilanadi. Ikki tomonlama shartnama, odatda, shartnama tomonlari tilida tuziladi.

Shartnomaning asl nusxa bilan muvofiqligi (asl nusxaga mosligi) — ikki yoki bir necha tillarda tuzilgan shartnama matnining bir xilda yuridik kuchga ega bo‘lishidir. Shartnama matnining tugalligi odatda uni imzolash, ad referendum imzolash (davlatning vakolatli organi imzosi bilan haqiqiyligini tasdiqlash sharti), muzokarada qatnashayotgan barcha davlat vakillari tomonidan shartnomaning tasdiqlanishi (parafirovaniye) yoki shartnama matni ifodalangan konferensiyaning yakuniy hujjatini imzolash orqali tasdiqlanadi.

Albatta davlat vakillari shartnama matnini qabul qila olishlari uchun zaruriy vakolatlar (yozma hujjatlar) bilan ta’minlangan bo‘lishlari lozim. Ex officio (o‘zining egallab turgan lavozimi kuchi bilan) shartnama matnini qabul qila olishda ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan davlat vakillari bu toifaga kirmaydi. Bunday vakolatdan davlat va hukumat boshliqlari, tashqi ishlar vaziri bilan bir qatorda shartnama tuzilayotgan davlatdagi mazkur davlatning diplomatik vakolatxona boshlig‘i ham foydalanadi.

Davlat o‘zi uchun shartnama qoidalari majburiyligiga nisbatan roziligin shartnomani imzolash, shartnomani tashkil etuvchi hujjatlarni ayirboshlash, shartnomani ratifikatsiya qilish, uni qabul qilish, tasdiqlash, unga qo‘shilish yoki shartnama matnini qabul qilishda ishtirok etgan davlatlar (shartnama matnida yoki boshqa tarzda) shartlashgan boshqa usullarda ifodalashi mumkin.

O‘z imzosi bilan shartnama majburiyligini ifodalayotgan davlat vakili zaruriy vakolatlar bilan ta’minlangan bo‘lishi lozim. Davlat va hukumat boshlig‘i tashqi ishlar vaziri shartnama

tuzish bilan bog'liq bo'lgan barcha harakatlarni amalga oshirishda vakolatga ega bo'lgan shaxslar hisoblanadi.

Shartnoma muddatini uzaytirish prolongatsiya deb ataladi. Keltirilgan holatlardan tashqari prolongatsiya maxsus kelishuv asosida ham amalga oshirilishi mumkin. Agar shartnoma o'z harakatini tugatgan bo'lsa, va tomonlar uning harakatini uzaytirish to'g'risida maxsus shartlashsalar, bunday uzaytirish shartnoma harakatini tiklash yoki shartnomani qaytadan tuzish (shartnomaning qaytadan tuzilishi) deb nomlanadi.

Muddatsiz deb, harakat muddati ko'rsatilmagan xalqaro shartnomalarga aytildi.

«Ratifikatsiya qilish», «qabul qilish», «tasdiqlash» va «qo'shish» ma'lum holatlarga bog'liq tarzda shu nom bilan yuritiluvchi xalqaro hujjat bo'lib, davlat u orqali mazkur shartnomani o'zi uchun majburiyligiga roziliginu ifodalaydi.

Shartnomani ratifikatsiya qilish — davlat oliy organining ichki davlat huquqiga (Konstitutsiya yoki konstitutsiyaviy qonunga) muvofiq amalga oshiradigan harakatdir. Shartnomani ratifikatsiya qilish davlat boshlig'i yoki oliy qonunchilik organi (parlament) tomonidan amalga oshiriladi. Shartnomani qabul qilish, tasdiqlash va unga qo'shilish harakatlari allaqachon tuzilgan shartnomalar bilan bog'liq bo'lib, ularda ishtirok etish mazkur shartnomalarni qabul qilish bilan amalga oshiriladi. Ularning asosida ratifikatsiya hujjatlari yotadi.

Shartnomani uni tashkil etuvchi hujjatlarni almashish orqali tuzish — shartnoma qabul qilishning eng soddalashtirilgan usuli bo'lib, davlatlarning kam ahamiyat kasb etuvchi majburiyatlariga nisbatan qo'llanadi. Odatda u tashqi ishlar vazirligi yoki shartnoma tuzilayotgan davlatdagi diplomatik vakolatxonadan yuboriladigan shaxsiy yoki og'zaki (imzosiz) nota almashish orqali amalga oshiriladi. Bir davlat ikkinchi bir davlatga o'zi uchun ma'lum qoidani yuridik majburiy kuchini tan olishga tayyor ekanligini bayon qilib nota jo'natadi. Ikkinchi bir davlat nota mazmunini (qo'shtirnoq ichida) qaytarish orqali uni olganligini tasdiqlaydi.

Shartnomaning kuchga kirish tartibi va vaqtin uning o'zida belgilangan yoki uni tuzishda qatnashgan davlatlar o'tasidagi o'zga kelishuvlar asosida belgilangan boshqa bir tartibda amalga oshiriladi.

Odatda, shartnoma uni imzolash, ad referendum imzolashni tasdiqlash, ratifikatsiya yorliqlarini almashish yoki ularni shartnomani tuzishda qatnashgan barcha davlatlar tomonidan depozitariyda saqlash uchun topshirish vaqtidan boshlab kuchga kiradi.

Har bir shartnoma ma'lum hudud yoki maydon bilan belgilanuvchi harakat doirasiga ega bo'ladi. Qator ko'ptomonlama shartnomalar davlatlar hududidan o'zga maydonlar doirasini ko'zda tutadi. Misol tariqasida 1959 yilda qabul qilingan Antarktika to'g'risidagi shartnomani aytib o'tish mumkin.

Umuman olganda, xalqaro shartnoma uchinchi davlatlar yoki xalqaro tashkilotlarga nisbatan ularning bunga roziligidan hech qanday huquq va majburiyatlar tug'dirmaydi.

Agar uning ishtirokchilarini bunday maqsadni ko'zda tutgan bo'lsa va uchinchi davlatning o'zi bunga rozilik bergen bo'lsagina, uning uchun xalqaro shartnomadan ma'lum huquq kelib chiqishi mumkin.

Xalqaro shartnomalarning haqiqiyligi

1969 va 1986 yilgi Vena konvensiyalari xalqaro shartnomalarning haqiqiyligi prezumpsiyasidan kelib chiqadi, chunki xalqaro shartnomaning haqiqiyligi yoki ishtirokchining shartnoma qoidalari uning uchun majburiyligiga roziligi faqat xalqaro huquq asosidagina belgilanishi mumkin. Faqat haqiqiy xalqaro shartnomagina unda ifodalangan huquq va majburiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Xalqaro amaliyotda alohida shartnomalar haqiqiy emas deb topilgan holatlар ham mavjud. Shartnomaning haqiqiy emasligini belgilovchi asoslar qatorida davlatni majbur qilish, aldash, xato, shartnoma qoidalari xalqaro huquqning jus cogens me'yorlariga zid kelishi kabilarni sanab o'tish mumkin.

Shartnomaning haqiqiy emasligi shartlari ikki turda, ya’ni: mutlaq va nisbiy, ya’ni ulardan foydalanmaslik yoki foydalanishga yo‘l qo‘yuvchi turlarda bo‘ladi.

Shartnoma, agar uni tuzish vaqtida xalqaro huquqning imperativ me’yorlariga zid bo‘lsa, haqiqiy emas va yuridik jihatdan ahamiyatsiz hisoblanadi.

Shartnoma uning majburiyligiga o‘z roziliginibergan davlat tomonidan, «agar uning ichki huquqi shartnomalar tuzish vakolatiga tegishli qoidalari buzilgan bo‘lca; shartnomada ma’lum xarakterdagi xato mavjud bo‘lsa; shartnoma boshqa bir davlatning yolg‘on harakatlari ta’siri ostida yoki uning vakiliga bevosita yoki bilvosita pora berish yoki majburlash natijasida tuzilgan bo‘lsa» haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Davlat ushbu holatlarni inobatga olmasligi va o‘zi uchun shartnoma qoidalari majburiyligini saqlab qolishi mumkin.

Davlat, agar ushbu holatlar mavjudligini bila turib, shartnoma qoidalari qo‘llasa va ularni bajarsa, shartnoma majburiyligi borasida bildirgan roziliginiga nisbatan norozilik bildirish huquqini yo‘qotadi. Chunki davlatning ushbu xatti-harakati shartnoma qoidalari indamay rozi bo‘lish deb hisoblanadi. Mazkur qoida xalqaro huquqda estope (estope) qoidasi deb nomlanadi.

Agar shartnoma qoidalari boshqa maqsad ifodalanmagan bo‘lsa, shartnoma orqaga qaytish kuchiga ega emas. Bu shuni anglatadiki, shartnoma qoidalari uning ishtirokchisi hisoblangan davlatning shartnoma kuchga kirgunga qadar sodir etgan har qanday harakatlari, faktlar yoki holatlarga nisbatan qo‘llanmaydi. Shartnomalarga orqaga qaytish kuchini berish nafaqat eng kam, balki favqulodda hodisadir.

Davlatlar va xalqaro tashkilotlar yoki xalqaro tashkilotlar o‘rtasidagi shartnomalar to‘g‘risidagi qoidalari 1986 yil Vena konvensiyasida kodekslashtirilgan.

Konvensiyaga muvofiq xalqaro tashkilot — hukumatlararo tashkilotdir.

Rasmiy tasdiqlash hujjati — davlatning shartnomani ratifikatsiya qilish hujjatiga muvofiq keladigan xalqaro hujjat bo‘lib, u orqali xalqaro tashkilot shartnoma majburiyligiga o‘z roziliginiz xor qiladi.

Xalqaro tashkilotning barcha xatti-harakatlari uning qoidalari muvofiq tarzda amalga oshiriladi.

Xalqaro tashkilot qoidalari — tashkilotning ta’sis hujjatlari, ular asosida qabul qilingan qaror va rezolyutsiyalar, shuningdek, tashkilotning muhim shakllangan amaliyoti, ya’ni bu shunday amaliyotki, unga nisbatan a’zo-davlatlar konsensusga (e’tirozning mavjud emasligiga) ega.

Xalqaro tashkilot tomonidan xalqaro shartnomalar tuzilayotgan vaqtida beriladigan vakolat — bu tashkilotning vakolatli organi tomonidan qabul qilinadigan hujjat bo‘lib, unga muvofiq bir yoki bir necha shaxs tashkilot nomidan muzokaralar olib borish, shartnoma matnini qabul qilish yoki uning matni haqiqiyligini aniqlash, ushbu tashkilotning shartnoma majburiyligiga roziliginini ifodalash yoki shartnoma tuzish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa har qanday harakatlarni amalga oshira olish vakolatiga ega bo‘ladi.

Xalqaro shartnomalarning bekor qilinishi va harakatining to‘xtatilishi

Xalqaro shartnomaning bekor qilinishi (tugatilshi), ya’ni yuridik kuchini yo‘qotishi yoki undan ishtirokchining chiqishi shartnoma qoidalari muvofiq tarzda yoki shartnoma qatnashchilarining roziligiga binoan xoxlagan vaqtida amalga opshrilishi mumkin.

Xalqaro shartnomanini to‘xtatish shartnoma harakat muddatining tugashi, uning bajarilishi, yangi jus cogens me’yorining vujudga kelishi, shartnomada belgilangan shart-sharoitlar asosida denonsatsiya qilinishi natijasida yuz berishi mumkin.

Shartnomanini to‘xtatishda denonsatsiya, ya’ni shartnomanini bekor qilish to‘g‘risida bildirish keng qo‘llanadi. Agar shartnoma denonsatsiya qilishni nazarda tutmagan va shartnoma ishtirokchilarining bunday imkoniyatdan foydalanishlari maqsad qilib qo‘yilmagan bo‘lsa, shartnoma denonsatsiya qilinmaydi.

Xalqaro shartnoma ijrosini ta’minalash usullari

Xalqaro shartnoma ijrosini ta'minlash xalqaro huquq subyektlari tomonidan amalga oshiriladi. Xalqaro shartnomalarning bajarilishi:

- birinchidan, xalqaro kafolatlar;
- ikkinchidan, xalqaro nazorat;
- uchinchidan, xalqaro tashkilotlarning qullab-quvvatlashi orqkali ta'minlanishi mumkin.

Xalqaro kafolatlar deganda ma'lum davlat yoki davlatlar guruhining tuzilgan shartnomaning bajarilishini tasdiqlovchi yoki kafilligini olganligini belgilovchi xalqaro-huquqiy hujjat tushuniladi.

Xalqaro huquqqa muvofiq, amaldagi har bir xalqaro shartnoma uning ishtirokchilari uchun majburiy va ular tomonidan vijdonan bajarilishi lozim. Ushbu qoida keng tan olingan login formulasida pacta sunt servanda, deb ifodalanadi. Biroq bu boshqa bir umum tan olingan qoidadan kelib chiquvchi alohida bir xoldir, ya'ni davlatlar va xalqaro huquqning boshqa subyeklari xalqaro majburiyatlarini uning kelib chiqishidan qatyiy nazar (odatiy, shartnomaviy yoki boshqa tarzda) vijdonan bajarishlari lozim.

Davlatlarning xalqaro shartnomalarga nisbatan huquqiy vorislik

Xalqaro huquqda huquqiy vorislik — xalqaro huquqning umumiyligi institutlaridan biri bo'lib, faqat davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlardan sohasiga taalluqlidir.

Huquqiy vorislik bir huquq subyekti huquq va majburiyatlarini ikkinchi biriga yoki huquqning boshqa subyektlariga o'tishini anglatadi. Bunda o'zaro bog'liq huquqiy munosabatlarda ishtirok etayotgan subyektlar o'rtasida huquqiy vorislikning vujudga kelishi va amalga opshrilishida yuridik ahamiyatga ega bo'lgan o'zaro bog'liqlik mavjud bo'lipsh lozim.

Xalqaro huquq fanida ko'rsatib o'tilgan o'zaro bog'liqlik, ya'ni tegishli yuridik faktning mavjudligi, ba'zan de-fakto — huquqiy vorislik deb, huquqiy vorislikning o'zi esa, ya'ni tegishli yuridik faktning huquqiy oqibatlarining mavjudligi — de-yure huquqiy vorislik deb nomlanadi.

Davlatlarning ichki huquqida de-yure huquqiy vorislikning o'ziga hos ko'rinishi meros olish huquqidir. Meros olish huquqini keltirib chiqaruvchi yuridik fakt, individ — subyektlar o'rtasidagi karindoshlik munosabatlari (otalar, bolalar, nabiral va boshqalar) yoki u hamda bu huquq subyekti foydasiga vasiyat qilishdir.

Xalqaro huquqda huquqiy vorislik munosabatlari umuman ikki universal konvensiya qoidalari bilan tartibga solinadi. Bular 1978 yilda qabul qilingan Davlatlarning shartnomalarga nisbatan huquqiy vorisligi to'g'risidagi Vena konvensiyasi va 1983 yilda qabul qilingan Davlatlarning davlat mulki, davlat arxivlari va davlat qarzlariga nisbatan huquqiy vorisligi to'g'risidagi Vena konvensiyasidir.

Ularning birinchisi, bir tomonidan — xalqaro huquqda huquqiy vorislik institutining bir qismini, ikkinchi tomonidan — xalqaro huquq sohasi — xalqaro shartnomalar huquqining tarkibiy qismini tashkil qiladi.

Davlatlarning huquqiy vorisligi ma'lum hududdagi xalqaro munosabatlardan uchun javobgarlikni bir davlatdan ikkinchi biriga o'tishiga aytildi. Ushbu ta'rif o'tmishdosh-davlat va merosxo'r-davlat o'rtasidagi munosabatlarda yuridik ahamiyatga ega bo'lgan aloqa mavjudligini, ya'ni konvensiyalarda davlatlar huquqiy vorisligining (yuridik) oqibatlari sifatida tasvirlangan huquqiy vorislikni vujudga keltiradigan yuridik faqting mavjudligini ko'rsatadi.

O'tmishsosh-davlat va merosxo'r-davlat o'rtasidagi munosabatlarda, ya'ni:

- birnnchidan, bir davlat hududining ma'lum qismi ikkinchi bir davlatga berilganda;
- ikkinchidan, ikki davlat birlashganda va ularning birlashgan hududida yagona davlat vujudga kelganda (unitar yoki federativ);
- uchinchidan, o'tmishdosh-davlat bo'linmokda va uning hududida ikkita yoki bir necha mustaqil davlat vujudga kelgan yuridik ahamiyatga ega bo'lgan aloqaning mavjudligi hududiy xarakterdagi bog'liqlik hisoblanadi;

Yangi davlat vujudga kelishining o‘ziga hos ko‘rinishi — tobe hududda mustaqil davlatning vujudga kelishidir. Konvensiyalarda bu kabi davlatlar yangi mustaqil davlatlar deb nomlanadi.

Bir davlat huquq va majburiyatlarining ikkinchi biriga o‘tishidan, masalan, 1978 yil konvensiyasida belgilangan huquqiy vorislik to‘g‘risidagi me’yorlarga muvofiq, shartnomalardan kelib chiquvchi majburiyatlardan, tashkil toptan huquqiy vorislikni vujudga keltiruvchi yuridik faktlar mana shulardir.

9 mavzu.

DIPLOMATIK VA KONSULLIK HUQUQI

- Diplomatik huquq tushunchasi, tizimi va manbalari.
- Tashqi aloqalar organlarining turlari.
- Diplomatik korpus.
- Diplomatik vakolatxona va uning xodimlarining immuniteti, imtiyozlari va imkoniyatlari.
- Davlatlarning xalqaro tashkilotlar xuzuridagi doimiy vakolatxonalarini.
- Konsullik huquqining tushunchasi va manbalari.
- Konsullik muassasalari toifalari va xodimlari.
- Konsullik muassasalari va ular xodimlarining immunitet va imtiyozlari.

Diplomatik huquq tushunchasi, tizimi va manbalari

Diplomatik huquq — xalqaro huquqning qadimiy va alohida mustaqil sohasidir. Diplomatik va konsullik huquqini bir-biridan farqlash maqsadga muvofiqdir, chunki ularning oxirgisi davlatlararo munosabatlarning maxsus va yetarli darajada tor sohasini ifodalaydi.

Diplomatik huquq — xalqaro-huquqiy normalarning nisbatan mustaqil tizimi bo‘lib, xalqaro munosabatlarda davlatlar vakilligini tartibga soladi. Mazkur munosabatlarning ishtirokchilari davlatlarning o‘zлari bo‘lib, ushbu xalqaro munosabatlar huquqiy munosabatlar xarakterini oladi. Tegishli diplomatik muassasalar funksiyasi o‘z davlati manfaatlarini u ishtirok etayotgan turli xalqaro (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa) munosabatlarda ximoya qilishdir.

Konsullik huquqi — xalqaro-huquqiy normalarning nisbatan mustaqil tizimi bo‘lib, davlatlar o‘zaro munosabatlarining o‘ziga hos sohalarida, xususan, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda vakilligini tartibga soladi.

Diplomatik huquq umuman, garchi cheklangan doiralarda bo‘lsa-da, konsullik munosabatlarini ham qamrab oladi. Konsullik muassasalari, amaliyotda mavjud bo‘lganidek, mazkur davlat tomonidan ta’sis etilmasligi ham mumkin.

Diplomatik huquq — xalqaro huquqning muhim sohasidir. U, avvalo, xalqaro odad huquq normalari tizimini tashkil etadi. Biroq, hozir ushbu normalarning aksariyat qismi bir qator universal konvensiyalarda kodekslashtirilgan. Bular amaldagi:

- **1961 yilda qabul qilingan Diplomatik aloqalar to‘g‘risidagi Vena konvensiyasi;**
- **1969 yilda qabul qilingan Maxsus missiyalar to‘g‘risidagi konvensiya;**
- **1975 yilda qabul qilingan Davlatlarning universal xarakterdagi xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro munosabatlaridagi vakilligi to‘g‘risidagi Vena konvensiyasi;**
- **1963 yilda qabul qilingan Konsullik aloqalari to‘g‘risidagi Vena**

konvensiyasidir.

Diplomatik huquq — «tashqi aloqalar huquqi» deb nomlash lozim bo‘lgan xalqaro huquq institutining bir qismidir, chunki xalqaro huquq normalari bilan tartibga solinadigan xalqaro munosabatlarda nafaqat davlatlar, balki boshqa subyektlar, xususan, xalqaro tashkilotlar — universal, regional (BMT Ustavi mazmunida) va maxalliy, xalqaro organlar va o‘z tashqi aloqalarini ular nomidan qatnashuvchi tuzilmalar orqali ifoda etuvchi boshqa xalqaro instituglar ishtirok etadi.

Tashqi aloqalar huquqi — xalqaro-huquqiy normalarning shunday tizimiki, u xalqaro munosabatlarda xalqaro huquq subyektlari vakilligini tartibga soladi. Bu, asosan, odat normalari sanaladi. Biroq, universal xarakterdagi konvensiyalar (masalan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti imtiyoz va immunitetlari to‘g‘risidagi 1946 yil konvensiyasi va Ixtisoslashgan muassasalar imtiyoz va immunitetlari to‘g‘risidagi 1947 yil konvensiyasi) ham mavjud.

Diplomatik huquq — davlatning tashqi aloqalari sohasida faoliyagg yurituvchi organlari maqomi va funksiyalarini tartibga soluvchi normalar yig‘indisini ifodalovchi xalqaro huquq sohasidir.

Diplomatik huquq tizimi diplomatiyaning assosiy shakllariga:

- birinchidan, diplomatik vakolatxonalar yoki tuzilgan shartnomaning bajarilishini ta‘min etishga xizmat qiluvchi davlatlarning maxsus missiyalari tomonidan amalga oshiriladigan ikki tomonlama diplomatiya;
- ikkinchidan, xalqaro konferensiya va xalqaro tashkilotlar sessiyalarida davlatlar delegatsiyalari tomonidan amalga oshiriladigan ko‘p tomonlama diplomatiya;
- uchinchidan, xalqaro tashkilotlar xuzuridagi davatlarning doimiy vakolatxonalari tomonidan amalga oshiriladigan diplomatiya mos keladi.

Tashqi aloqalar organlari turlari

Diplomatik huquq xalqaro huquqning o‘zok vaqt davomida yagona subyekti bo‘lib kelgan davatlarning o‘zaro amaliyoti natijasida shakllangan va rivojlangan. Qadimda bo‘lgani kabi hozirda ham davlatlar o‘rtasidagi o‘zapo munosabatlар bir davlat tomonidan ikkinchi biriga yuboriladigan tashqi aloqalar organlari tomonidan amalga oshiriladi. Tashqi aloqalarning bunday organlari qatoriga davatlarning o‘zaro kelshpuvi asosida tashkil qilinadigan doimiy diplomatik vakolatxonalar va bir davlat tomonidan ikkinchi bir davlatta yuboriladigan maxsus (vaqtincha, ad hoc) missiyalar kiradi.

Diplomatik vakolatxona va maxsus missiyalarga tegishli normalar majmui 1961 va 1969 yillarda qabul qilingan Vena konvensiyalarida mujassamlashgan.

Xalqaro-huquqiy adabiyotda tashqi aloqalar organlarini ichki davlat va xorijiy turlarga bo‘lish mavjud.

Ichki davlat turiga quyidagi davlat organlari:

- birinchidan, davlat tashqi siyosati asoslarini belgilovchi davlatning oliy vakillik organi;
- ikkinchidan, xalqaro maydonda oliy vakillikni amalga oshiruvchi davlat boshlig‘i (u kollegial yoki yakka bir shaxsga taallukli bo‘lishi mumkin);
- uchinchidan, davlat tashqi siyosatida umumiy raxbarlikni olib boruvchi hukumat;
- turtinchidan, tashqi ishlar idorasi kiradi.

Doimiy organlarga diplomatik vakolatxonalar, ya’ni elchixonalar, missiyalar, xalqaro tashkilotlar xo‘zuridagi doimiy vakolatxonalar, konsullik muassasalari kiradi.

Vaqtinchalik organlarga xalqaro konferensiyalar yoki xalqaro organlardagi maxsus missiya va delegatsiyalar kiradi.

Diplomatik vakolatxonaning funksiyasi va tarkibi

Davlatlar o‘rtasida diplomatik munosabatlarning o‘rnatilishi, odatda, diplomatik

vakolatxonalar bilan almashishga olib keladi. Biroq, bunday almashishni amalga oshirish uchun maxsus kelishuv zarur. Hozirgi zamon xalqaro huquqi ko'rsatilgan diplomatik vakolatxonalar bilan almashishning uch darajasi mavjudligi imkoniyatidan kelib chikadi. Har bir daraja uchun vakolatxona boshlig'ining ma'lum toifasi to'g'ri keladi.

Eng yuqori daraja — elchixonadir. Unga Favkulodda va Muxtor Elchi darajasiga ega bo'lgan diplomatik vakil raxbarlik qiladi. Undan so'ng Favkulodda va Muxtor Vakil raxbarlik qiladigan xolda muvakkat ishlar vakili tomonidan boshqariladigan missiya turadi.

Ko'pgina davlatlarda diplomatik xodimlarga beriladigan diplomatik darajalar ham mavjud.

Diplomatik vakolatxona xodimlari uch toifaga bo'linadi. Bular diplomatik; ma'muriy — texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlardir.

Diplomatik vakolatxona funksiyalari:

- birinchidan, vakil qilib yuboruvchi davlatning vakolatxona joylashgan davlatda vakillik qilishida;
- ikkinchidan, vakil qilib yuboruvchi davlatni vakolatxona joylashgan davlatda (xalqaro huquq ruxsat bergen doirada) manfaatlarini ximoya qilishda;
- uchinchidan, diplomatik vakolatxona joylashgan davlatda hukumat bilan (keng ma'noda — davlat va hukumat boshlig'i, tashqi ishlar vazirligi va vakolatli organlar bilan) mo'zokalar olib borishda;
- turtinchidan, vakolatxona joylashgan davlatdagi shart-sharoitlar va vokealarni mumkin bo'lgan barcha qonuniy vositalar orqali urganish va ular to'g'risida o'z davlatini xabardor klishda;
- beshinchidan, vakil qilib yuboruvchi va qabul qiluvchi davlatlar o'rtaida barcha sohalarda o'zaro dustona aloqalarni ragbatlantirish va rivojlantirishda namoyon bo'ladı.

Maxsus missiya funksiyalari — uning vazifalarini hamda yuboruvchi va qabul qiluvchi davlatlarning o'zaro kelishuvi bo'yicha vakil qilib yuboruvchi davlat manfaatlarini vakolatxona joylashgan davlatda ifodalashda belgilanadi.

Doimiy diplomatik vakolatxona tarkibida vakil qilib yuboruvchi davlat nomidan ish kurish uning boshlig'iغا yuklatiladi.

Vakolatxona boshliklari uch toifaga bo'linadi. Ular:

- birinchidan, elchilar toifasi yoki o'zgacha nom bilan yuritiluvchi ularga mos bo'lgan shaxslar (nunsiylar, oliy komissarlar va xok.);
- ikkinchidan, yuboruvchi davlat tomonidan qabul qiluvchi davlat boshlig'i xo'zurida uning nomidan vakillik qilish uchun tayinlangan muxtor vakillar toifasi (internunsiylar);
- uchinchidan, qabul qiluvchi davlat tashqi ishlar vazirligi xo'zurida yuboruvchi davlat nomidan vakillik qilish uchun tayinlangan muvakkat ishlar bo'yicha vakillar.

Diplomatik vakolatxona boshliklarini tayinlash uchun qabul qiluvchi davlatning roziligi — agreman suraladi. Shundan so'nggina unta yuboruvchi davlat tomonidan uning tayinlanganligini tasdiqlovchi ishonch yorliga beriladi.

Maxsus missiya tarkibida vakil qilib yuboruvchi davlat nomidan vakillik qilishi uchun bir yoki bir necha shaxs tayinlana-di. Ular yuboruvchi davlatning vakillari nomi bilan yuritiladi. Maxsus missiya tarkibiga kiruvchi shaxslar ichidan yuboruvchi davlat missiya boshlig'ini tayinlashi mumkin.

Doimiy diplomatik vakolatxona tarkibiga diplomatik xodimlar, ya'ni diplomatik martabaga (rangga) ega bo'lgan shaxslar (muxtor vakil, birinchi, ikkinchi va uchinchi kotiblar, attashe, kotib-arxivarius), harbiy, harbiy-dengiz va harbiy-havo attashelari va shuningdek, ma'muriy-texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar kirishi mumkin.

Maxsus missiya tarkibiga o'z navbatida diplomatik, ma'muriy-texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar kiradi.

Diplomatik xodimlar diplomatik vakolatxona yoki maxsus missiya boshlig'i topshirig'iغا binoan qabul qiluvchi davlat bilan o'zaro munosabatlarda yuboruvchi davlat nomidan ma'lum

funksiyalarni bajaradilar.

Ma'muriy-texnik va xizmat ko'rsatish xodimlar diplomatik vakolatxona yoki maxsus missiyaga tegishli xizmat ko'rsatish bo'yicha o'z funksiyalarini bajaradilar.

Diplomatik, ma'muriy-texnik va xizmat ko'rsatish xizmati xodimlarini tayinlash tartibi va ularning soni qabul qiluvchi va yuboruvchi davlatlarning o'zaro kelishuvi asosida belgilanadi. Qabul qiluvchi davlat diplomatik xodimni xoxlagan vaqtida persona non grata, ya'ni nomakbul shaxs» deb e'lon qilib, bu shaxslarni yuboruvchi davlatdan diplomatik vakolatxona yoki maxsus missiya tarkibidan chakirib olishlarini talab qilish mumkin.

Diplomatik korpus

Diplomatik korpus keng ma'noda ushbu davlatdagi chet el diplomatik vakolatxonasi diplomatik xodimlari, shuningdek, ularning oila a'zolari yig'indisidir.

Diplomatik korpus tashkilot hisoblanmaydi. Diplomatik korpus boshlig'i unvoni (mansabi) bo'yicha yuqori va tegishli davlatga vakil qilib yuborilgan vaqtidagi jihatidan eng ko'p ishlayotgan diplomatik vakil (duayen, oksokol) sanaladi. Ba'zi xatolik davatlarda diplomatik korpus boshlig'i Rim papasi nunsisi hisoblanadi.

Diplomatik korpusning chiqishi faqat rasmiy tantana vaqtlaridagina (milliy bayramlar, tabriklash marosimlarida) ruxsat beriladi.

Diplomatik korpus a'zolarining diplomatik sifatlarini tasdiqlash uchun ko'pgina davlatlarning maxalliy hokimiyati organlari diplomatik guvoxnomalar beradi.

Diplomatik vakolatxona va uning xodimlarining immuniteti, imtiyozlari va imkoniyatlari

Diplomatik vakolatxona yoki maxsus missiya o'z faoliyatini qabul qiluvchi davlat hududida amalga oshiradi. Ular o'zlarining vakillik xarakteri

va funksiyasidan hamda xodimidan kelib chiqib, qabul qiluvchi davlat tomonidan ta'minlab berilishi lozim bo'lgan alohida yuridik maqomga ega bo'ladilar.

Tashqi aloqalar organlarining ushbu xalqaro-huquqiy maqomi immunitet, imtiyoz va imkoniyat tushunchalari bilan belgilanadi.

Immunitet yuboruvchi davlat tashqi aloqalar organlari va ular xodimlarining vakolat va funksiyalarini qabul qiluvchi davlatdan mustaqil tarzda amalga oshira olishlarini ta'minlaydi.

Imtiyoz va imkoniyatlar ular faoliyatining samaradorligiga ko'maklashish uchun xizmat qiladi.

Diplomatik vakolatxona yoki maxsus missiya va ular xodimlarining immuniteti yuboruvchi davlat organlari sifatida davlat immuniteti degan yanada kengrok tushunchaning emanatsiyasidir.

Davlat immuniteti — tegishli davlatlararo huquqiy munosabatlardan moxiyatining jamlangan kurinishidir. Xalqaro huquqda davlat immuniteti barcha davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda amal qiluvchi davlatlararo munosabatlarning tamoyillaridan (umumiylardan) biridir. U odatiy norma sifatida shakllangan va shu asosda davlatlararo munosabatlarni tartibga solmokda. Hozir mazkur tamoyil yuqorida tilga olingan Konvensiyada ham o'z ifodasini topgan. Shuning uchun uni nafaqat davlatlarning uzoq amaliyotini umumlashtirish natijasida, balki mazkur Konvensiyada o'z ifodasini topgan xalqaro-huquqiy normalar moxiyatidan kelib chiqib ham belgilash mumkin.

Immunitet tamoyili «har bir davlat boshqa bir davlat yurisdiksiyadan immunitet huquqiga ega» ekanligini anglatadi. Immunitet — yurisdiksiyani istisno qilish yoki undan ozod etilishdir. Bu esa o'z o'rnida yurisdiksiyaga buysunmaslik bilan barobar. Shubxasiz, «har bir davlat boshqa bir davlat yurisdiksiyaga buysunmaydi».

«Yurisdiksiya» tushunchasi xalqaro huquqda (shuningdek, milliy huquqda ham) turli ma'nolarda qo'llanadi. Biroq; davlat immuniteti tamoyiliga nisbatan u o'zining keng ma'nosida,

ya'ni davlatning o'z hokimiyati vakolatlarini amalga oshirish tarzida ishlataladi. Boshqacha aytganda, davlat immuniteti tamoyili bir davlatning ikkinchi bir davlatga bo'yusunmasligini anglatadi.

Diplomatik vakolatxona va maxsus missiyalar immunitetiga nisbatan aytilayotgan gap, xususan, qabul qiluvchi davlat hududida ular ega bo'lgan va foydalanayotgan mulk to'g'risida bormokda.

Diplomatik vakolatxona va maxsus missiyalar immuniteti qatoriga:

- birinchidan, ular binolarining (xonalarining) daxlsizligi;
- ikkinchidan, ushbu binolar (xonalar) va ularda joylashgan buyumlar immuniteti, shuningdek, harakat vositalarini tintuvdan, rekviziyyadan, xibsdan va ijro harakatlaridan immuniteti;
- uchinchidan, arxivlar va hujjatlarning har qanday vaqtida va ularning kayerda joylashganidan katiy nazar daxlsizligi kiradi.

Diplomatik agentlar (vakolatxona boshligi va uning diplomatik vakolatxona xodimlari), yuboruvchi davlat maxsus missiyalari vakillari va ular diplomatik xodimlari immuniteti qatoriga:

- birinchidan, ular shaxsining daxlsizligi (jumladan, xibsga olinishlari yoki boshqa biror shaklda ushlanishlari mumkin emas);
- ikkinchidan, ularning shaxsiy xonalari, qog'ozlari, xatlari (diplomatik yozishmalari) va mulki daxlsizligi;
- uchinchidan, vakolatxona joylashgan davlat jinoiy, fuqarolik va ma'muriy yurisdiksiyasi immunitetiga kiradi.

Mazkur shaxslar immunitetidan ularni yuboruvchi davlat voz kechishi mumkin. Chunki immunitet alohida shaxslar foydasi uchun emas, balki ushbu davlat nomidan vakillik qilayotgan davlat organlari funksiyasining samarali amalga oshirilishini ta'minlash uchun beriladi.

Xalqaro huquqning umumiyligi tamoyillaridan biri hisoblanmish davlat immunitetidan kelib chiquvchi davlatning tashqi aloqalar xorijiy organlari immunitetlarining mazmuni shunday ko'rinishga ega. Ushbu tamoyil (umumiyligi norma) imperativ xarakter kasb etmaydi. Boshqacha aytganda, undan chekinish nafakdt xalqaro huquqqa muvofiq balki manfaatdor davlatlar o'rtaсидаги о'заро kelishuv asosida (shartnomada aniq ifodalangan yoki boshqa tarzda) ham amalga oshirilishi mumkin.

Davlatning tashqi aloqalar xorijiy organlari (va ularning xodimlari) immunitetlardan tashqari xalqaro huquqdo muvofiq ma'lum imtiyozlardan ham foydalanishlari mumkin.

Imtiyozlar — xorijiy vakillik organlari (va ular xodimlari) faoliyatining imtiyozli shartlari bo'lib, odatda ulardan milliy yuridik va jismoniy shaxslar foydalanmaydilar. Mazkur imtiyozli shartlar bunday vakillik organlarining rasmiy xalqaro-huquqiy maqomini inobatga oladi va ularga o'zaro asoslarda mazkur organlar funksiya va vakolatlarining faoliyatini samarali amalga oshirishlariga kumaklashish maqsadida beriladi.

1961 va 1969 yillar konvensiyalariga muvofiq bunday imtiyozlar qatoriga:

- birinchidan, xorijiy davlat vakillik organining uni yuboruvchi davlat hukumati va uning xorijiy organlari bilan barcha qonuniy vositalar yordamida, shu jumladan, diplomatik kuryerlar, kodlangan yoki shifrlangan diplomatik maktublar (depesha), shuningdek, vakolatxona joylashgan davlat roziliqi bilan radioo'zatgichlardan foydalangan xolda barcha rasmiy maqsadlarda aloqalarni boglab turish;
- ikkinchidan, xorijiy davlat vakillik organining, u egallab turgan binolarga nisbatan, alohida ko'rsatilgan xizmatlarga to'lovlardan tashqari barcha davlat, tuman va maxalliy (munitsipal) soliq, yig'im va bojlardan ozod etilishi;
- uchinchidan, vakillik tomonidan foydalanish uchun belgilangan narsalarni bojxona bojlari, soliqlar va yig'implari tulanmasdan olib kirish huquqi (ba'zi istisnolardan tashqari);
- to'rtinchidan, vakolatxona va uning boshligi tomonidan yuboruvchi davlat bayrogi va gerbini vakolatxona xonalariga, shu jumladan, vakolatxona boshligi qarorgoxiga va u foydalanadigan transport vositalariga osib qo'yish hyquqiga kiradi.

Diplomatik agentlar, yuboruvchi davlat maxsus missiya vakillari va uning diplomatik xodimlari quyidagi imtiyozlardan foydalanadilar:

- birinchidan, missiya joylashgan davlat hududi buylab erkin harakat qiladi (belgilangan istisnolar bilan);
- ikkinchidan, barcha davlat, tuman va maxalliy (munitsipal) soliq, yig‘im va bojlardan ozod etiladi;
- uchinchidan, ularning xarakteridan qat’iy nazar, barcha mexnat va davlat majburiyatlaridan, shu jumladan, harbiy majburiyatlardan (rekvizitsiya, tovon to‘lash va uylarni kunok; harbiylar kunishidan ozod qilish kabilardan) ozod etiladi;
- to‘rtinchidan, ko‘rsatilgan shaxslar va ularning oila a’zolari shaxsiy foydalanishlari uchun belgilangan narsalarni bojxona bojlari, soliqlar va yig‘imlari tulanmasdan olib kirish huquqi;
- beshinchidan, agar ularning shaxsiy yuklarida missiya joylashgan davlatga olib kirish va olib chiqib ketish ta’kiklangan narsalarning borligini tasdiqlovchi jiddiy asoslar mayjud bo‘lmasa, ularni tekshirishdan ozod etiladi.

Bundan tashqari, qabul qiluvchi davlat xorijiy davlat tashqi aloqalar organiga ularni o‘z funksiyalarini samarali bajara olishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishi lozim.

Imkoniyatlar — vakolatxona joylashgan davlat, agar bunga zaruriyat bo‘lsa, xorijiy davlatga, uning vakillik organlari va xodimlari timsolida ega bo‘lishi uchun yordam berishi mumkin yoki lozim bo‘lgan ne’mat va imtiyozlardir.

Bu yerda gap vakolatxona uchun binoga ega bo‘lish yoki xodimlar uchun yashash xonalarini aniqlash, turli xildagi rasmiy maktublarni yuborishda imtiyozli huquqlar bilan ta’minalash, o‘zokda katnaydigan jamoatchilik transportlaridan imtiyozli foydalanish, kundalik turmush extiyojlar uchun zarur buyumlarni olish va shunga o‘xshash imtiyoz va xizmatlar to‘g‘risida bormokda.

Diplomatik vakolatxonaning asosiy majburiyati — o‘z binosidan faqat rasmiy maqsadlarda foydalanish va rasmiy aloqalarni faqat tashqi ishlari idorasi yoki kelishilgan xolda boshqa maxkamalar orqali amalgalashdir.

Diplomatik vakolatxona xodimlari majburiyatlar diplomatik vakolatxona joylashgan davlat qonun va qarorlarini xurmat qilish hamda uning ichki ishlari aralashmaslikda o‘z ifodasini topadi. Diplomatik vakolatxona joylashgan davlatda diplomatga shaxsiy manfaatlarni ko‘zlab kasb va tijorat faoliyati bilan shug‘ullanish taqiqlanadi.

Davlatlarning xalqaro tashkilotlar xo‘zuridagi doimiy vakolatxonalarini

Diplomatik huquqning tegishli normalari 1975 yilda qabul qilingan Vena konvensiyasida kodifikatsiya qilingan. Mazkur Konvensiyada davlatlarning universal xarakterdagи xalqaro tashkilotlar xo‘zuridagi vakilligi, ushbu tashkilotlarning organlarida a’zo-davlatlar yoki a’zo bo‘limgan davlatlar (ko‘zatuvchilar) vakilligi hamda universal xarakterdagи xalqaro tashkilotlar tomonidan yoki ularning raxbarligida chakiriladigan xalqaro konferensiyalardagi vakilligi to‘g‘risida so‘z boradi.

Xalqaro tashkilotlar xo‘zuridagi doimiy vakolatxonalar deganda, a’zo-davlatlarning doimiy vakolatxonalarini va tashkilotga a’zo bo‘limgan davlatlarning ko‘zatuvchi doimiy missiyalari tushuniladi. Xalqaro tashkilotlar organlari va konferensiyalarga moslab oladigan bo‘lsak, ularning ishida katnashayotgan davlatlar delegatsiyalari va ular ishini ko‘zatib boruvchi delegatsiyalar to‘g‘risida so‘z boradi.

Universal xarakterdagи xalqaro tashkilot — bu Birlashgan Millatlar Tashkiloti, uning ixtisoslashgan muassasalarini, Atom energiyasi bo‘yicha xalqaro agentlik va a’zolari tarkibi va javobgarligi keng bo‘lgan xalqaro xarakter kasb etuvchi sho‘nta o‘xshash har qanday tashkilotlardir.

Diplomatik huquqda tegishli ushbu huquq sohasining o‘ziga hos jihatlari markaziy muassasalar, ularning bo‘limlari, tashkilot organlari yoki xalqaro konferensiyalarning o‘z

faoliyatlarini o‘zga davlat hududida uning yurisdiksiyasidan ozod etilgan va tegishli o‘zaro kelishilgan imtiyoz va imkoniyatlardan foydalangan xolda amalga oshirishida namoyon bo‘ladi. Davlatning xalqaro tashkilotlar xo‘zuridagi doimiy vakolatxonalar, xalqaro organlar va konferensiyalardagi delegatsiyalari ular joylashgan davlat bilan bevosita xech qanday aloqalarga kirishmagan xolda uning yurisdiksiyasidan immunitetga ega bo‘ladi hamda, agar ushbu davlat va xalqaro tashkilot uchun Konvensiya kuchda bo‘lsa, unda belgilangan imtiyoz va imkoniyatlardan ham foydalanadilar.

Konsullik huquqining tushunchasi va manbalari.

Konsullik huquqini konsullik muassasalari faoliyatini tartibga solish va ularning xodimlari maqomi, funksiyalari, huquq va majburiyatlarini belgilovchi xalqaro-huquqiy tamoyil va normalar majmui sifatida ta’riflash mumkin.

Konsullik huquqi manbalari xalqaro shartnomalar va xalqaro odat normalaridir.

Konsullik huquqi — davlatlar o‘rtasidagi konsullik aloqalarini tartibga solishga xizmat qiluvchi xalqaro huquq institutlaridan biridir. uning normalari 1963 yilgi Vena konvensiyasida kodifikatsiya qilingan. Davlatlarning keng tarqalgan amaliyotlaridan biri xalqaro huquqning tegishli kridalarini aniqlashtiruvchi yoki ularga boshqacha shakl beruvchi ikki tomonlama konsullik konvensiyalarining to‘zilishidir. Misol uchun, konsullik organlari deb nomlanuvchi konsullik muassasalari faoliyati doirasini belgilovchi konsullik vakolatxonasi joylashgan davlat hududi chegaralarini aniqlashga karatilgan konvensiyalar.

Konsullik masalalari bo‘yicha xalqaro shartnomalar ham ikki tomonlama, ham ko‘p tomonlama asosda to‘ziladi. 1963 yilda qabul qilingan Konsullik aloqalari to‘g‘risidagi Vena konvensiyasi universal ahamiyatga ega. Konvensiya 1967 yil 18 martda kuchga kirdi. O‘zbekistan Respublikasi ushbu konvensiyani 1995 yilda ratifikatsiya qilgan.

Konsullik huquqida konsullik masalalari bo‘yicha konvensiyalar va ikki tomonlama shartnomalar muhim urin tutadi. Shuningdek, konsullik organlari maqomi, funksiyalari, to‘zilishni hamda xorijiy konsullik muassasalari huquqiy holatini belgilab beruvchi milliy qonunchilik qoidalari ham katta ahamiyatga ega.

Konsullik muassasalari toifalari va xodimlari

Konsullik muassasalari — xorijiy davlat hududida joylashgan va o‘z davlati, uning fuqarolari va tashkilotlari manfaatlarini ximoya qilish bilan bog‘liq funksiyalarni amalga oshiruvchi davlatning doimiy tashqi aloqalar organi hisoblanadi.

Mustaqil konsullik muassasalari:

- birinchidan, bosh konsullik;
- ikkinchidan, konsullik;
- uchinchidan, vitse — konsullik;
- to‘rtinchidan, konsullik agentliklari kabi toifalarga bo‘linadi.

Diplomatik vakolatxonalarining konsullik bo‘limlari mudir tomonidan boshariladi. U konsul yoki bosh konsul deb nomlanishi mumkin.

Konsullik muassasalari toifalariga mos tarzda ular boshliklarining toifalari:

- birinchidan, bosh konsullar;
- ikkinchidan, konsullar;
- uchinchdan, vitse — konsullar;
- to‘rtinchidan, konsullik agentliklari aniqlanadi.

Davlat konsulxona mansabdor shaxsini vakil qilib tayinlashda o‘nta konsullik patentini takdim qiladi. Unga asosan qabul qiluvchi davlat mazkur shaxsga konsullik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi hujjat topshiradi. Ushbu hujjat ekzekvatura deb nomlanadi.

Konsullik aloqalarining o‘ziga hosligi shundaki, ular diplomatik munosabatlari o‘rnatilmagan holatlarda ham o‘z faoliyatlarini olib borishlari mumkin va xatto davlatlar

o‘rtasida diplomatik munosabatlarning o‘zilishi ham ipso facto konsullik aloqalarining bekor bo‘lishiga olib kelmaydi.

1963 yilgi Konvensiyada belgilangan konsullik funksiyalari ham o‘ziga hos. Konsulxonaning eng asosiy funksiyasi — konsulxona joylashgan davlatda (odatda konsulxona okrugi chegarasida) xalqaro huquq tamoyillariga muvofiq ravishda vakil qilib yuborgan davlat va uning fuqarolari (yuridik va jismoniy shaxslari) manfaatlarini ximoya qilishdir.

Konsullik muassasalari:

- Birinchi — hokimiyat organlariga konsullik muassasalari joylashgan davlatning iqtisodiy, savdo, ijtimoiy, madaniy va siyosiy xayoti to‘g‘risida axborotlar berib turish;
- Ikkinci — o‘z davlati fuqarolarini konsullik muassasasi joylashgan davlat qonun va odatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan ta’minalash;
- Uchinchi — konsullik muassasasi joylashgan okrug hududida o‘z davlati fuqarolarini hisobga olish;
- To‘rtinchi — konsullik muassasasi joylashgan okrugda joylashgan o‘z davlati fuqarolarini, davlat organ va tashkilotlari vakillariga, shuningdek, harbiy va fuqarolik kemalari hamda havo kemalariga, ularning ekipajiga amaliy yordam berish va konsullik faoliyatini amalga oshirish;
- Besinchi — pasport — viza faoliyatini amalga oshirish;
- Oltinchi — fuqarolik holati dalolatnomalarini kayd etish idoralari funksiyasini bajarish, notarial harakatlarni amalga oshirish;
- Yetinchi — konsullik legalizatsiyasi bilan shug‘ullanish, ya’ni konsullik muassasasi joylashgan davlat organlaridan chiqadigan hujjatlar imzolarini belgilash va ularning xakikiyigini va ushbu hujjatlarning shu davlat qonun va qoidalariga muvofiqligini tasdiqlash;
- Sakkizinchi — talab qilib olingan hujjatlar bo‘yicha shunday amallarni amalga oshirish;
- Tukkizinchi — konsullik muassasasi joylashgan davlatda voyaga yetmaganlar va to‘liq muomala layokatiga ega bo‘lмаган shaxslarning huquq va manfaatlarini ximoya qilish;
- Uninchisi — sud va boshqa muassasalarda o‘z fuqarolari manfaatlarini yoklab chiqish va vakillar bilan ta’minalash bo‘yicha zaruriy chora-tadbirlarini kurish;
- Un birinchi — o‘z davlati tergov yoki sud organlarining topshiriklarini bajarish kabi funksiyalarni bajaradi.

Ma’lum bir xorijiy davlatda diplomatik vakolatxonaning yo‘qligi diplomatik funksiyalarni bajarishni konsullik muassasasiga yuklash amaliyoti umum tan olingan qoidaga aylangan.

Xalqaro huquq shuningdek, konsul tomonidan uchinchi bir davlat nomidan va uning manfaatlari yo‘lida ma’lum funksiyalarni bajarish imkoniyatiga ham yo‘l kuyadi.

Konsullik muassasasi u joylashgan davlat hududida tegishli harakatlarni amalga oshirganligi uchun konsullik yig‘imlarini undirish huquqiga ega. O‘z faoliyatlarini amalga oshirish davomida konsullik muassasalari konsullik muassasasi joylashgan davlatning ichki ishlariiga aralashmasliklari lozim.

Konsullik muassasasi joylashgan davlat o‘z navbatida konsullik muassasasiga va uning xodimlariga xurmat ko‘rsatishi va ishlashi uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratib berishi lozim.

Konsullik muassasalari va ular xodimlarining immunitet va imtiyozlari

Konsullik muassasalari va ular xodimlari uchun immunitet va imtiyozlar 1963 yilda qabul qilingan Konsullik aloqalari to‘g‘risidagi Vena konvensiyasida belgilanganidek, «alohida shaxslar foydasi uchun emas, balki konsullik muassasalarining davlat nomidan o‘z funksiyalarini samarali amalga oshira olishlarini ta’min etish uchun» beriladi.

Konsullik muassasalari va ularning xodimlari immunitetlari moxiyatdan diplomatik immunitetlar bilan mosdir, Biroq, imtiyoz va imkoniyatlari konsullik funksiyalarining o‘ziga hosligini inobatga olganda anchayin keng.

Konsullik muassasalari immunitet va imtiyozlari ichida konsullik binolarining daxlsizligi eng muhim ahamiyat kasb etadi.

Arxivlar va konsullik muassasalari hujjatlari ham hamma vaqt kayerda joylashganidan qat'iy nazar daxlsiz hisoblanadi.

10 mavzu.

XALKARO TASHKILOTLAR HUQUQI.

- Xalqaro tashkilotlar tushunchasi va tasnifi.
- Xalqaro tashkilotlarning yuridik tabiatи.
- Xalqaro tashkilotlarning huquqlari, vakolatlari va funksiyalari.
- Xalqaro tashkilotlar organlari.
- Xalqaro tashkilotlar tomonidan qaror qabul qilinishi.
- Birlashgan Millatlar Tashkiloti organlarining roli va tizimi.
- BMTning ixtisoslashgan muassasalari.
- Mintaqaviy xalqaro tashkilotlar.
- Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti.
- Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi.
- Xalqaro konferensiyalar.

Xalqaro tashkilotlar tushunchasi va tasnifi

Hozirgi zamон xalqaro aloqalarida xalqaro tashkilotlar davlatlar hamkorligining shakllaridan biri sifatida muhim rol o'ynaydi.

Xalqaro tashkilotlar tizimining murakkablashib borishi va vakolatlarining kengaytirilishi tabiiy tus olmokda. XXI asr boshida faoliyat ko'rsatayotgan xalqaro tashkilotlarning soni 4 mingdan ortik, bo'lib, 300 tasi hukumatlararo tashkilotlardir. Ular o'rtasidagi aloqalar va olib borilayotgan hamkorlik ko'lami xalqaro tashkilotlar tizimi haqida gapirishga imkon beradi.

«Xalqaro tashkilotlar» atamasi odatda davlatlararo (hukumatlararo) va nohukumat tashkilotlarga nisbatan qo'llaniladi. Davlatlararo (hukumatlararo) tashkilot uchun quyidagi belgilar xarakterlidir:

- birinchidan, davlatlarning a'zoligi;
- ikkinchsdan, xalqaro ta'sis shartnomasining mavjudligi;
- uchinchidan, doimiy organlarining mavjud bo'lishi;
- to'rtinchidan, davlatlar suverenitetining xurmat qilinishi;

Xalqaro tashkilotlar xalqaro huquqning subyektlari hisoblanadilar.

Nohukumat xalqaro tashkilotlarning asosiy farqli belgilari ularning davlatlararo shartnoma asosida tashkil etilmaganliklari, jismoniy va yuridik shaxslarni birlashtirganliklari (masalan, Xalqaro huquq assotsiatsiyasi)dan iborat.

Azolarining tarkibiga ko'ra xalqaro hukumatlararo tashkilotlar:

- birinchi, universal, barcha davlatlar ishtiroy etishlari uchun ochiq tashkilotlar (BMT va uning ixtisoslashtirilgan tashkilotlari);
 - ikkinchi, mintaqaviy, ma'lum mintakada joylashgan davlatlarga a'zo bo'lishlari mumkin tashkilotlar (Yevropa kengashi, Afrika birligi tashkiloti)ga bo'linadi.

Davlatlararo tashkilotlar umumiyligi va maxsus vakolatli tashkilotlarga bo'linadi.

Umumiyligi vakolatli tashkilotlar faoliyati a'zo davlatlar o'rtasidagi aloqalarning hamma (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa) sohalariga tegishli bo'ladi.

Maxsus vakolatli tashkilotlarning faoliyat sohasi biror aniq, (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy) soha bilan chegaralangan bo'ladi.

Vakolatlari tabiatidan kelib chikdan xolda tasniflash davlatlararo va davlatlardan yuqori turuvchi tashkilotlarni farqlashga imkon beradi. Birinchi guruhga mavjud tashkilotlarning aksariyat qismi kiradi va ularning vazifasi davlatlar o'rtasida hamkorlikni amalga oshirishdan iborat bo'lib, bu borada qabul qilingan qarorlar a'zo davlatlarga yuboriladi. Davlatlardan yuqori turuvchi tashkilotlar maqsadi integratsiyaga yunaltirilgan. Bu tashkilotlarning qarorlari a'zo tashkilotlarning fuqarolari va yuridik shaxslariga bevosita yunaltirilgan bo'ladi.

Xalqaro tashkilotlarning yuridik tabiatini

Xalqaro tashkilotlar yuridik tabiatining asosini umumiylar maqsadlar, qiziqishlar tashkil etadi.

Xalqaro tashkilotlarning tashkil etilishida davlatlar suveren tengligi tamoyili yetakchi hisoblanadi. Bu:

- birinchidan, xalqaro tashkilotning shartnoma asosida tashkil etilganligi va a'zo bo'lishning ixtiyoriyligi;
- ikkinchidan, xalqaro tashkilot qarorlarining asosan tavsiyaviy xarakterga egaligi;
- uchinchidan, xalqaro tashkilotning davlatlararolik xususiyati, davlatlarning o'zaroyli tengligi va suverenitetining saklanishida kurinadi.

Xalqaro tashkilotning yuridik tabiatini uchun asosiy narsa shundaki, uning maqsadlari, faoliyati tamoyillari, vakolatlari, to'zilishi va boshqalar kelishilgan shartnomaga asoslangan bo'ladi.

Albatta xalqaro tashkilotlarning muayyan vakolatlar va majburiyatlarga ega bo'lishlari ularning xalqaro huquqning asosiy subyektlari hisoblanuvchi, davlatlar bilan tenglashtirilishi degan ma'noni anglatmaydi.

O'z vazifalarini bajarishlari uchun xalqaro tashkilotlar kerakli yuridik vositalarga ega bo'lishlari kerak. Shu urinda BMT Ustavining 104-moddasida: «Birlashgan Millatlar Tashkiloti har bir a'zo davlat hududida o'z vazifalarini amalga oshirish va maqsadlariga erishish uchun kerak bo'ladigan vakolatlardan foydalanadi», — deyiladi.

Xalqaro tashkilotlarga shartnomalar to'zish huquqi beriladi, ya'ni ular o'z vakolatlari chegarasida turli bitimlar to'zadilar.

Shartnomalar to'zish huquqi ikki xil yo'l bilan: tashkilot vazifa va maqsadlaridan kelib chiqqan xolda istalgan shartnomalarni to'zish huquqini beruvchi umumiylar nizomda yoki alohida vakolat orqali mustahkamlanadi.

1993 yilda O'zbekiston Respublikasi hukumati va BMT o'rtasida iqtisodiy usishning muhim muammolarini xal etishga kumaklashish, ijtimoiy sohaning ildamlashiga kumaklashish, aholi turmush tarzini yaxshilash maqsadlarini ko'zlab BMTning organlari, fondlari va dasturlarini birlashtiruvchi qo'shma vakolatxona to'zish haqida bitim imzolangan edi.

Xalqaro tashkilotlar va ularning xodimlari immunitet va huquqlardan foydalanadilar.

Xalqaro huquqning subyekti sifatida xalqaro tashkilotlar o'z faoliyatlarini natijasida kelib chiquvchi zarar uchun javobgardirlar va da'vo bilan murojaat qilishlari ham mumkin.

Xalqaro tashkilotlarning huquqlari, vakolatlari va funksiyalari

Ko'pchilik xalqaro huquq bo'yicha yuristlarning fikricha xalqaro tashkilotning vakolatlari uning faoliyat sohasi predmetidan kelib chikadi va uning organlari huquq va vakolatlarida namoyon bo'ladi.

Xalqaro tashkilotning huquqlari doirasi unga bevosita berilgan vakolatlarni ham kamrab oladi.

Xalqaro tashkilotning funksiyalari xususida ran ketganda, tartibga soluvchi, nazoratchilik, operativ va boshqa funksiyalar tushuniladi. Bu ma'noda xalqaro tashkilot faqat o'z vakolatlaridan kelib chiquvchi vazifalarni bajaradi.

Xalqaro tashkilotning huquqlari uning huquq subyektligi kabi shartnomaviy asosga ega

bo‘ladi va shu shartnoma doirasida chegaralanadi.

Xalqaro tashkilot organlari

Xalqaro tashkilot organlari uning tarkibiy kismlari va bo‘linmalaridir. Xalqaro tashkilot organlarining xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- birinchidan, xalqaro tashkilotning organi ta’sis etuvchi yoki boshqa akt asosida tashkil etiladi;
- ikkinchidan, unga ma’lum huquq va vakolatlar berilgan bo‘ladi;
- uchinchidan, ichki to‘zilishga va ma’lum tarkibga ega bo‘ladi;
- to‘rtinchidan, qarorlar chikarish tartibiga ega;
- beshinchidan, ta’sis etuvchi yoki boshqa aktlarda uning huquqi maqomi belgilab berilgan bo‘ladi.

Xalqaro tashkilotlar organlarini turli belgilarga ko‘ra tasniflash (klassifikatsiyalash) mumkin. A’zolik belgisiga kugra tashkilotlar hukumatlararo, parlamentlararo, ma’muriy, jismoniy shaxs sifatida qabul etilgan a’zolardan, turli ijtimoiy guruhlar vakillari a’zoligidan iborat bo‘lishlari mumkin.

A’zo davlatlarning vakillari yuboriladigan hukumatlararo organ eng muhim hisoblanadi.

Ma’muriy organ har qanday tashkilotning eng muhim tarkibiy tuzilmasidir. U faqat mazkur xalqaro tashkilot oldida javobgar bo‘lib, uning nomidan ish kuruvchi mansabdor shaxslardan tarkib topadi.

A’zolarining soniga ko‘ra organlar ikki guruhga: a) umumiyligi, ya’ni barcha a’zo davlatlar kiruvchi va b) a’zoligi cheklangan organga ajratilishi mumkin. Xalqaro tashkilotlarning siyosatini umumiyligi a’zolikka asoslangan organ belgilaydi. Quyidagi eng asosiy muammolar:

- birinchidan, umuman tashkilotning siyosati va tamoyillari;
- ikkinchidan, loyixalar, konvensiyalar va tavsiyanomalar qabul qilish;
- uchinchidan, budget va moliya masalalari;
- to‘rtinchidan, Ustav (nizom)ni qayta ko‘rib chiqish va unga o‘zgartirishlar kiritish;
- beshinchidan, tashkilotta a’zolar qabul qilish masalasining yechimi uning ixtiyoriga koldiriladi.

Shu bilan birga ko‘pgina tashkilotlar faoliyatida (masalan, Xalqaro mexnat tashkiloti, Xalqaro fuqarolik aviatsiyasi tashkiloti) a’zoligi cheklangan organning roli ortib borishi kurinadi.

Mazkur organlar ishi bir-ikki a’zo davlatning qiziqishlaridan kelib chiqib emas, balki barcha a’zo davlatlarning manfaatlaridan kelib chiqqan xolda ishlarini tashkil etishlari lozim. Xalqaro tashkilotning a’zolar tarkibi cheklangan organini tashkil etishda:

- odil jug‘rofiy taqsimot;
- alohida qiziqishlar mavjudligi;
- manfaatlari mos tushmayotgan davlatlar guruhlarining teng vakillikka ega bo‘lishlari;
- kichik moliyaviy ulush qo‘sish;
- siyosiy vakillik tamoyillariga tayaniladi.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan qarorlar qabul qilinishi

Xalqaro tashkilot tomonidan qabul qilingan qarorni mazkur tashkilot ustaviga va boshqa qoidalarga muvofiq ravishda ayni vakolatga ega organ tomonidan a’zo davlatlarning o‘z irodalarini bildirishlari, deyishimiz mumkin. Qarorlarning shakllantirilishi jarayoni:

- birinchidan, ta’sis etuvchi hujjat vakolatlariga;
- ikkinchidan, ish yuritish qoidalalariga;
- uchinchidan, organ tarkibiga bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Qaror qabul qilinishi jarayoni tashabbusning tugilishi bilan boshlanadi. Bunday tashabbus davlat, davlatlar guruhi, organ yoki xalqaro tashkilot mansabdor shaxslari tomonidan ko'rsatilishi mumkin. Odatda tashabbuskor ma'lum muammoni ko'rib chiqishni taklif etadi. Ko'p xollarda u bulajak qarorning loyixasini ham taklif etishi mumkin.

Xalqaro tashkilotlar tajribasida hammualliflik ham keng qo'llaniladi. Bunday xollarda hammualliflar sonining ortib ketishi loyixaning ayrim bandlari bo'yicha bir tuxtamga kelishda qiyinchiliklar tug'dirishi mumkinligini ham hisobga olish kerak.

Qarorning shakllanishidagi keyingi boskich muammoning kun tartibiga kiritilishidir. Ko'pgina xalqaro tashkilotlarda muammoning yalpi majlis kun tartibiga qo'yilishidan oldin mazkur masala tashkilotning ishchi guruhlari tomonidan ko'rib chiqiladi va ayni shu jarayonda qaror loyixasi ishlab chiqilib, uning tarafdarlari va qarshilik ko'rsatuvchilar ma'lum bo'ladi.

Qarorning muxokama etilishi xalqaro tashkilotning qaror qabul qilish jarayonining muhim bosqichi hisoblanadi. Ushbu muxokama bevosita siyosiy ahamiyat va yuridik natijaga egadir. Qaror qabul qilinishi jarayonining xal etuvchi bosqichi ovoz berilishidir. Xalqaro tashkilotlarning aksariyat organlarida har bir delegatsiya bir ovozga ega bo'ladi. Faqat ayrim qaror qabul qilishning farqli tizimiga ega organlarda mavjud me'yordan kelib chiqqan xolda davlatlarning ovoz berishlari o'zgarishi mumkin.

Masalan, BMT tizimidagi moliyaviy organlarda har bir davlat o'z a'zolik badalining mikdoridan kelib chiquvchi ovoz soniga ega.

Har bir organning tartib qoidalarida qaror qabul qilinishi uchun lozim ovoz mikdori belgilanadi.

Qarorlar bir ovozdan, ko'pchilik tomonidan yoki sifatiy mikdor farqi bilan qabul qilinishi mumkin.

Ko'pchilik ovoz va sifatiy mikdor farqi mutlak yoki nisbiy bo'lishi mumkin. Mutlak ko'pchilik barcha a'zolarning hisobga olinishlarini anglatsa, nisbiy ko'pchilik faqat ovoz berish jarayonida hozir bo'lgan a'zolarni hisobga oladi. Ba'zi xollarda xalqaro tashkilot organida qaror ovozga qo'yilmay, ya'ni akklamatsiya yo'li bilan (ma'qo'llash yoki ma'kullamaslik asosida) yoki e'tirozlarsiz qabul qilinishi mumkin. Xalqaro tashkilotlar faoliyati amaliyotida so'nggi vaqtarda konsensus asosida qaror qabul qilish xollari ko'p uchramokda. Bunday qaror qabul qilish barcha davlatlarning manfaatlarini hisobga olgan rozilikka asoslanganligi bilan o'ziga hosdir.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti organlarishshg roli va tizimi

BMT — tinchlikni va xalqaro xavfsizlikni qo'llab-kuvvatlash, davlatlararo hamkorlikni rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan universal tashkilotdir. BMT Ustavi San-Fransiskoda utkazilgan konferensiyada imzolangan bo'lib, 1945 yildan kuchga kirgan. BMT Ustavi barcha davlatlar rioya etishlari shart bo'lgan yagona xalqaro hujjatdir. BMT Ustavining ahamiyati nafaqat uning tinchlikni ta'minlovchi tashkilotning faoliyatini tartibga soluvchi hujjatligida, balki barcha davlatlar uchun teng bo'lgan jamoa ximoya tizimining yaratilishida asos bo'lib xizmat qilishi va davlatlar tomonidan olib boriladigan harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ekologik, insonparvarlik sohalaridagi faoliyatlarini belgilovchi o'ziga hos kodeks ekanligida hamdir. BMT Ustavi doirasida ko'p tomonlama kelishuv va shartnomalarning ko'p tarmoqli tizimi vujudga kelgan. BMT to'zilishining asosiy sabab va maqsadlari uning Ustavi «Mukaddima»sida quyidagicha ifodalangan.

BMT Ustavida uning 6 ta asosiy organlari ko'rsatilgan. Ular quyidagilardir:

- Bosh Assambleya;
- Xavfsizlik Kengashi;
- Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash (EKOSOS);
- Vasiylik bo'yicha Kengash;
- Kotibiyat;
- Xalqaro Sud.

Bosh Assambleya — suveren davlatlarning xakikiy demokratik vakillik organidir. Har bir a'zo davlat hududining hajmi, aholining soni, iqtisodiy va harbiy kudratidan katyi nazar, bir ovozga ega. Bosh Assambleyaning muhim qarorlari ovoz berish jarayonida ishtirok etayotgan davlatlarning ko'pchiligi tomonidan qabul qilinadi.

U Xavfsizlik kengashining nodoimiy a'zolarini saylash, EKOSOSning a'zolarini saylash, BMT yangi a'zolarini qabul qilish, BMT Bosh Kotibini tayinlash, tashkilot a'zolarining huquq va vakolatlarini cheklash, tashkilot a'zoligidan chikarish, budget va boshqa texnik-ma'muriy masalalar bo'yicha Bosh Assambleya bajarilishi shart bo'lган qarorlar qabul qilish kabi muhim ishlarni bajaradi. Xalqaro xavfsizlik va tinchlikni qo'llab-kuvvatlashga karatilgan masalalar bo'yicha u tavsiyaviy xarakterga ega rezolyutsiya va deklaratsiyalar qabul qiladi.

Bosh Assambleya ishida BMTga a'zo bo'lмаган BMT koshida doimiy ko'zatuvchilarga ega bo'lган (Vatikan, Shveysariya) va ega bo'lмаган davlatlar ham ishtirok etishlari mumkin. Bundan tashqari Falastin Ozodlik Harakati Tashkiloti, boshqa bir qator xalqaro tashkilotlar va BMTning ixtisoslashgan muassasalari dam doimiy ko'zatuvchi maqomiga egadirlar.

Xavfsizlik Kengashi — BMTning eng muhim organi bo'lib, 15 a'zodan iborat. Ushbu a'zolarning beshtasi (AKSH, Buyuk Britaniya, Rossiya, Fransiya va Xitoy) doimiy, kolgan o'ntasi nodoimiy bo'lib, ular saylanadilar.

Xavfsizlik Kengashining qoidalariga tegishli masalalar bo'yicha qarorlar a'zolarning istalgan tukkiztasi yoklab ovoz bergen takdirda qabul qilinadi. Kolgan barcha masalalar bo'yicha qarorlar Kengashning barcha doimiy a'zolari ovozlarini kushib hisoblaganda tukkizta a'zo yoklab ovoz bergen takdirda qabul qilinadi. Boshqacha qilib aytganda, doimiy a'zolardan bittasi yoki bir nechta biror-bir qarorga nisbatan qarshi ovoz bersa, bu qaror qabul klinmaydi. Bunday holat veto qo'yilishi deb ataladi.

BMT Ustaviga ko'ra Xavfsizlik Kengashi urushning oldini olish, davlatlarning tinch hamkorlik qilishlariga shart-sharoitlar yaratishda katta vakolatlarga ega.

Xavfsizlik Kengashi tomonidan BMT Ustaviga muvofiq qabul qilingan ba'zi qarorlar me'yor o'rnatuvchi mazmunida bo'lishi mumkin.

MT tizimi Xavfsizlik Kengashi tomonidan qabul qilingan qarolarning boshqa organ tomonidan qayta ko'rib chiqilishi yoki da'vo qilinishi imkonini bekor qiladi. Bu qarorlar mukammal sanaladi va tekshirilishi mumkin emas.

BMT Ustaviga muvofiq Xavfsizlik Kengashi doimiy faoliyat ko'rsatishi va a'zo davlatlar nomidan tez va samarali ish kurmogi lozim. Shu maqsadda Xavfsizlik Kengashining har bir a'zosi BMT qarorgoxida doim o'z vakiliga ega bo'lishi kerak.

Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash (EKOSOS) xalqaro iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlik masalalariga doir faoliyatni olib boradi. EKOSOS 54 a'zodan iborat bo'lib, ular Bosh Assambleya tomonidan uch muddatga saylanadilar va har yili vakolatlari tugagan 18 a'zoning o'rniga yangilari saylab boriladi.

EKOSOS BMT Ustavidan kelib chiqqan xolda davlatlar o'rtasida iqtisodiy ilmiy-texnikaviy hamkorlikni ta'minlash, uni muvofiqlashtirish y^lida samarali ish olib borishi, xalqaro huquqiy hujjalarning ishlab chiqilishida ishtirok etishi va davlatlar iqtisodiy xavfsizligini kafolatlovchi institutlar va mexanizmlar ishlab chiqishi lozim.

Vasiylik bo'yicha Kengash — bu uning otaligidagi hududlarda xukmronlik qilish huquqiga ega va majburiyatlarni bajarilishini nazorat qiluvchi BMT organidir. Hozirgi kunda uning besh a'zosi (AKSH, Angliya, Rossiya, Fransiya, Xitoy) bor. Kengash har yili Nyu-Yorkda bir sessiya utkazadi. AKSH boshqaruvida bo'lган dastlabki ikki hududdan faqat bittasi — Tinch okeani orollari (Mikroneziya) koldi.

BMT Kotibiyati Bosh Kotib va tashkilotga lozim mikdordagi xodimdan iboratdir. Ushbu organ BMTning boshqa organlari tomonidan qabul qilingan qarolarning xayotga tadbik etilishini ta'minlaydi va BMT asosiy va yordamchi organlariga konferensiyaviy va boshqa xizmatlar ko'rsatadi.

Kotibiyat:

- birinchi, Xavfsizlik Kengashi sanksiyalaridan kelib chiquvchi, tinchlikni ta'minlovchi operatsiyalarni olib borish;
- ikkinchi, tinchlik mazmunidagi xalqaro konferensiyalarni tashkil etish va uggkazish (Dengiz huquqi bo'yicha konferensiya);
- uchinchi, jahon mikyosidagi iqtisodiy va ijtimoiy muammolar yuzasidan obzorlar tayyorlash;
- To'rtinchi, quolsizlanish va inson huquqlarining rivojlanishi kabi sohalar bo'yicha tekshiruvlar ugkazish singari ishlarni bajaradi.

BMT Kotibiyatiniig funksiyalari quyidagilardan iborat:

- BMT tizimidagi organlarga xizmat ko'rsatadi;
- BMT tizimidagi organlar tomonidan dasturlarning ishlab chikarilishi va ular tomonidan ishlab chiqilgan siyosatning amal ga joriy etilishini ta'minlaydi;
- BMT shugullanuvchi turli masalalar bo'yicha BMT Bosh Kotibiga axborotlar beradi;
- Majlislardagi chiqishlarning ogzaki tarjimasini amalgaga oshiradi;
- sessiya majlislari hisobotlarini to'zadi, chop etadi va tar-katadi;
- arxivlarda hujjalarni saklaydi va BMT a'zolari bo'lgan barcha davlatlarga Bosh Assambleyaning hujjalarni tarkatadi;
- BMT a'zolari tomonidan to'zilgan shartnomalarni ruyxatga oladi va urganadi;
- Bosh Assambleya talabiga ko'ra boshqa ishlarni amalgaga oshiradi. Kotibiyat BMTning Nyu-Yorkdagи qarorgoxida joylashgan. Bosh Kotib Kotibiyatni boshqaradi va bosh mansabdar shaxs hisoblanadi.

Bosh Kotib Bosh Assambleya tomonidan Xavfsizlik Kengashining tavsiyasiga muvofiq, besh yil muddatga tayinlanadi. Bosh Kotib Bosh Assambleyaga tashkilotning faoliyati haqida har yili hisobot beradi va xalqaro tinchlikka taxdid soluvchi masalalar haqida Xavfsizlik Kengashida ma'lumot beradi.

Xalqaro Sud — BMTning asosiy sud organidir. U 15 ta mustaqil sudyadan iborat bo'lib, ular fuqaroliklaridan katyi nazar, o'z mamlakatlarida oliv sud lavozimlariga tayinlanishlari uchun talab etilgan oliv axlokiy talablarga javob beruvchi va xalqaro huquq sohasida tanilgan yuristlar orasidan saylanadi.

Sudyalar Bosh Assambleya va Xavfsizlik Kengashi tomonidan qayta saylanish huquqi bilan tukkiz yilga saylanadilar. Xalqaro Sud 3 yil muddatga rais, raisning urinbosari va kotibni saylaydi. Xalqaro Sud tarkibida ikkita ayni mamlakat fuqarolari bo'lishlari mumkin emas.

Xalqaro Sud Statutiga muvofiq a'zo davlatlar o'rtasidagi nizolarni ko'rib chikadi va yechimini beradi a'zo bo'lmagan davlatlar bo'yicha Xavfsizlik Kengashi tomonidan har bir xalat bo'yicha alohida aniqlangan shartlar asosida ish ko'radi, huquqiy masalalar bo'yicha konsultatsiyaviy xulosalar beradi (Xalqaro Sud konsultatsiyaviy xulosalarni bevosita so'rash huquqiga Bosh Assambleya, Xavfsizlik Kengashi va BMTning boshqa organlari ega. Boshqa xalqaro tashkilotlar va organlar bunday xulosani Bosh Assambleyaning ruxsati bilan so'rashlari mumkin).

Xalqaro Sud Gaaga shaxrida joylashgan.

BMT Ustavida muhim siyosiy organ bo'lgan Xavfsizlik Kengashi va Xalqaro Sudning vakolatlari keskin farq qiladi. BMT Ustavining 36-modda 3-bandiga ko'ra Xavfsizlik Kengashi yuridik nizolarni xal etish uchun umumiy qoidaga muvofiq Xalqaro sud nizomidan kelib chiqqan xolda nizodagi tomonlar Xalqaro sudga murojaat qilishlari kerakligini e'tirof etadi. Xalqaro Sudning qarori nizodagi davlatlar tomonidan bajarilishi shart. Tomonlardan biri bu qarorni bajarmagan takdirda, nizodagi tomonlarning biri murojaat etganidan so'ng Xavfsizlik Kengashi

qaror bajarilishini ta'minlovchi tavsiyalar yoki xatti-harakatlar qo'llashi mumkin.

Xalqaro Sud sud faoliyatidan tashqari yuridik konsultatsiyaviy faoliyat ham olib boradi.

Xalqaro Sud davlatlar o'rtasidagi nizolarning tinch yo'llar bilan xal etilishi va jahonda adolat o'rnatilishiga karatilgan strategiyaning ishlab chiqilishida asosiy organlardan biri bo'lishi ko'zda to'tilgan.

BMTning ixtisoslashgan muassasalari

BMTning ixtisoslashgan muassasalari maxsus sohalardagi hamkorlikni ta'minlovchi hukumatlararo universal tashkilotlardir. Ular quyidagi xususiyatlarga egadirlar:

- birinchidan, bunday tashkilotlarni ta'sis etuvchi shartnomalar hukumatlararo xarakterga ega;
- ikkinchidan, ta'sis hujjatlari doirasidagi keng xalqaro javobgarlikka ega bo'ladilar;
- uchinchidan, maxsus: iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, insonparvarlik va boshqa sohalarda hamkorlikni ta'minlaydilar;
- to'rtinchidan, BMT bilan yakin aloqadadirlar.

Hozirgi kunda BMTning 16 ta ixtisoslashgan muassasalari mavjud. Ularni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- birinchi, ijtimoiy xususiyatli tashkilot (MOT, VOZ);
- ikkinchi, madaniy va insonparvarlik tashkilotlari (YUNESKO);
- uchinchi, iqtisodiy tashkilot (YUNIDO);
- To'rtinchi, moliyaviy tashkilotlar (MBRR, MVF, MAP, MFK);
- beshinchi, kishloqxujaligi sohasidagi tashkilotlar (FAO I-FAD);
- oltinchi, aloqa va transport sohasidagi tashkilotlar (IKAO, IMO, VPS, MSE);
- yettinchi, metereologiya sohasidagi tashkilot (VMO).

O'zbekiston Respublikasi BMTdan tashqari uning barcha asosiy ixtisoslashgan muassasalari a'zosidir.

Jahon Sog'lijni Saqlash Tashkiloti. 1946 yilda tashkil etilgan bo'lib, qarorgoxi Jeneva shaxrida. Uning asosiy faoliyat sohadari yuumli kasalliklarga qarshi ko'rash, karantin va sanitariya qoidalari ni ishlab chiqish va ijtimoiy xarakterdagi masalalardir. Xalqaro Sog'lijni Saqlash Tashkiloti Sog'lijni Saqlash tizimlari ishlarini tashkil etishda, samaradorligini oshirishda, kadrlar tayyorlash va kasalliklarga qarshi ko'rashda kumaklashadi.

BMTning ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YUNESKO) 1945 yilda tashkil etilgan, qarorgoxi Parij shaxrida. YUNESKOning asosiy maqsadi davlatlar o'rtasida ta'lim, fan va madaniyat sohalaridagi hamkorlikning va ommaviy axborot vositalarining ishlatalishi yo'li bilan xalqaro tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashdan iborat.

Jahon intellektual mulk tashkiloti 1967 yilda tashkil etilgan, qarorgoxi Jeneva shaxrida, uning asosiy madsadi bugun dunyoda intellektual mulkni ximoya qilish va bu sohadagi xalqaro kelishuvlarni xayotga tadbik etishdan iborat.

BMTning sanoat tarakkiyeti tashkiloti (YUNIDO) Bosh Assambleyaning organi sifatida 1966 yil Bosh Assambleyaning 17 noyabrdagi rezolyutsiyasi asosida tashkil etilgan. 1985 yilda YUNIDO BMTning ixtisoslashgan muassasasiga aylantirildi. Uning qarorgoxi Vena shaxrida. YUNIDOning asosiy maqsadi rivojlanayotgan davlatlar sanoatining o'sishiga va ularning tezroq industrializatsiyalashuviga ko'maklashishdan iborat.

Xalqaro taraqqiyot va qayta tiklash banki, Xalqaro valuta Fondi Bretton-Wudsda bo'lib utgan konferensiyyada BMTning moliyaviy xarakterdagi ixtisoslashgan muassasalari sifatida tashkil etilgan. Ularning qarorgoxlari Vashington shaxrida.

Xalqaro taraqqiyot va qayta tiklash banki, Xalqaro valuta Fondi, Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi va Xalqaro moliya korporatsiyasi bir-biriga o'zaro o'zviy bog'liq. Faqat Xalqaro

valuta Fondi a'zolarigina Xalqaro taraqqiyot va qayta tiklash bankiga a'zo bula oladilar va faqat Xalqaro taraqqiyot va qayta tiklash banki a'zolari kolgan ikki bo'linmaga a'zo bo'lishlari mumkin. Ushbu tashkilotlarda ovoz berish tartibi farqli bo'lib, unda har bir a'zo o'z badalining ulushiga qarab ovozlar soniga ega bo'ladi.

Xalqaro valuta Fondi moliyaviy tashkilotlar tizimida asosiy urin tutadi. Uning asosiy maqsadi a'zo davlatlar valuta-moliyaviy siyosatini muvofiqlashtirish, a'zo davlatlar valuta qursini, to'lov balansini qo'llab-kuvvatlash, ularga kiska muddatli va o'rta muddatli qarzlar berish kabilardan iborat.

Xalqaro taraqqiyot va qayta tiklash bankining asosiy maqsadi o'ziga a'zo bo'lgan davlatlar iqtisodiyotini tiklash va rivojlantirishga yordam berish, chet el xususiy sarmoyadorlarini qo'llab-kuvvatlash va sanoatni rivojlantirish uchun qarzlar berishdan iborat.

BMTning ozik-ovkat tashkiloti va kishlok xujaligi (FAO) 1945 yilda tashkil etilgan. Uning madsadlari ozik-ovkatlar si-fatini yaxshilash, aholi turmush tarzini yaxshilash, kishlok xujaligi hosildorligini oshirish, ozik-ovkat maxsulotlari taqsimoti tizimlarini yaxshilash singarilardan iborat.

Kishlok xujaligini rivojlantirish xalqaro Fondi (IFAD) 1976 yilda tashkil etilgan, qarorgoxi Rim shaxrida. Fondning asosiy maqsadi rivojlanayotgan davlatlar kishlok xujaligining rivojlanishiga kumak berish va buning uchun qo'shimcha mablaglar berishdan iborat.

Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti (IAAO) 1944 yilda tashkil etilgan. Uning qarorgoxi Montreal shaxrida. IAAO xalqaro aeronavigatsyaning tamoyillari va usullarini rivojlantirish, xalqaro havo yo'llarida xavfsizlikni ta'minlash, havo transportini rejalashtirish va rivojlantirshpni qo'llab-kuvvatlash kabi maqsadlarni ko'zlab tashkil etilgan.

Xalqaro dengiz tashkiloti (IMO) 1948 yilda tashkil etilgan, qarorgoxi Londonda. Ushbu tashkilotning madsadi dengizda yuklarni tashish va dengiz savdosi sohalarida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va dengizda xavfsizlikni ta'minlashdan iborat.

Jahon pochta ittifoqi 1874 yilda tashkil etilgan, qarorgoxi Bernda. Xalqaro pochta ittifoqining madsadi pochta aloqasini yo'lga qo'yish va uni yaxshilashdan iborat. Xalqaro pochta ittifoqiga a'zo barcha davlatlar yagona pochta hududi tashkil etadilar va bu hududda ushbu hududning yagonaligi, tranzitning erkinligi va yagona tarifni o'rnatish tamoyiliga amal qiladi.

Xalqaro elektr aloqasi ittifoqi 1965 yilda tashkil etilgan, qarorgoxi Jenevada. Xalqaro elektr aloqasi ittifoqining maqsadi elektron aloqaning barcha turlaridan samarali foydalanish va uni mukammallashtira borishga yunaltirilgan xalqaro hamkorlikni amalga oshirish, radio tulkinlarini taqsimlash, rivojlanayotgan davlatlarga texnik yordam ko'rsatishdan iborat.

Jahon metereologiya tashkiloti 1947 yilda tashkil etilgan, qarorgoxi Jenevada. Xalqaro metereologiya tashkilotining asosiy maqsadi metereologiya bo'yicha xalqaro hamkorlikni tashkil etish, metereologiya xizmatining mukammallashtib borishini ta'minlash va uning yutuklaridan aviatsiya, kishlok xujaligi, kemalar katnovida va boshqa sohalarda foydalanishdir. Uning tezkor dasturi asosini bugun dunyo ob-havo xizmati tashkil etadi.

Mintaqaviy xalqaro tashkilotlar

Universal xalqaro tashkilotlar bilan bir qatorda mintaqaviy (regional) xalqaro tashkilotlar ham mavjud bo'lib, uning a'zolari ma'lum jug'rofiy mintaka davlatlari bo'lishlari mumkin. Bunday tashkilotlar faoliyati xavfsizlik, iktisod, ijtimoiy, madaniy va boshqa sohalardagi mintaqaviy xalqaro hamkorlikka karatilgan bo'ladi.

BMT Ustavida bunday tashkilotlarga ma'lum talablar qo'yiladi. Jumladan, ularning tashkil etilish maqsadlari va faoliyati BMT Ustavining maqsad va tamoyillariga to'g'ri kelishi va bu tashkilotlar BMTning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa muammolarni yechishga karatilgan faoliyatiga kumaklashishi lozim.

Juda ko‘p sonli turli mintaqaviy tashkilotlar ichidan umumiy vakolatlilarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Kuyida ana shulardan ayrimlari to‘g‘risida tuxtalib ugamiz.

Afrika Birligi Tashkiloti — tarkibiga 50 dan ziyod Afrika davlatlari a’zo bo‘lgan eng yirik mintaqaviy xalqaro tashkilotdir. Ushbu tashkilot 1963 yil 25 mayda Addis-Abebadagi Afrika-ning mustaqil davlatlari va hukumat raxbarlari ishtirok etgan va mazkur tashkilotning Hartiyasi va Nizomi imzolangan Konferensiyada tashkil etilgan.

Hartianing 2-moddasiga binoan Afrika Birligi Tashkilotining maqsadlari quydagilardan iborat:

- birinchi, Afrika davlatlarining birligi va dustligini mustahkamlash;
- ikkinchi, ular o‘rtasida siyosiy, diplomatik, iqtisodiy, transport va aloqa, ta’lim, madaniyat, ximoya va xavfsizlik va boshqa sohalardagi hamkorlikni muvofiqlashtirish va kuchaytirish;
- uchinchi, ularning suverenitetini, hududiy yaxlitligi va mustaqilligini ximoya qilish;
- To‘rtinchi, Afrika kityasida mustamlakachilikning barcha turlarini tugatish va xalqaro hamkorlikni qo‘llab-kuvvatlash.

Arab davlatlari Ligasi 1945 yilda tashkil etilgan bo‘lib, uning maqsadlari quydagilardan iborat:

- birinchi, a’zo-davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni yanada chukurlashtirish;
- ikkinchi, a’zo-davatlarning siyosiy faoliyatini muvofiqlashtirish va iqtisodiy, moliyaviy, savdo, madaniy, ijtimoiy va boshqa sohalarda hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;
- uchinchi, a’zo-davatlarning mustaqilligi va suverenitetini ta’minalash.

Amerika Davlatlari Tashkilotiga Lotin Amerikasi va Karib dengizining 30 dan ziyod davlatlari va AKSH kiradi (Kanada bu tashkilotga kirmaydi, 1962 yilda esa AKSH tazyiki ostida Kuba Undan chikarilgan).

Janubiy-Sharkiy Osiyo davlatlari Assotsiatsiyasi (ASEAN) 1967 yilda tashkil etilgan bo‘lib, keyinchalik o‘nta Bruney va Vyetnam a’zo bo‘lgan. Assotsiatsiyaning shartnomaviy tarzda tashkil eti-lishi 1976 yilda Janubiy-Sharkiy Osiyo davlatlarining Dustlik shartnomasini va ASEAN Deklaratsiyasini imzolaganlaridan keyingina yuz berdi.

Ushbu hujjatlardan kelib chiqqan xolda Assotsiatsiyaning maqsadlari iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalarda hamkorlikni tashkil etish, Janubiy-Sharkiy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni o‘rnatishdan iborat.

Yevropa Kengashi Yevropa davlatlarini birlashtiruvchi mintaqaviy xalqaro tashkilotdir. Hozirgi kunda 40 davlat Yevropa Kengashining a’zolari hisoblanadi. Sharkiy Yevropaning Bolgariya, Vengriya, Chexiya, Slovakiya, Sloveniya, Latviya, Litva va Estoniya kabi davlatlari shular jumlasidandir. Rossiya Yevropa Kengashiga 1996 yilda qabul qilindi.

Yevropa Kengashining maqsadlariga inson huquqlarini ximoya qilish, demokratiyani chukurlashtirish, asosiy huquqiy ta’lim, axborot, atrof-muxitni ximoya qilish, Sog‘liqni Saqlash kabi masalalarda hamkorlik qilish va Yevropaning barcha davlatlarini yakinlashtirish kabilar kiradi.

Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti

Hozirgi kunda Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti xalqaro mintaqaviy tashkilotdir. Uning ta’sis etuvchi hujjatlari 1975 yilda Xelsinkida imzolangan Yakunlovchi hujjat, 1990 yilda Parijda qabul qilingan Yangi Yevropa uchun Hartiya va o‘nta qo‘sishmcha hujjat, 1992 yilda Xelsinkida qabul qilingan «O‘zgarishlar vaqtি chakirigi» Deklaratsiyasi va Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining asosiy faoliyat yunalishlari va to‘zilishini belgilovchi paket hisoblanadi. Shunga muvofiq Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining asosiy faoliyat sohalari: xavfsizlik, qurolsizlanish, kelishmovchiliklarni bartaraf

etish, iktisodiyot, madaniyat, ekologiya, inson huquqlari, erkinliklari va boshqa masalalarda hamkorlik qilishdan iborat.

Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti — tarkibiga jug‘rofiy jihatdan Vankuverdan Vladivostokkacha bo‘lgan hudud-da joylashgan 55 mamlakat a’zo bo‘lgan xavfsizlik masalalari bilan shugullanuvchi umum Yevropa tashkilotidir.

Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti tinchlik va xavfsizlik masalalariga har tomonlama yondashadi. Uning organlari va institutlari hamkorlik asosida tinchlikni mustahkamlash, qurollanish ustidan nazorat olib borish, priventiv diplomatiya, ishonch va tinchlikni mustahkamlash, inson huquqlari, saylovlarda ko‘zatuvchilikni amalga oshirish, iqtisodiy va eko-logik xavfsizlik kabi keng masalalar doirasida faoliyat ko‘rsatadi.

Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti, shuningdek, oddiy qurollarni nazorat qilish va ishonchni mustahkamlash borasida tadbirlar qo‘llashga asos yaratadi. Bu sohada eng muvofiq-lashtiruvchi kelishuv 1994 yildagi Vena hujjatidir. U davlatlar oldiga o‘z harbiy faoliyatlarining oshkoraliqi va oldindan ko‘ra-biladigan bo‘lishi majburiyatini kuyadi. Mazkur Tashkilot doirasida demokratik jamiyatda qurolli kuchlarning o‘rnini belgilovchi tamoyillar keltirilgan Faoliyat kodeksi qabul qilingan. Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotida bundan tashqari tortishuvlarni xal etishning bir kancha mexanizmlari ham ishlab chiqilgan.

Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti Parlament Assambleyasining har yili ugkaziladigan sessiyalarida tashkilot faoliyatiga tegishli masalalar muxokama etiladi, mintakada xavfsizlik va hamkorlikni kuchaytirish borasida deklaratsiya, tavsiya va takliflar tayyorlanadi. Parlament Assambleyasi kotibiyati Kopengagenda joylashgan.

Tashkilot tomonidan Jenevada Arbitraj va yarashish sudi ta’sis etilgan. Arbitraj va yarashish konvensiyasini imzolagan davlatlar Arbitraj tribunal yoki Yarash komissiyasi doirasidagi nizolarni sudda ko‘rib chiqishi uchun takdim etishlari mumkin. Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti, shuningdek, Yevropa Ittifoqi tashabbusi bilan qabul qilingan Barqarorlik paktining saklovchisi hamdir.

Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashi 1990 yilga qadar me’yor va burchlar ishlab chiquvchi va ularning bajarilishini mo‘ntazam tekshirib boruvchi konferensiya va kengashlar sifatida faoliyat olib bordi. 1990 yil oliv darajadagi Parij uchrashuvi uning faoliyatini tubdan o‘zgartirdi. Yangi Yevropa uchun Parij hartiyasida Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashi oldiga Yevropadagi tarixiy jarayonlarni boshqarishga o‘z xissasini qo‘shish vasovuk urush tugaganidan keyingi davrda yuzaga kelgan yangi talablarga javob berish vazifalari qo‘yildi. Ularni bajarish maqsadida bir nechta institut va muassasalar tashkil etildi, uchrashuvlarni o‘tkazish doimiy asosga qo‘yildi

Kengash faoliyatining keyingi rivojlanshi 1990-1999 yillar mobaynida utkazilgan bir qator doimiy uchrashuvlar shakliga kirib bordi. Ularda yangi mexanizmlar ishlab chikildi, tarkibiy bo‘linmalar tashkil etiddi va sovuk urush tugaganidan keyingi Davr Yevropasining muammolarini yechish tamoyillari ishlab chikildi.

Bugungi kunda Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti hamkorlik asosida Yevropada xavfsizlikni ta’minalash jarayonida yetakchi urin tutadi. Mazkur Tashkilot o‘zining bu boradagi urinishlarini kuchaytira borar ekan, boshqa bir kancha xalqaro, mintaqaviy va nodavlat tashkilotlar bilan yakindan hamkorlik qiladi.

